

# PANDNOMA

## Adabiy durdonalar

### Qadimgi Sharq yodgorliklari

Rus tilidan Nodir Normatov  
va  
Gavhar Normatova tarjimalari

«Pandnoma» kitobi qadimgi Sharq adabiyotidan tanlangan namunalarni o'z ichiga oladi. Bundan ming yillar ilgari suryoniy tilida bitilgan ushbu noyob durdonalar asrlar sinovidan o'tgan va bizning davrimizda ham jahonning qator tillariga tarjima qilinib, zavq-u shavq bilan o'qilmoqda. Chunki bu asarlar, eng avvalo, rang-barangligi va chuqur mazmundorligi bilan diqqatga sazovordir. Ular ajoyib hikoyatlar, tarixiy va afsonaviy rivoyatlar, otalarning o'z farzandlariga qarata aytgan pand-u nasihatlar, donish- mandlarning hikmatli so'zlari, qiziqarli topishmoqlar, ibratli maqol, matal va masallardan iboratdir. Qadim Sharq xalqining ko'p asrlik hayotiy tajribasi va mislsiz donoligini o'zida aks ettirgan ushbu bitiklar o'zbek kitobxonlariga ham manzur bo'ladi, deb umid qilamiz.

## TAQDIR O'YINLARI YOXUD MUNOFIQLARDAN QUTULISH SIRLARI

### DONOLAR DONOSI AXIKAR QISSASI

Osuriya va Nineviya shohi Asarxaddonning zurriyodi bo'lmish Sinaxeribning mamlakatni idora qilganiga yigirma yilcha bo'lay deganda men - Axikar, saroy munshisi edim. Yoshligimda hech qachon zurriyodim bo'lmasligi haqida menga xudodan vahiy kelgan edi. Ammo mol-u davlatim shunchalik ko'p ediki, hisob- kitobiga yetib bo'lmas edi. Yaxshi niyat qilib, oltmishta xotinga uylandim. Ularning har biriga shohona saroylar qurdirdim, biroq o'g'ildan, g'oyat orziqib kutganim - merosxo'rdan sira darak bo'lmadi.

Bir kuni qurbonlikka joy tayyorlab, olov yoqdim-da, turli xil mushk-u anbarlar sepib, yaratgan tangrimga iltijo qildim:

- Yo, qudratingdan, Tangrim! O'lsam-u, orqamda birorta merosxo'rim qolmasa, odamlar nima deydi, axir? «Yaratganiga sidqidildan xizmat qilgan orif va taqvodor Axikar ham o'ldi- ketdi-ya», deyishmaydimi? Uning qabriga bir siqim tuproq tashlaydigan o'g'li, loaqal birorta qizi ham yo'q, go'yo Ollohning qarg'ishiga uchragandek. Yo, qudratingdan, parvardigori Egam! Senga yalinib-yolboraman, menga bir o'g'il ato etkim, payti kelib paymonam to'lganida, ko'zlarim ochiq qolmasin!

Shu payt falakdan bir sado keldi:

- Ey, zakovatli Axikar! Mendan nimaiki so'ragan bo'lsang, barini berdim. Faqat farzand ato qilmadim. Ammo ko'pam qayg'uraverma! Opangning o'g'li Nodon - sening jiyaning, o'g'il o'rniga o'g'il bo'ladi. Uni o'zing tarbiya qilib ulg'aytir va turli ilmlarni o'rgat.

Bu so'zlarni eshitib, men battar qayg'u-g'amga botdim.

- Yo, parvardigori olam! Opamning o'g'li Nodonna o'lganimda ustimga bir siqim tuproq tashlash uchungina beryapsanmi, xolos, - deya zo'rg'a shivirladim.

Biroq falakdan boshqa sado kelmadi. Men hamma narsani xuddi eshitganimdek bajardim. Opamning o'g'li Nodonna farzandlikka olib, uni yaxshilab parvarishlash uchun sakkizta enagaga topshirdim, chunki bola judayam nimjon edi. Uni par yostiqlarga yotqizib, shohi va harir liboslar kiygizdim, asal-u novvot bilan boqdim. O'g'lim xuddi sarv daraxtidek qaddi-qomati kelishgan, nihoyatda chiroyli bola bo'lib o'sa boshladi. Yigitcha ulg'aygan sari men unga bilim va zakovat sirlarini o'rgata boshladim.

Bir kuni safardan qaytgan podshoh meni huzuriga chaqirib, dedi:

- Dono va zukko maslahatgo'yim Axikar! Vaqti-soati kelib bu yorug' olam bilan vidolashsang, kim menga sen kabi sidqidildan xizmat qila oladi?

Podshohga javob qildim:

- Olampanoh! Iloyo umringiz uzoq bo'lsin! Siz bu jihatdan tashvish tortmang. Chunki mening o'rnimni bosa oladigan zukko o'g'lim bor.

Podshoh dedi:

- Uni huzurimga olib kel. Agar u haqiqatan ham sening o'rningni bosa olsa, tinchgina qarilik gashtini surib yurishing uchun seni ishingdan ozod qilaman!

Men o'g'lim Nodonna podshoh huzuriga keltirdim. Nodonna ko'rib, podshoh shunday dedi:

- Ushbu kunni Ollohning o'zi yorlaqasin! Axikar menga va otam Asarxaddonga sidqidildan qilgan xizmati uchun munosib taqdirlanadi. U, mana, hayotligidayoq o'g'lini saroy xizmatiga kamarbasta qilib, bundan keyin qolgan kunlarini tinch va osoyishta o'tkazadi.

Va men, Axikar, podsho oldida tiz cho'kib, ta'zim qildim:

- Olampanoh! Ilohim umringiz uzun bo'lsin. Otangiz va Sizga sidqidildan qilgan xizmatlarim evaziga hali yosh va tajribasiz o'g'limdan o'z marhamatingizni darig tutmang. Shuning o'zi men uchun eng oliy mukofot bo'ladi - dedim.

So'zlarimni eshitgan podshoh, bu xohishimni bajarish uchun qasamyod qildi va men yana bir bor unga ta'zim qildim. Shu tariqa men kecha-yu kunduz o'g'limning qulog'iga dono fikr va maslahatlarni quyaverdim. Mana mening unga qarata aytgan gaplarim:

1. So'zlarimga quloq sol, o'g'lim Nodon! Butun diqqat- e'tiboringni bir yerga to'plab, so'zlarimning mag'zini chaq.
2. O'g'lim Nodon! Agar biror gapni sir saqlamoqchi i bo'lsang, u so'zlarni ko'ngling qa'riga joyla: U sirni hech kimga ochma, toki u og'zingda yonayotgan bir bo'lak cho'g'ga aylanmasin, tilingni kuydirib, ruhingga azob bermasin va seni Ollohga qarshi qo'ymasini.
3. O'g'lim, eshitganingni hamma yoqqa ovoza qilma, ko'rganingni esa hech kimga aytib yurma.
4. O'g'lim, tugun qilingan arqonni yechma, keragi bo'lmasa arqonga yangidan ham tugun qilma.
5. O'g'lim, yuziga atir-upa va ko'zlariga surma tortgan ayollarga shahvatparastlik bilan ko'z tikma, hatto xayolingdan kechgan bebosh tuyg'ularni ham o'zingdan nari hayda. Bor bisotingni unga bergan taqdirda ham, u senga baxt keltirmaydi. Faqat, Xudo oldida yana bir bor gunohga botganing qoladi, xolos.
6. O'g'lim, hech qachon birovlarining xotiniga ko'z olaytirmagin, tokim, sening xotiningga ham yomon nazar bilan qaramasinlar.
7. O'g'lim, bodomga o'xshashni havas qilma. Chunki bodom erta gullashga shoshilib, mevasini hammadan kech beradi. Eng yaxshisi tut daraxtiga o'xshagin. Tut kech gullaydi-yu, ammo uning mevasini birinchi bo'lib yeyishadi.
8. O'g'lim, ko'zlaringni yerga tik-u, tovushingni balandlatma, chunki baqirib-chaqirganing bilan hech narsaga erisha olmaysan. Agar baqiriq-chaqiriqlar bilan imorat solib bo'lganida, eshak har kuni ikkitadan uy qurgan bo'lardi. Agar omochni faqat kuchgina harakatga keltirganda edi, tuyaning yelkasidan hech qachon «bo'yinturuq tushmas edi.
9. O'g'lim, nodon bilan may ichgandan ko'ra aqlli bilan tosh tashigan yaxshiroqdir.
10. O'g'lim, imonsiz odamlar bilan may ichgandan ko'ra uni taqvodor insonlarning qabriga to'kkaning afzalroqdir.
11. O'g'lim, ahmoq bilan yursang, aqlli bo'lmaysan, ammo aqlliga yondoshsang, xor bo'lmaysan!
12. O'g'lim, oqil va dono odam bilan hamsuhbat bo'lsang donoliging ortar, ammo ezma va laqqi odamga yaqinlashma, toki uning ezmaligi senga ham yuqmasin.
13. O'g'lim, chorig'ing butunligida oldingdagi mashaq- qatli yo'lni tekislab, o'z o'g'illaring va nevaralaringga yo'lni tozalab ber.
14. O'g'lim, agar davlatmand biror kishi ilon go'shtini tanovul qilsa, shundoq deydilar: «Ha, shifobaxsh malham o'rniga yebdi-da». Agar o'sha ilon go'shtini bironta kambag'al bechora yeb qo'ysa, unda odamlar: «Qarang, bechora kambag'al shunchalik och ekan-ki, hatto ijirg'anmasdan, ilondek makruh bir gazandani ham yeb qo'yibdi», deb aytishadi.
15. O'g'lim, yaramas odam bilan hatto noningni ham baham ko'rma.
16. O'g'lim, faqat sengagina tegishli bo'lgan narsani iste'mol qil, begonanikiga aslo qo'lingni cho'zma.
17. O'g'lim, dushmaning xursand bo'lganida g'azab olovida yonma, uning boshiga kulfat tushganda sen quvonma.

18. O'g'lim, chiroyli ayollarning husn-u jamoliga uchma va o'z his-tuyg'ularingni jilovlab ol. Chunki ayolning haqiqiy go'zallig'i uning muloyim va ma'sumaligida, butun joziba va latofati esa beozor va mayin ohang bilan so'zlashidadir.
19. O'g'lim, gap me'yorini bilmaydigan ayolga hech qachon yaqinlashma.
20. O'g'lim, agar dushmaning biror yovuz niyatni o'ylab, sening qarshingga chiqqan bo'lsa, uni aql-zakovat kuchi bilan kuchsizlantirgin.
21. O'g'lim, agar imonsiz odam yiqilsa, qaytib o'rnidan turmaydi, ammo taqvodor, orif inson har mushkulotni ma tonal, bilan yengib o'tadi, chunki Olloh u bilan birgadir.
22. O'g'lim, o'z o'g'lingni kaltakdan benasib qilma, chunki go'ng yerga kuch bag'ishlash uchun, yugan otni jilovlash uchun kerak bo'lganidek, qamchi ham bola tarbiyasi uchun kerakdir.
23. O'g'lim, farzanding ulg'ayib, kuchga kirib senga qarshi chiqmasdan, har xil qalang'i-qasang'ilarga qo'shilib, nojo'ya ishlar bilan obro'yingni to'kmasdan, hali kich- kinaligidayoq uni o'zingga bo'ysundirib, itoatkor qilib ol.
24. O'g'lim, ho'kiz va eshak sotib olsang, tuyoqlari baquvvatidan olgin. Xonavayron bo'lmaslik uchun qochoq va o'g'ri qul sotib olma.
25. O'g'lim, yolg'onchining so'zlari go'shti bemaza se- miz qushlarga o'xshaydi, chunki aqli-esi yo'q kishigina ularni tanlamasdan paqqos yeyaveradi.
26. O'g'lim, o'z ota-onangni qarg'ishiga uchrama, mabodo bunday holat yuz bersa, qariganingda bolalaringning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lolmaysan.
27. O'g'lim, uzoq yo'lga qurolsiz chiqma, axir qayerda va qachon o'z dushmaningni ro'baro' kelishini bilmaysan.
28. O'g'lim, daraxtni shoxlari va mevalari, tog'larni esa qalin o'rmonzorlar bezaganidek, yigitga ham xotini va bolalari savlat bag'ishlab turadi. Aka-ukalari, xotini va o'g'il-qizlari bo'lmagan erkak dushmanlari oldida faqir ko'rinadi. U xuddi chorrahada yolg'iz o'sgan daraxtga o'xshaydi. Har bir o'tkinchi uning mevasidan uzib oladi, dala hayvonlari esa tanasini g'ajib kemiradi.
29. O'g'lim, hech qachon: «Xo'jam ahmoq-u, men undan aqlliroqman», deb o'ylamagin. O'z xo'jangni har qanday nomaqbul ishlardan qaytar, shunda u seni yaxshi ko'rib qoladi.
30. O'g'lim, boshqalar seni «aqlli» deb hisoblashmasa, sen «aqlliman» deb chiranmagin.
31. O'g'lim, o'z xo'jangga yolg'on so'zlamagil, toki u sendan nafratlanib: «Ko'zimdan nari yo'qol!», deb dargohidan quvmasin.
32. O'g'lim, doimo haqiqatni so'ylagil, toki xo'jang senga: «PIamisha menga esh bo'lib, men bilan birga yurgin», deya olsin.
33. O'g'lim, boshingga baxtsizlik tushganda Ollohni qarg'ama, u sening qarg'ishingni eshitib qolib, g'azab- lanmasin.
34. O'g'lim, xizmatkorlaringdan birontasiga alohida iltifot ko'rsatmagil, axir ulardan qay biri eng sadoqatli bo'lib chiqishini bilmaysan-ku.
35. O'g'lim, o'z egasini tashlab, ketingdan ergashgan itni toshlar bilan urib, haydab yuborgin.
36. O'g'lim, podadan ajrab har yoqqa tarqab ketgan mollar bo'rilarga osonlik bilan yem bo'ladi.
37. O'g'lim, qariligingda izzat-hurmatda bo'lmoqlik uchun yoshligingda adolatli va haqiqatparvar bo'lgin.
38. O'g'lim, so'zlaringdan bol tomsin, shuni unutmaki, it dumini likillatib, erkanib ovqat topsa, hurib tayoq yeydi.
39. O'g'lim, o'z yaqinlaring oyog'ingni bosib olishiga yo'l qo'yma, toki u keyinchalik bo'yingga ham minib olmasin.

40. O'g'lim, aqlli kishini aqlli so'z bilan urginki, go'yo yoz kuni kasalni bezgak tutganidek, sening so'zlaring ham uning qalbini titratib yuborsin. Ammo ahmoqni qanchalik kaltaklamagin, baribir uni aqlli qilolmaysan.
41. O'g'lim, faqat aqlli va tadbirkor chopargagina topshiriq ber-u, uni qanday bajarish yo'l-yo'riqlarini aytma, ammo chopar nodon bo'lsa, uning o'rniga o'zing yo'lga otlan.
42. O'g'lim, avvalo o'z o'g'lingni yaxshilab sinab ko'rib, sinovdan o'tolsagina pul va maldavlatiningni topshir.
43. O'g'lim, boshingga mushk-u anbarlar sepilishini kutmasdan ziyofatni birinchi bo'lib tashlab chiq, toki boshingda tayoq sinmasin.
44. O'g'lim, badavlat kishini odamlar hurmat qilib, aqlli zot deyishadi, g'arib kimsadan esa hazar qilishib, uni ahmoq deyishadi.
45. O'g'lim, men qop-qop tuz va qo'rg'oshin bo'lak-larini ham tashidim, ammo qarz olmagan bo'lsam ham, qarzni to'lashdek og'ir yukni uchratmadim.
46. O'g'lim, men temir-tersak tashib, harsangtoshlarni o'z o'rnidun qo'zg'atdim, ammo bu ishlarning bari qaynota uyida yushashdan ko'ra osonroq ekan.
47. O'g'lim, o'z o'g'lingni xo'jalik ishlariga o'rgatib bor, toki u o'z uy-joyini yaxshi boshqara olsin.
48. O'g'lim, yoningdagi do'sting uzoqdagi jigaringdan yaxshiroqdir. Yaxshi nom go'zallikdan a'loroqdir. Chunki yaxshi nom bir umrga qoladi, go'zallik esa so'lib, yo'q bo'lib ketadi.
49. O'g'lim, ko'r qalb egasi bo'lgandan ko'ra, ko'zlaring ko'r bo'lgani yaxshiroq. Ko'r odam o'z harakat yo'lini o'rganib olib, qoqilmasdan ketaveradi, ammo qalbi ko'r odam to'g'ri yo'ldan ham adashib, qing'ir yo'llarga kirib ketadi.
50. O'g'lim, o'z tinchini yo'qotgan odam uchun hayotdan ko'ra o'lim yaxshiroqdir. Ammo faqat nodonlargina oh-voh va yig'i-sig'ini shod-xurramlik va quvonchlardan afzal ko'radilar.
51. O'g'lim, qo'lingdagi luqmayi haloling birovning qozonidagi moyli go'shtdan ko'ra yaxshiroq, qo'rangdagi qo'zichoq uzoqdagi qo'ydan yaxshiroq, tiyinlarni yig'ib yurgan kambag'al boyligini havoga sovurayotgan boydan yaxshiroq, ustingdagi dag'al jun matodan bo'lgan kiyiming boshqalarning shohi-ipak kiyimlaridan yaxshiroq.
52. O'g'lim, qalbingdan otilib chiqmoqchi bo'lgan ayb-lash va tanbeh so'zlaringni jilovlab ol. Agar bu so'zlar og'zingdan chiqib ketsa, sen shu ondayoq bir do'stingdan ajralasan.
53. O'g'lim, ichingda obdon pishitilmagan gaplarni og'zingdan chiqarma, chunki suhbat payti qoqilgandan ko'ra, xayolan qoqilgan yaxshiroqdir.
54. O'g'lim, mabodo bironta nojo'ya gap eshitib qolsang, uni yetti quloq chuqurlikka ko'mib yubor.
55. O'g'lim, odamlar janjallashayotgan joyda hozir bo'l ma, chunki janjalning oqibati tez-tez o'lim bilan tugaydi.
56. O'g'lim, kimki shar'iy va adolatli hukmni buzib ko'rsatsa, u Ollohning g'azabiga uchraydi.
57. O'g'lim, padari buzrukvoringning do'stlaridan uzoqlashmagin, tokim sening do'stlaring ham sendan uzoqlashmasinlar.
58. O'g'lim, hukmdorlarning bog'lariga va qizlariga yaqinlashma.
59. O'g'lim, hukmdor oldida o'z yaqinlaringdan yordamingni ayama, shunda sen arslonning panjasidan yana bir insonni qutqargan bo'lasan.
60. O'g'lim, dushmaning halok bo'lganda suyunma.
61. O'g'lim, o'zingdan kattani ko'rsang uning hurmati uchun o'rningdan tur.

62. O'g'lim, agar hovuz havoda muallaq turib qolsa, qush qanotsiz ucha olsa, qarg'a qordek oqarib ketsa, zaqqum asalga aylansa, ahmoq ham o'shanda aqlli bo'lib qoladi.
63. O'g'lim, agar qurbonlik qiluvchi kohin bo'lsang Ollohdan qo'rq, unga sidqidildan xizmat qilgin va bu savob ishdan qaytmagin.
64. O'g'lim, Ollohning marhamati bilan ishi o'ngidan keluvchi kishini hurmat qilgin.
65. O'g'lim, baxt kulib boqqan kishi bilan bahslash- magin, suv toshqini payti oyoqda mustahkam turishga behuda urinmagin.
66. O'g'lim, insonning ko'zlari xuddi tubsiz chohga o'xshaydi. Ikkalasini tuproq solib bekitmaguningcha hech narsaga to'ymaydi.
67. O'g'lim, agar o'z-o'zingga: «Qanday qilib aqlli bo'lish mumkin?» degan savolni bersang, unda shularni bilib qo'y: yolg'on so'zlama, o'g'rilik qilma, ana shundagina sen aqlli bo'lasan.
68. O'g'lim, hech qachon ayolning nikoh marosimida qatnashmagin. Agar keyinchalik uning turmushi buzilsa, qarg'ishiga uchraysan. Agar turmushi yaxshi bo'lib ketsa, u seni biror marta eslamaydi ham.
69. O'g'lim, kimningki egnidagi libosi bashang bo'lsa, uning so'zi ham hamma yerda tosh bosadi, kimki yupun kiyimda bo'lsa, uning so'zlariga birov e'tibor ham bermaydi.
70. O'g'lim, to'kin-sochinlikka o'rganib, keyinchalik ochlik azobini tatigan kishi hech qachon xayr-sadaqa bermavdi. Biroa kambau'allikda kun kechirib. Kovinchalik to'kin-sochinlikka erishgan kishi ham baribir xayr-sadaqa bermaydi.
71. O'g'lim, o'zingga tegishli bo'lmagan go'zallikka ko'z tikma. Ko'plarni mana shu go'zallik halokatga mahkum qilgan, chunki go'zal ayolning muhabbati kishini yondirib kul qiladi.
72. O'g'lim, qandaydir nodon boshingga har xil mushk- u iforlar sepgandan ko'ra bir donodan yuz tepki yeganing yaxshiroqdir.
73. O'g'lim, o'z do'stingni tez-tez yo'qlayverma, toki sen uning joniga tegib, yomon ko'rib qolmasin.
74. O'g'lim, o'zingga tegishli bo'lmagan tilla uzukni qo'lingga taqma, aks holda, hatto ahmoqlar ham sening ustingdan kulishga haqlidirlar.

Men, Axikar, o'zimcha shunday qarorga keldim: men o'rgatgan ilmlarning barini Nodon muqaddas deb biladi va podshoh saroyida sidqidildan xizmat qilib, o'z pada- rining o'rnini oladi. Ammo chuchvarani xom sanagan ekanman.

Men o'rgatgan barcha yaxshi bilimlarni Nodon havoga sovurib yuborishini qayerdan ham bilay! Buning ustiga Nodon shunday debdi:

- Otam Axikar qarib qolgan. Uning bir oyog'i yerda bo'lsa, bir oyog'i go'rda. Aqli xiralashib, donolik va zukkolik uni tark etgan.

Shundan keyin Nodon mening xizmatkorlarimga azob berib, ularni kaltaklab, hatto o'ldirish darajasiga ham borib yetdi. U sadoqatli, mehnatkash va sevimli xizmatkorlarimga sira rahm-shafqat qilmadi. Bebosh o'g'il, hatto otlarni ham o'ldirib, xachirlarni mayib qildi.

Nodonning bu nojo'ya xatti-harakatlarini ko'rib unga shunday dedim:

- O'g'lim Nodon, mening mol-mulkimdan qo'lingni tort! Peshona tering bilan topilmagan boylikning sen uchun qadr-qimmatini yo'qdir. Shu tufayli uni avaylamoqni bilmaysan. yVa men bu haqda o'z podshohim Sinaxeribga arz qildim. Sinaxerib amr qildi:

- Umrining so'nggi daqiqasigacha Axikarning mol- mulkidan o'zidan boshqa birovning foydalanmog'i man etilsin.

O'g'lim Nodon mening uyimda o'zining o'rniga ukasi Nevuzardan yashayotganligini ko'rib, qattiq g'azablanib dedi:

- Haqiqatan ham otam Axikarning sharti ketib, parti qolibdi. Qarigan chog'ida es-hushidan ayrilib, nima qilarini ham bilmaydi. Hali ko'rasiz, ona suti og'zidan ketmagan go'dak, ukam Nevuzaradanni merosxo'r qilib olib, men qonuniy merosxo'rni esa uyidan haydab yuborib, kafangado qilishi ham hech gap emas.

Uning so'zlarini eshitib, men shunday dedim:

- Unga bergan ta'lim-tarbiyamni Nodon nonko'rlik bilan oyoqosti qildi. Essiz mehnatlarim, essiz unga sarflagan vaqtim.

Bularni eshitib Nodon battar g'azab otiga mindi va menga nisbatan yana bir yovuz niyatini amalga oshirish uchun podshoh saroyiga yo'l oldi. Bu gal u eng qabih vositani tanlagan edi. U podshohimiz Sinaxerib bilan dushmanlikda bo'lgan ikkita shohga maktub yo'llabdi. Birinchi maktubda shunday deb yozilgandi: «Ushbuni Axining o'g'li Hamselimga Elam va Fors shohiga Osuriya va Nineviyaning podshosi Sinaxeribning munshisi va muhrdori Axikardan duoyi salom deb biling. Bu maktubni olgach, meni qarshilash uchun Osuriyaga qarab yurish qiling. Men sizni mamlakat ichkarisiga olib kiraman va siz uni jang-u jadalsiz \*\$• osongina egallab olasiz».

Ikkinchi maktub esa quyidagicha edi:

«Misr podshohi Fir'avnga, Osuriya va Nineviyaning podshohi Sinaxeribning munshisi va muhrdori Axikardan duoyi salom. Bu xabarni olishingiz bilan tezda tayyorlanib, mamlakat janubidagi Burgutlar vodiysiga yurish qilib, ava (avgust) oyining 25- kunida meni kutib oling. Men sizni Mneviyaga boshlab kiraman va siz hech qandaykuch ishlatmasdan uni zabt etasiz».

Nodon o'z dastxatini xuddi menikiga o'xshatib, bu maktublarga podshoh muhrini bosibdi.

Nodon podshoh Sinaxerib nomidan yana bir maktub yozibdi. U maktubda shunday deyilgan ekan: «Saroy munshisi va podshoh muhrdori Axikarga podshoh Sinaxeribdan farmoni oliy. Bu maktubni olishing bilan qo'shinlarimning hammasini Sis tog'iga to'pla. U yerdan meni qarshilash uchun janub tomondagi Burgutlar vodiysiga avgust (ava) oyining 25- kunida yetib borgan. Meni ko'rganingdan so'ng go'yo buyuk jang oldidan bo'lganidek, qo'shinlarni menga qaratib jangovar safga tizgin. Toki Misr podshohi Fir'avnning elchilari mening qo'shinlarim qancha ekanligini o'z ko'zlari bilan ko'rib, kuch-qudratimga tan bersinlar».

Va bu maktubni o'g'lim Nodon podshoh orqali menga yubortiribdi. Men o'zimga qo'yilayotgan tuzoqdan bexabar bo'lganim uchun, tabiiyki, darhol shoh amrini bajarishga kirishdim.

O'g'lim Nodon podshoh huzuriga kirib, go'yokim, mening uyimdan topilgan xatlarni ochib, podshohga o'qib beribdi.

Bu maktubda nimalar yozilganini eshitgan podshoh Sinaxerib achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kib, qich- qiribdi:

– Yo Oллоh, men qachon Axikarga zarra zulm qilgan edimki, u menga – o'z podshohiga xiyonat etibdi. O'z quloqlarimga ishongim kelmaydi.

Shunda o'g'lim Nodon podshohga shunday debdi:

–Tinchlaning, olampanoh va bunchalik qayg'urmang. Bitta xiyonatkor chiqqani bilan boshqa minglab sadoqatli qullaringiz bordir. Nomada aytilganidek, belgilangan kunda Burgutlar vodiysiga boramiz va bu ishlar haqiqatan ham tasdiqlansa, unda u bediyonat sotqin sizning jazo qilichingizdan qochib qutulolmas.

O'g'lim Nodon va podshohimiz Burgutlar vodiysiga kelishganida rostdan ham mening yonimda' ulkan qo'shin to'planib turgandi. Men esa podshohni ko'rishim bilanoq, xuddi maktubda yozilganidek, qo'shinni u tomonga qaratib, jangovar saf–ga–tizdim: Buni ko'rib podshohimiz:



«Axikar sarkardalarni menga qarshi qayrabdi. Endi meni toj–u taxtimdan judo qiladi va mamlakatim yovlarga o'lja bo'ladi», deb o'ylab, qattiq qo'rqqanidan rangi bo'zdek oqarib ketibdi. Otgan zaharli o'qi nishonga borib tekkan, ya'ni mening xiyonatkorligimga podshohni ishontira olgan Nodon bosiqlik bilan debdi:

– Ko'p qayg'uravermang, olampanoh! Yozgi ko'shkin– gizga borib tinchgina orom oling. Men o'zim huzuringizga Axikarni olib boraman!

Podshoh hazratlari o'z saroyiga qaytib ketgach, Nodon mening yonimga kelib dedi:

– Sen farmonni a'lo darajada bajarib, podshohning maqtoviga sazovor bo'lding. Qo'shinni jangovar safga tizganing olampanohga rosa ma'qul bo'ldi va qo'shin– larning hammasini o'z joylariga tarqatib, o'zing saroyga – hazrat huzuriga yetib borishingni tayinladi.

Men podshoh dargohiga keldim. Meni ko'rgach olampanoh shunday dedi:

– Sen baribir huzurimga kelibsan–da, Axikar, mening munshim va muhrdorim, Osuriya va Nineviyaning sevimli o'g'li! Men seni izzat–hurmat qilib, eng yaqin odamim deb yursam, sen menga sotqinlik qilib, dushman tomon o'tib olibsan–da!!!

Mening nomimdan yozilib, podshoh muhri bosilgan nomalarni g'azab bilan yuzimga uloqtirdi. Men bu maktublarni o'qib, lol–u hayron qoldim, a'zoi badanim bo'shashib ketdi. O'zimni oqlay desam, tilim kalimaga kelmasdi. Meni gapirishimning oldini olish uchun o'g'lim Nodon menga do'q urdi:

– Nari tursang–chi, ahmoq chol. Podshohimizning muborak yuzlariga qarashga qanday jur'at etding? Undan ko'ra qo'llaringni zanjirga bog'latib, oyoqlaringga kishan solsang–chi. Davlatga qarshi jinoyating isbot qilingach, yana nima istaysan olampanohdan?

Podshoh Sinaxerib mendan yuzini o'girdi va bechora do'stim Nevusemaxga qarata shunday dedi:

– Axikarni qatl qil–da, boshini tanasidan judo qilib, yuz quloch nariga otib yubor!

Men shunda tiz cho'kib va yer o'pib podshohga dedim:

– Hazrati oliylari! Iloyo umringiz uzoq bo'lsin, dunyo turguncha turing. Xohishingiz meni o'ldirmoq ekan, mayli. Ammo men sizning oldingizda pokiza va gunohsizman. O'limim oldida sizdan bir iltimosim bor: buyuring, meni o'z uyim oldida qatl qilib, jasadimni qabristonga ko'm–sinlar.

Podshoh Nevusemaxga buyurdi:

Axikarni o'z darvozasi oldida qatl qilib, jasadini o'mib kelinglar. Qo'l–oyog'imni bog'lashayotganda men ishonchli bir odamning qulog'iga shivirlab, ushbu so'zlarni xotinim Eshpagniga yetkazishni tayinladim:

– O'z qarindoshlarimizdan bo'lgan qizlardan mingtasini chaqirtirgin, ular motam liboslariga o'ranib, boshlariga tuproq sochib, mening qarshimga oh–voh qilib, achchiq– achchiq ko'z yoshi to'kib, nola–yu fig'onlar chekib chiqsinlar. Hali men o'lmasimdanoq ular menga aza ochib, yig'lab–siqtasinlar. Sen bo'lsa non yopib, to'kin–sochin dasturxon tuzab, do'stim va unga hamroh bo'lgan oliy zot mehmonlarni siylagin. Mehmonlarning qarshisiga chiqib kutib ol, uyga olib kir, men ham o'z uyimga xuddi mehmondek boraman.

Xotinim Eshpagni juda ham aqlli ayol bo'lganidan mening maktubimdagi so'zlarning asl ma'nosini tezda tushunibdi–da, aytganlarimni bekam–u ko'st bajaribdi. Mehmonlarni kutib olib, uyga boshladi. Ularni mehmon qilib, izzatlarini joyiga qo'ydi. Mehmonlar sharobga to'yib, mudray boshlagach, men, Axikar, Nevusemaxga shunday deb murojaat qildim:

– Do'stim, ko'zlaringni osmonga tik–u, o'rtamizdagi mehr–muhabbatni bir esla! Mening o'limimdan qayg'ur– ma, faqat bir narsani, ya'ni bir paytlar Sinaxeribning otasi Asarxaddon seni o'ldirish uchun menga topshirganini unutmagin. Men esa sening zarracha ham gunohing yo'qligini bilganim uchun bu jirkanch ishni amalga oshirmadim. Toki podshohning o'zi seni talab



qilmaguncha, menikida istiqomat qilding. Men seni uning huzuriga olib borganimda g'azabi sovib qolgan podshohi olam saxiylik bilan meni taqdirladi va o'shanda men undan ancha–muncha sovg'alar olib qaytgan edim. Endi sen ham yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarib, meni halok qilmagin. «Axikar qatl qilingan emas» qabilidagi gaplar tarqalib, podshohning g'azabini qo'zg'atmasligi uchun sening odamlaring o'limga mahkum etilib, zindonda yotgan gunohkor qui Manzifarni qatl qilishsin, unga mening liboslarimni kiydirib ko'mishsin. Men gunohsizni esa tirik qoldirgin.

Bu so'zlarimni eshitib do'stim Nevusemaxning menga rahmi keldi. Mening liboslarimni olib, zindonda yotgan qulga kiydirtirdi va o'zi bilan kelgan oliy rutba sheriklarini uyg'otdi. Nevusemaxning sarxush sheriklari haligi qulni qatl etib, uning boshini yuz quloch nariga otib yuborib, so'ngra jasadni ko'mib keldilar.

Osuriya va Nineviya bo'ylab: «Podshohning munshisi Axikar qatl qilindi», degan xabar tarqaldi. Do'stim Nevusemax bo'lsa, xotinim Eshpagni bilan birgalashib, men uchun kengligi uch quloch, balandligi besh quloch bo'lgan yashirin yer osti boshpanasini shundoqqina uyimning ostonasi tagidagi toshloq yerdan qazib tayyor–lashdi, oldimga non va suv qo'yib chiqib ketishdi. So'ngra ular podshoh Sinaxeribning huzuriga borib, quyidagi xabarni yetkazishdi:

– Sening munshing Axikar qatl qilindi!

Bunday xabarni eshitgan odamlar chuqur qayg'urib, achchiq–achchiq ko'z yoshi to'kishdi, xotin–qizlar yuzlarini timdalab, nola–yu fig'on chekishdi. Odamlar esa: «Bechora donishmand Axikar, essiz, sendan judo bo'ldik, sen doimo yurtimizni dushman tajovuzidan saqlash uchun dono tadbirlar o'ylab toparding. Endi senga o'xshagan inson qaytib bu dunyoga kelmaydi», deb afsus–nadamatlar chekishibdi. „

Podshoh Sinaxerib esa o'g'lim Nodonni huzuriga chaqirtirib, unga shunday debdi:

– Borib otang Axikarni ta'ziasini o'tkazib, so'ngra saroyga kel!

Ammo mening uyimga kelgan Nodon qayg'urishni xayoliga ham keltirmas edi. U hatto meni nomiga bo'lsa ham eslamadi. U o'ziga o'xshagan yengiltak va ahloqsiz kishilarni to'plab, dasturxon atrofida o'tirib, mast–alast holda quvnoq qo'shiqlar aytishdi. Sodiq xizmatkorlarimning ustidan kiyimlarini yechib olib, shafqatsizlik bilan ularni kaltakladi. U, hatto, or–nomusni butunlay unutib, xotinim Eshpagnini ham zo'rlamoqchi bo'ldi. Men esa qorong'i va zax o'rada o'tirib, uyimda bo'layotgan to'polonlar va sodiq xizmatkorlarim mening o'limim uchun oh–faryod qilayotganlarini eshitib yotardim.

Oradan bir necha kun o'tgach jonajon do'stim Nevusemax meni ko'rgani non va suv olib keldi. Men unga dedim:

– Bu yerdan chiqqaningdan keyin ibodatxonaga borib, men uchun xudoga shunday deb iltijo qil: «Yo, Olloh, yolg'iz o'zing yer yuzida rahm–shafqat urug'ini sepib, adolat va haqiqat o'rnatuvchisan! Sening sodiq quling bo'lmish Axikarning so'zlariga e'tibor ber! Sening sharafingga u qilgan qanchadan–qancha qurbonliklarni esla! Endilikda esa ana shu sodiq quling zarracha ham yorug'lik tushmaydigan yer ostidagi qorong'i bir zax o'raga tashlangan. Nahotki, sen sodiq qulingni qutqarolmasang? Yo tangrim, do'stimning iltijoli tovushini eshitsang–chi!»

#### IV

Misr podshohi Fir'avn, men Axikarning qatl qilinganimni eshitib, juda xursand bo'libdi va podshoh Sinaxeribga noma yuboribdi: «Osuriya va Nineviyaning podshohi Sinaxeribga men Misr shohi Fir'avn sog'lik– omonlik tilayman! Men osmon va yer o'rtasida bir qasr qurmoqqa qaror qildim. Shu munosabat bilan sendan bir iltimosim bor: o'z quruvchilaringdan shundoq qasr qurishga qobil birorta zo'r usta yuborsang, toki u mening barcha savollarimga ham to'liq javob bera olsa. Agar sen menga shunaqa ustani yuborsang, unda men Misrning jarcha solig'ini, uch

yillik o'lponning hammasini senga yuboraman. Ammo sen bunday ustani yubormasang, unda butun Osuriya va Nineviyaning solig'ini va uch yillik o'lponning hammasini sening yurtingga jo'natgan elchilarimdan berib yuborin».

Ushbu noma podshohga o'qib eshittirilganidan so'ng u davlatning barcha amaldorlari, bilimdon va mashhur kishilarini huzuriga chaqirtirib, shunday debdi:

– Qay biringiz Misrga borib Fir'avnning barcha savollariga javob berib, osmon va yer o'rtasida qasr bunyod etib, menga uch yillik o'lponni keltirib berishga rozilik berasiz?

Bu so'zlarni eshitib, to'planganlar shundoq deyishibdi:

– O'zingdan qolar gap yo'q, podshohi olam, bunaqa murakkab masalalarni sening podshohliging davrida ham, avvallari, ya'ni otang Asarxaddon davrida ham faqat dono Axikargina hal qila olgan. Endi esa Axikar barcha bilimi va donishmandligini o'rgatib ketgan uning o'g'li Nodonga murojaat qilgin.

Bularni eshitib, o'g'lim Nodon podshoh huzurida ekanligini ham unutib qichqirib yuboribdi:

– Hatto xudolar ham bunday ishlarni qilishga qodir emas, odamlarni—ku bir chekkaga qo'ya turing!

Bunday javobni eshitgan podshoh qattiq qayg'uga botibdi, taxtidan tushib, yerga o'tiribdi—da, shunday debdi:

– Eh, attang, ona suti og'zidan ketmagan mana bu yigitchaning gapiga kirib dono Axikarni halok qilganimga mingdan—ming pushaymonman. Endi usiz nima qilaman? Agar uni tiriklayin menga qaytara oladigan biror inson topilganda edi, unga Axikarning bo'yi barobar oltin bergan bo'lar edim.

Podshohning bu so'zlaridan so'ng qadrdon do'stim Nevusemax yuz tuban yerga yiqilib, debdi:

– Podshohi olam, kimki, biron marotaba bo'lsa—da, o'z xo'jasining so'zini inobatga olmasa, uning jazosi — o'limdir. Men shunday jazoga loyiq bir qulingizman. Meni dorga osishga buyruq bering, chunki Axikar hozir ham tirik, men uni qatl qilmagan edim.

Podshoh esa:

– So'zlayver, Nevusemax, so'zlayver! Imonsizlikni bilmaydigan, diyonatli va sofdil Nevusemax, so'zlayver! Agar haqiqatni so'ylayotgan bo'isang va menga tirik

Axikarni olib kelsang, unda senga yuz talant kumush va ellik talant oltin in'om qilaman.

Nevusemax debdi:

– Podshohi olam, mening bundan boshqa gunohim yo'qligi uchun umrimda bir marta yo'l qo'ygan ushbu gunohimni unutib, bir qoshiq qonimdan keching.

Oliyhimmat podshoh uning gunohidan o'tib, hayotini o'ziga bag'ishlabdi.

Meni olib kelishlarini kutishga ham sabri chidamagan inaxerib shoshilinch aravaga chiqib, mening uyim tomon yelibdi. O'ra og'zi ochilib, men tepaga qaraganimda, ne ko'z bilan ko'rayki, podshoh hazratlarining o'zlari turardi. Men o'radan sudralib chiqib, podshoh oldiga yuz tuban yiqildim. Sochlarim o'sib ketgan, soqolim ko'kragimga tushgan, hamma yog'im tuproqqa botib, tirnoqlarim burgutnikiga o'xshardi.

Meni ko'rgach, yo'l qo'ygan xatosini tushunib yetgan podshoh yig'lab yubordi. U g'am—qayg'uga botib, menga shunday dedi:

– Axikar! Men sening oldingda gunohsizman. Hammasiga sen tarbiya bergan o'g'ling aybdor!

Men podshohga shunday javob qildim:

– Xudoga ming qatla shukrki, sizni ko'rmoq sharafiga muyassar bo'ldim. Endi mening armonim yo'q.

Podshoh dedi:

– Axikar, uyingga borib sochlaringni oldir, yuvinib– taranib qirq kun dam olginda, so'ngra mening huzurimga kel.

Men o'z uyimda o'ttiz kuncha dam oldim. Kuch to'plab saroyga kelsam, podshoh shunday dedi:

– Misr podshohi Fir'avnning menga qanday noma yuborganini bilasanmi, Axikar?

Men javob qildim:

– A'lohazrat, siz hech qayg'urmang, men Misrga jo'nab ketaman, Fir'avnga yer va osmon o'rtasida qasr qurib, uning barcha savollariga javob beraman va sizga Misrning uch yillik o'lponini keltirib beraman.

Podshoh bu so'zimdan cheksiz quvondi, mushkuli hal bo'lganidan xudo yo'lga qurbonliklar qilib, katta ziyofatlar

berdi. Meni sovg'a–salomlarga ko'mib tashladi, do'stim Nevusemaxni esa kattakon bir lavozimga tayinladi.

So'ngra men xotinim Eshpagniga quyidagi maktubni jo'natdim:

«Bu maktubni olishing bilanoq ovchilarimga ikkita burgut bolasi tutib keltirishni buyurgin. To'quvchilarimga esa zig'irpoyadan arqon to'qishlarini ayt. Har bir arqonning uzunligi ming quloch, qalinligi jimjiloqdek kelsin. Duradgorlarim burgut bolalariga qafas yasashsin. Endigina tili chiqqan kichkintoy Nevuel va Tovshalomga– mana bu so'zlarni o'rgatinglar: «Loy, ohak, tosh va g'isht tashib keltiringlar, quruvchilar ishsiz qolishdi!»

Xotinim hamma aytganlarimni so'zsiz bajo keltiribdi. Shundan so'ng men podshohga:

– Buyrug'ingizga muntazirman, olampanoh, hoziroq Misrga jo'nab ketishga tayyorman, – dedim.

Safarga o'tlanish uchun buyruq olgach men o'zim bilan birga bir nechta xizmatkorlarimni olib jo'nab ketdim.

Bir manzil yo'l yurgach qafasdan burgutchalarni chiqarib, panjalariga arqonni bog'ladim, o'g'lonlarni ko'tarib narvoz qilishdi, bolalar esa xuddi to'tiqushdek o'rgatilgan so'zlarni bor ovozlari bilan baqirib aytishardi:

– Loy, ohak, tosh va g'isht tashib keltiringlar, quruvchilar ishsiz qolishdi!

Men ularning yaxshi o'rgatilganiga amin bo'lgach, burgutchalarni tag'in qafasga kiritib qo'ydim.

Biz Misrga yetib kelib, podshoh saroyiga kirganimizda, Fir'avn mulozimlari:

– Osuriya podshosi yuborgan odam yetib keldi, – deb podshohlariga xabar yetkazishdi.

Fir'avnning buyrug'i bilan menga tunash uchun manzilgoh belgilashdi. Ertasiga Misr podshosi huzuriga f kelib, unga ta'zim qilib, o'z podshohimning salomini yetkazdim. Fir'avn mendan shunchaki hol–ahvol so'ragach, dedi:

– Sening isming nima?

– Mening ismim Avikam, hazrati oliylari.

– Sinaxeribning shunaqa a'yoni borligini bilmas ekanman.

– Chunki men davlatimizning eng zabun odamlaridan biriman.

Fir'avn bu gaplarimga javoban shunday dedi:

– Nahotki sening xo'jang meni shunchalik nazarga ilmay, huzurimga o'z davlatining eng past bir odamini yuborsa? Mayli, Avikam, tungi manzilgohingga qaytib orginda, ertaga tong saharda bu yerga kel.

Misr podshosi o'z mulozimlariga:

– Ertaga saroyga alvon liboslarda kelinglar, – deb buyuribdi.

Fir'avnning o'zi bo'lsa shohi liboslar kiyib, taxtga o'tiribdi. So'ngra u meni huzuriga keltirishni buyuribdi. Men kelgach, u shunday savol bilan murojaat qildi:

– Aytib ber–chi, Avikam, meni va mulozimlarimni kimlarga o'xshatish mumkin?

– Siz, a'lohzrat, xudo Belga, mulozimlaringiz esa uning kohnlariga o'xshaydilar, – deb javob qildim.

Misr podshosi menga: «Mayli, bor, ertaga tag'in huzurimga kel», dedi. Mulozimlariga esa shunday deb buyuribdi:

– Ertaga barchangiz oq tusli kiyim kiyib kelingiz.

Fir'avnning o'zi ham oq harir matodan tikilgan libos

kiyib taxtga o'tiribdi. Men saroyga kelishim bilanoq u yana savol bilan murojaat qildi:

– Ayt–chi, Avikam, men va mening mulozimlarim kimga o'xshaymiz?

Men javob berdim:

– Siz, a'lohzrat, quyoshga, a'yonlaringiz undan taralgan oppoq nurlarga o'xshaydi.

Fir'avn hayratda qolib: «Mayli, bor, ertaga yana kel», dedi.

– Ertaga hammangiz rang–barang guldor liboslar kiyib keling, saroy darvozasini turli naqshlar bilan bezating, – deb buyuribdi u mulozimlariga.

Men podsho buyrug'i bilan saroyga yetib kelganimda Fir'avn shohona liboslar kiyib taxtda o'tirar, uning a'yon–lari kiyib olgan zarrin liboslar yarqirab ko'zni qamash–tirardi.

Menga ko'zi tushishi bilanoq Fir'avn yana savol berdi:

– Qani ayt–chi, Avikam, meni va mulozimlarimni kimlarga o'xshatish mumkin?

Men bamaylixtir javob berdim:

– Siz, podshohim, nisona oyiga, mulozimlaringiz esa shu oyda ochiladigan bahor gullariga o'xshaydilar.

Misr podshosi mening aqlimga qoyil qolib, shunday dedi:

– Avvaliga sen meni Bel xudosiga, mulozimlarimni uning kohnlariga, keyin meni quyoshga, mulozimlarimni esa uning nurlariga, uchinchi marta meni nisona oyiga, mulozimlarimni esa shu oyda ochiladigan bahor gullariga o'xshatding. Qani ayt–chi, Avikam, sening podshohingni kimga o'xshatish mumkin?

Men Fir'avnga quyidagicha javob qildim:

– Hazrati oliylari, sizdek mo'tabar zot turganda, podshohim Sinaxeribning nomini tilga olishdan xudoning o'zi saqlasin. Podshohi oliylari Sinaxerib osmon–u falakdagi xudoga, uning mulozimlari esa bulutlar orasidagi chaqmoqlarga o'xshaydi. Agar u istasa, yerga shudring yoyib tashlaydi, sharros yomg'ir quydiradi, xohlasa yerga do'l yog'diradi. Agar u g'azablansa, quyosh yuzini bulutlar to'sadi va uning nurlari xiralashadi. Shunda xudo Bel o'z kohnlari bilan zimiston qo'ynida qamalib qoladi.

Bunday javobni eshitgan Fir'avn qattiq g'azablanib, menga dedi:

– Zabun odam hech qachon bunday so'zlarni aytol–maydi, menga haqiqiy ismingni ayt. Bo'lmasa boshingni tanangdan judo qilaman.

Men javob qildim:

– Men Osuriya va Nineviya podshosi Sinaxeribning munshisi hamda shaxsiy muhrdori Axikar bo'laman!

Misr podshosi menga:

– Biz seni o'z podshohing qatl qilgan deb eshitgan edik, – dedi.

– Mana, ko'rib turganingizdek, men tirikman, podshoh hazratlari, – dedim. – Xudoning o'zi meni nohaq jazodan saqlab qoldi.

Misr podshosi menga:

– Axikar, o'z qarorgohingga borishga senga ruxsat, ertaga esa huzurimga kelasan. Men va mulozimlarim ham, umuman, mening davlatimda hali hech kim bilmagan, eshitmagan narsalarni aytib berasan. Bizga ma'lum bir gapni aytsang, sen yengilgan bo'lasan.

Men manzilgohga kelgach o'ylab oldim, so'ngra quyidagicha bir maktub bitdim:

«Misr podshosi Fir'avn Osuriya va Nineviya podshosi Sinaxeribga tinchlik, omonlik tilab ushbu maktubni yo'llayapti. Podsholar podsholarga, og'a-inilar o'z birodar– lariga yomon kunlarda yordam so'rab murojaat qiladilar. Shu kunlarda mamlakatimda qurg'oqchilik bo'lib, oliq–soliqlardan xazinamga kelib tushadigan kumushning miqdori juda kamayib ketdi. O'z xazinangdan menga to'qqiz yuz talant kumush qarz berib tursang, bir necha oydan keyin men senga qarzimni qaytaraman».

Maktubni buklab, cho'ntagimga solib qo'ydim. Fir'avn-ning buyrug'iga binoan saroyga borib, unga shunday dedim:

– Ehtimol, mana bu maktubdan siz bilmagan va eshitmagan narsalarni bilib olarsiz.

Men maktubni o'qib eshittirganimda hamma mulozim– lar oldindan ogoh qilib qo'yilgandek, bir ovozdan:

– Buni biz bilamiz, eshitgan edik, hammasi shundoq bo'lgan edi, – deb baqirishdi.

Shunda men ularga:

– Demak, Misr Osuriyaga to'qqiz yuz talant kumush qarzdor ekan–da, – dedim.

Buni eshitib Misr podshosi haddan tashqari hayron bo'ldi! Chunki u yo qarzdorligini tan olishi, yo gapni oldin– eshitmaganiga iqrar bo'lishi kerak edi. Janobi Fir'avn keyingisini tanladi.

So'ngra Fir'avn menga shunday dedi:

– Yer va osmon o'rtasida shunday bir qasr qurdirmoq– chiman–ki, u yer ustidan ming quloch balandlikda bo'lsin.

Men hech taraddudlanmay javob berdim:

– A'lo hazratlarining ko'ngillaridek bir qasrni qurdirib beraman. Faqat meni qurilishga ishboshi qilib tayinlasalar. Mulozimlaringiz quruvchilarga loy, ohak, tosh, g'isht tashib berib tursalar. Ishda sovuqqonlik ko'rsatganlarni savalashga menga izn bersangiz.

Fir'avn rozi bo'ldi va biz saroydan tashqariga chiqdik. Men tezda qafas ichidan burgutlarni chiqarib, ularnin panjalariga arqonning bir uchini boylab, ustlariga bolakay– larni mindirib qo'ydim. Burgutlar parvoz qilib, ming quloch balandlikka ko'tarilishganda o'g'lonlar ovozlarning boricha qichqira boshlashdi:

– Tuproq tashinglar, ohak, tosh, g'isht olib kelinglar, quruvchilar ishsiz qolishdi.

Fir'avn hayratdan lol bo'lib qolgan edi. Mulozimlar esa nima qilishlarini bilmay, tepaga qaragancha angrayib turardilar. Shunda men teridan qilingan qayishimni olib, Fir'avnning mulozimlarini savalay ketdim. Ular chor– atrofga tumtaraqay qochib ketishdi.

Misr podshosi bunday holdan g'azablanib, shunday dedi:

– Sen butunlay aqldan ozgan ko'rinasan, Axikar. Axir bu qadar balandlikdagi quruvchilarga shuncha narsalarni yetkazib beradigan kishining o'zi bormi bu dunyoda?

Men ham shartta javob qildim:

– Albatta bor. Sinaxerib hazrati oliylari sha'niga ming quloch balandlik nima emish? Agar uning o'zi shu yerda bo'lganida edi, kuniga bir emas, ikkita qasr qurgan bo'lardi.

Nihoyat Fir'avn shunday farmoyish berdi:

– Qasr qurilishini to'xtatib, hordiq chiqargin–da, tong saharda oldimga kelgin.

Sahar payti Fir'avn huzuriga kelganimda, u dedi:

– Menga bir narsani tushuntirib bersang, dono Axikar. Xo'jangning oti Osuriyada kishnagan bo'lsa ham bizning biyalarimiz uning kishnashini eshitib, bola tashlashdi.

Men saroydan chiqib, o'z xizmatkorlarimga bitta mushuk tutib kelishlarini buyurdim. Keyin uni shahar ko'chalari bo'ylab qamchi bilan savalay yurdim. Bu holatni ko'rgan misrliklar Fir'avnga borib aytishibdi.

– Axikar judayam kekkayib ketibdi. U bizlarni mazax qilyapti. Bir mushukni tutib olib, uni shafqatsizlarcha shahar ko'chalari bo'ylab qamchilab yuribdi!

Podsho menga odam yubortirib, huzuriga chaqirdi:

– Nega sen bizlarni mazax qilayapsan? Misrliklar lushukni qanchalik e'zozlashini bilmaysanmi? Men javob berdim:

– Ilohim umringiz uzoq bo'lsin, podshohi olam! Bu mushuk menga juda ko'p zarar keltirdi. Mening podsho– him Sinaxerib ovozi judayam o'tkir va yoqimli bir xo'roz in'om qilgandi. Shu xo'roz qichqirganda men shohimizga biror zarurat yuzasidan kerak bo'lib qolganimni bilib, uning huzuriga oshiqar edim. Kechagina mana bu mushuk Osuriyaga borib, xo'rozimni o'ldirib, yana orqasiga qaytib kelibdi.

Fir'avn dedi:

– O'ylab qarasam, Axikar, sen qarigach, butunlay aqldan ozibsan. Axir bu yerdan Osuriyagacha bo'lgan masofa uch yuz–u oltmish farsang keladi–ya. Axir qanday qilib bir kechaning o'zidayoq bu mushuk Osuriyaga borib, xo'rozingni o'ldirib, qaytib kela oladi?

Men esa shunday dedim:

– Unda nega bo'lmasa sizning biyalarangiz Osuriyada kishnagan shoh otining ovozidan bola tashlabdi, oradagi masofa o'zingiz aytganingizdek, uch yuz oltmish farsang bo'lsa?

Fir'avn bunday javobdan qattiq g'azabga kelib, shun-day dedi:

– Endi Axikar, ikkinchi jumboqni yech. Bir ustunda o'n ikkita qarag'ay, har bir qarag'ayning o'ttiztadan g'ildi– ragi bor, har bir g'ildirakda esa oq va qora ikkita arqon bor.

– Podshohi olam! – deb javob qildim men, – bizning mamlakatimizdagi oddiy bir cho'pon ham siz aytgan bu

topishmoqning javobini bir pasda aytib beradi. Siz aytayotgan ustun yildir, o'n ikkita qarag'ay esa o'n ikki oydir, o'ttizta g'ildirak bir oydagigina o'ttiz kundir, ikkita oq va qora arqonlar esa kecha va kunduzdir.

Shunda Fir'avn menga:

– Axikar, qirg'oqdagi qumdan menga besh dona arqon to'qib ber, – dedi.

Men ham tezgina:

– Podshohi olam, o'z omboringizda yotgan qum arqonlardan bittasini menga keltirib berishni buyur sangiz, men undan andoza olib, sizga beshtasini to'qib beraman, – dedim.

Fir'avn dedi:

– Agar shu vazifani bajarmasang, Misr o'lponlaridan ko'nglingni uzaver!

Men o'tirib o'ylay boshladim. Podshoh saroyidan chiqib, uning sharqiy devoridan beshta teshik o'yib ochdim. Quyosh nurlari shu teshiklarga tushgach, xizmatkorlarim devorning orqasida turib, qum sepib turishdi. Teshiklardan to'kilayotgan qum quyosh nurida tovlanib, arqonga o'xshab ko'rinar edi. Men buni podshohga ko'rsatdim.

– Buyuring, mana bu arqonlarni olib ketishsin, men yana boshqalarini to'qiyman, shohim, – dedim.

Buni ko'rib podshoh va uning mulozimlari hayratdan qotib qolishdi.

Fir'avn tag'in bir jumboqni hal qilishni buyurdi. Ikkita bo'laklangan tegirmon toshining yuqori qismini olib keltirib, dedi:

– Mana bu bo'laklangan tegirmon toshini tikib berasan.

Men tegirmon toshining pastki qismini keltirib

Fir'avnning oldiga qo'ydim–da:

– Podshohi olam, men bu yerlarda begona bir musofirman, shuning uchun ham o'zim bilan birga hech qanday asbob–uskunalarim^yo'q. Shuning uchun ham , etikdo'zlaringizga buyursangiz, ular



tegirmon toshining pastki qismidan yuqori qismi uchun yetmaydigan bo'lagini kesib berishsa, men shu zahotiyoyq ikkala bo'lagini bir– biriga ulab tikib qo'ygan bo'lardim.

Bu javobni eshitib Fir'avn kulib yubordi va dedi:

– Umrin bino bo'lib sendek dono va topqir odamni ko'rmagandim. O'z podshohingning bergan tuzini oqlading va men qo'ygan barcha shartlarni bajarding.

Shunday deya Fir'avn menga uch yillik Misr o'lponini hadya qildi.

Men o'z podshohimiz Sinaxerib huzuriga oshiqdim. U menga peshvoz chiqib, quvonch bilan kutib oldi. Sinaxerib katta ziyofat berib, meni izzat–hurmat bilan to'rga hiqazib o'tqazdi–da:

– Axikar, tila tilagingni, – dedi. Men podshohga ta'zim qilib, dedim:

– Podshohi olam! Menga bermoqchi bo'lgan narsalaringni hammasini sodiq do'stim Nevusemaxga bergil, chunki u meni o'limdan qutqazib qoldi. Menga esa o'g'lim Nodonni berishlarini buyursang, men unga boshqatdan bilim va maslahatlar bersam, negaki, avvalgi o'rgatgan saboqlarim unga kor qilmabdi.

Sinaxerib o'g'lim Nodonni keltirishlarini buyurdi va dedi:

– Ixtiyor senda, Axikar, nimani lozim topsang, shuni qil. Oralaringga hech kim tushmaydi.

Men o'g'lim Nodonni uyimga olib kelib, qo'l–oyog'ini temir kishanlarga soldim. Bo'yniga temir bo'yinbog' kiygizib, orqasiga ming qamchi, soniga ming bir qamchi urdim. Uni darvoza oldidagi yerto'laga joylashtirib, non va suvni o'lchab berdim. Uni qo'riqlashni xizmatkorim Nevuelga topshirib, dedim:

– Uyimga har safar kirayotganda va chiqayotganda o'g'lim Nodonga aytgan so'zlarimni yodnomalar kitobiga yozib borgin.

O'g'lim Nodonga men quyidagilarni aytib bordim:

– O'g'lim, kimki qulog'i bilan eshitish mumkin bo'lgan so'zlardan bo'yin tovlasa, unda bo'yni bilan eshitishga majbur bo'ladi.

O'g'lim Nodon mendan fo'radi:

– Nima uchun o'z o'g'lingga bunchalar qahr–u zulm qilding?

Men javob berdim:

– O'g'lim, men seni shon–u sharafning yuksak cho'qqisiga olib chiqdim, sen bo'lsang meni yerga urib chilparchin qilmoqchi bo'lding, ammo mening orif va adolatparvarligim meni tirik saqlab qoldi.

1. Sen, o'g'lim, qoyaga zahrini solgan chayonga o'xshading. Qoya debdi:

–His–tuyg'usiz yurakka zahar sanchding.

Chayon nishini urib olgach, unga debdilar:

–Sen o'zingnikidan ham o'tkirroq bir nayzaga nish urding.

2. Sen, o'g'lim, eman daraxtini g'ajib yeyayotgan echkiga o'xshaysan.

Daraxt echkiga debdi:

–Nega meni halok qilayapsan? Mening ildizlarim sening teringni oshlash uchun ishlatilishini bilmaysanmi?

Echki daraxtga javob qilibdi:

–Toki men tirik ekanman, sening po'stlog'ingni g'ajib yeyman. O'lganimdan keyin esa ildiz–pildizing bilan qo'po– rib tashlashsa ham mayli.

3. Sen, o'g'lim, osmonga tosh otgan kishiga o'xshaysan. Tosh axir, osmonga yetmasdan, otgan odamning boshiga tushadi.

4. Sen, o'g'lim, sovuqdan qaltirayotgan do'stingni ko'rganingda uning ustiga bir ko'za muzdek suv quyib yuborgan odamga o'xshaysan.



5. O'g'lim, sen meni halok qilgan taqdiringda ham, mening o'rnimni bosa olmas eding. Bir narsani yaxshi bilib qo'yki, mabodo to'ng'izning dumi yetti quloqga yetganda ham u baribir ot o'rnini bosa olmaydi. Agar to'ng'izning juni mayin tovlanuvchi bo'lsa ham, baribir undan oliy zotlar uchun libos tikib bo'lmasdi. O'g'lim, o'ylagan edimki, sen mening o'rnimni bosib, menga tegishli barcha narsalar, hovli–joylarimga merosxo'r bo'larsan, deb. Ammo xudoyi taolo bunday bo'lishini istamadi, sening xohishingga quloq solmadi.

6. O'g'lim, sen haqingda o'ylay turib, bir eshak haqidagi hikoya yodimga tushdi. Arslon tong saharda eshakn uchratib, kinoya bilan debdi:

– Yo'l bo'lsin, hazratim!

Ajali yetganini sezgan eshak javob beribdi:

– Savol, to'g'risini aytganda, kecha meni yaxshilab bog'lay olmagan odamga taalluqlidir. Agar mahkam bog'laganida edi, men bilan sen hozir uchrashmagan bo'lar edik.

7. O'g'lim, bir kuni go'ng uyumi orasiga qushlar uchun tuzoq qo'yilgan ekan. Bir qushcha uchib kelib, tuzoqqa ko'zi tushibdi–da, undan:

– Sen bu yerda nima qilayapsan? – deb so'rabdi. Tuzoq debdi:

– Xudoga iltijo qilyapman. Qushcha tag'in so'rabdi:

– Teshigingdagi ko'rinib turgan narsa nima?

Tuzoq debdi:

– Mehmonlar uchun ovqat.

Qushcha ovqatni tatib ko'rish uchun unga yaqin bor– gan ekan naq bo'ynidan tuzoqqa ilinibdi. Bechora qushcha dermish:

– Agar bu ovqat mehmonlar uchun bo'lsa, xudo hech qachon sening iltijolaringni eshitmasin.

8.O'g'lim, sen arslon bilan bitta qo'shga qo'shilgan ho'kizga o'xshading. Arslon qayrilib ho'kizni tilka–pora qilib tashlagan ekan.

9.O'g'lim, sen o'zi ekin ekmasa ham, ammo dehqon omboridagi g'allani qayratayotgan sichqonga o'xshaysan.

10.O'g'lim, sen tilla tutqichlar bilan bezatilgan–u, ammo ichidagi qurumi tozalanmagan tuvakka o'xshaysan.

## ALEKSANDR HAQIDA RIVOYATLAR

### ALEKSANDR VA ERON MALIKASI

Ota–onasi yo'q, ammo katta boylikka ega bir yigit yashagan ekan. Uzzu–kun o'lja ketidan quvib, ov qilib yurgani uchun ham odamlar uni Husayn ovchi deyishar– kan. Hamma uni uylanishga da'vat qilar, ammo yigit:

– Xotin–qizlar bilan necha pullik ishim bor? – deb javob qilarkan.

Shu yigitning tog'asi oydan bir qiz ko'ribdi. Husayn ovchi qizni uyiga olib ketibdi. Chaqaloqni enagaga topshirib, tarbiyalay boshlabdi. Qiz bo'yiga yetgach, Husayn ovchi mulla chaqirib, nikoh o'qitibdi va unga uylanibdi. Keyin bir qora tanlini chaqirib:

- Menga xizmatkor bo'lasanmi? – deb so'rabdi.
- Har oyga qancha to'laysan? – so'rabdi qora tanli.
- Uch yuz piastri beraman.
- Mayli, unda roziman.

Shunday qilib, qora tanli Husaynnikida qolibdi.

Kunlardan bir kuni Husayn ovga chiqib ketganidan keyin xotini qora tanli xizmatkor bilan don olishib, undan homilador bo'libdi. Oy–kuni yetib qop–qora o'g'il bola tug'ibdi. Husayn ovchi xiyonatkor buzuq xotinni o'ldirib, qora tanli xizmatkorni haydab yuboribdi. Bolani o'zi tarbiyalay boshlabdi. O'g'il voyaga yetib, uylanibdi.

Bir kuni yigit mevali bog'ni qo'riqlab, kechqurun uyiga qaytganida yosh xotinini cholning qo'ynida ko'ribdi. Qilichini qinidan sug'urib bir zarb bilan ikkalasini ham o'ldiribdi. Bu yigit kuch va jasurlikda butun dunyoga mashhur bo'libdi, odamlar uni Iskandar deb atay ' oshlabdilar.

Oqsoqollar majlisi uning ishtirokisiz o'tmas, yigit bitmas–tuganmas xazina va boyliklarga ega ekan.

Bir kuni odamlar unga:

- Hoy, Aleksandr! Sen Eron shohining qiziga uylansang yaxshi bo'lardi, – deyishibdi.
- Jonim bilan, – debdi yigit.— Ammo u malika qayerda yashaydi?
- Malika Eron mamlakatida yashaydi, – deyishibdi.

Yigit yo'lda ketayotgan bir darveshdan:

- Hoy, darvesh! Yo'l bo'lsin? – deb so'rabdi.
- Eron mamlakati tomon yo'l oldim, – debdi darvesh.
- Agar senga bir maktub bersam, tegishli joyga eltib berasanmi?
- Ha, egasiga topshiraman.
- Bu xizimating uchun senga katta haq to'layman.
- Men roziman, – debdi darvesh.

Aleksandr maktub yozib, unga imzo chekib, muhrini bosibdi.

- Ushbu maktubni Eron shohining qiziga topshir, – debdi u darveshga.
- Yaxshi, topshiraman, – debdi darvesh.
- Men senga berdim. Sen unga ber. Qo'ldan qo'lga topshir. Shuni aslo unutma! – debdi yigit darveshga qayta–qayta tayinlab.
- Albatta ishni sen aytgandek bajaraman, – deganicha darvesh jo'nab ketibdi.

Darvesh nihoyat Eron mamlakatiga yetib kelibdi. Odamlardan podshohning turar joyini surishtira boshlabdi.

- Shat–u–Benat shahrida podshohning qasri joylashgan, – deyishibdi unga.

Darvesh ushbu shaharga yetib kelgach, podshohning saroyini so'rab–surishtiribdi. Bir amallab qasr ichiga kirgach:

- Malika qayerda turadi? – deb so'rabdi.
- Yuqori qavatdagi oromgohlarda istiqomat qiladi. Malika senga nima uchun kerak bo'lib qoldi?
- Men muqaddas joylarni ziyorat qilib kelgan hoji bo'laman. Hamma ziyoratchilarning boshlig'i bo'lgan shayx hazratlarining shaxsan o'zlaridan malikaga salomnoma olib keldim.

Mirshablar unga malikaning turar joyini ko'rsatib yuboribdilar. Darvesh yuqori qavatga chiqib, malika turadigan oromgohning eshiklariga yaqinlashgan ekan, ostonada malikaning ikkita qo'riqchi xizmatkoriga ko'zi tushibdi. Ular darveshning yo'lini to'sib:

- Qayoqqa kirmoqchisan? – deb baqiribdilar.

Pastda hovlida turgan mirshablar:

- Uni bekamizning oldiga kiritib yuboringlar! – deb qichqirishibdi.

Darvesh ichkariga kirib, malikaga ta'zim bajo keltiribdi.

– Huzurimga qanday yumush bilan kelding, hoy darvesh? – deb so'rabdi malika undan.

Darvesh qo'ynidan Aleksandrning maktubini chiqarib, malikaga uzatibdi. Malika xatni o'qib, bag'riga bosibdi.

– Hoy darvesh! Mening ruxsatimsiz hech qayoqqa ketma! – deb tayinlabdi.

– Ixtiyorim sizda, – deb javob qilibdi darvesh.

Malika xizmatkori Us'monni chaqiribdi.

– Labbay, malikam! – deganicha xizmatkor hozir–u nozir bo'libdi.

– Bu avliyo odamning qornini to'ydir! – debdi malika.

Xizmatkor qulluq qilib, chiqib ketibdi.

Darvesh ovqatni yeguncha malika maktub yoza boshlabdi.

«Aleksandr! – debdi u maktubda, – men senga xotin bo'lishga roziman, kelib yurtingga olib ketgin!»

Maktubni tugatgach, malika barmog'idan qimmatbaho toshli tilla uzugini chiqarib, xat ichiga solibdi. Keyin darveshni chaqirib, muhr bosilgan xatni unga tutqazib, debdi:

– Ushbu maktubni faqat Aleksandrغا ber. Bu xizimating uchun katta mukofot olasan!

Darvesh malikaning maktubini olib, kelgan yo'lga qaytib ketibdi. Tezda Aleksandr uni kutib turgan Mosul shahriga yetibdi. Qo'lini ko'ksiga qo'yganicha, Aleksandr-ğa ta'zim qilibdi.

– Xush kelibsan, darvesh! Menga malika haqida ko'rgan–bilganlaringni gapir–chi, – debdi Aleksandr.

Darvesh qo'ynidagi maktubni chiqarib, Aleksandrğa beribdi. Aleksandr xatni o'qib, ko'krigiga bosibdi.

Aleksandrning ko'zi to'satdan uzukka tushibdi. Diqqat– e'tibor bilan ko'zdan kechirib, kulib yuboribdi–da, uzukni o'pib, barmog'iga taqib qo'yibdi.

Shunday qilib Aleksandr uzoq safarga tayyorgarlik ko'ra boshlabdi. Otni egarlab, darveshni ham ketidan ergashtiribdi.

Ular ancha–muncha yo'l bosib, mevazor bog'ga qo'nibdilar va u yerga boshqa hech kimni kiritmaslik haqida bog'bon bilan kelishib olibdilar. Evaziga bog'bonga qimmatbaho sovg'a beribdilar.

Aleksandr darveshni malikaning huzuriga jo'natayotib, shunday debdi:

– Ma'shuqamga borib ushbu so'zlarimni yetkaz: «Bugun boqqa tashrif buyur. U yerda seni Aleksandr intizor bo'lib kutayapti. Birgalikda xursandchilik qilamiz».

Darvesh malika huzuriga bormoqchi bo'lgan ekan, biroq uni saroyga kiritmabdilar. Ammo malika darveshni ko'rib qolib qo'riqchilariga qichqiribdi:

– Uni huzurimga o'tkazib yuboringlar. Bo'lmasa boshlaringizni tanangizdan judo qildiraman!

Darvesh malikaga ro'para bo'libdi. Shoh qizi undan:

– Hoy, musofir! Ahvollaring qanday? – deb so'rabdi.

– Tez bo'l, tayyorgarligingni ko'r! Iskandar shu yerda – bog'da seni kutayapti, – debdi darvesh.

Malika cho'risini chaqirib, buyruq beribdi:

– Sutli kulchalar, yog'liq patir nonlar, pista–bodomlar va shirinliklardan olib tugun qil, bir ko'zaga may to'ldir! Bugun boqqa borib xursandchilik qilamiz.

Cho'ri qiz hamrohligida malika uni Aleksandr va darvesh kutib turgan boqqa boribdi. Hammalari birgala– shib yeb–ichib, rosa maishat qilibdilar.

Bir payt Aleksandr darveshga:

– Manavi pulni olgin–da, ikki juft uchqur otlardan sotib olib kelgin, – deb buyuribdi.

Darvesh ko'z ochib yumguncha ikki juft ot kel– tiribdi.

Aleksandr bilan darvesh o'z otlariga, malika bilan cho'ri qiz darvesh keltirgan otlarga sakrab minganlaricha, shamoldek yelib ketibdilar. O'tliqlar chiqib ketganidan besh kun o'tgach shaharda to's-to'polon boshlanib ketibdi. Birovlari:

– Nima bo'ldi? Qanday voqea yuz berdi? – deb so'rasalar, boshqa birovlar:

– Malikani olib qochishibdi, o'g'irlab ketishibdi, – deyisharmish.

Podshoh askarlari bilan Aleksandrni quva ketibdi. O'tliqlar jon-jahdlari bilan yelib-yugurib, qochoqlarga k yetib olibdilar. Aleksandr podshohning o'tliq askarlari bilan •Hqahramonlarcha jangga kirishib, to'rt ming askarni yer tishlatibdi. Bu orada malika va cho'ri qiz Mosul shahriga yetib kelibdilar. Biroq darveshni forslar asir olib, P' o'ldiribdilar. Chunki uni ko'rganlarning barisi:

– Malikani shu o'g'irlagan! – deb aytibdilar.

Jang tugagach, Aleksandr Mosul shahriga shoshilib, malika va cho'ri qizga yetib olibdi. O'z uyiga eson-omon yetib kelgan Iskandar xalqqa katta to'y qilib beribdi. Mullani chaqirib, nikoh o'qitib, malikaga uylanibdi. Malikani ko'rgan odamlarning hammasi bir ovozdan:

– Yo xudo! Malika buncha go'zal-a! – dermish. Aleksandr uzoq umr kechirib, shu shaharga hukmdorlik qilibdi.

## ALEKSANDR VA JANINAR

Bir er-xotin yashagan ekan. Uzoq vaqt ular farzand tirnog'iga zor bo'libdilar. Nihoyat xudo ularga rahm-shafqat qilib, qo'chqordek ikki o'g'il ato qilibdi. Kattasini Aleksandr, kichkinasini Janinar deb atashibdi. O'g'illar kichkina bo'lgan paytda otalari o'lib ketibdi. Ularni boqish uchun onalari tilanchilik qilishga majbur bo'libdi. Qiynalsa ham onalari ularni oq yuvib, oq tarab tarbiyalabdi.

O'g'illar o'sib-ulg'aygach, onalari ularni cho'ponlikka beribdi. Ular ikki yilcha begonalarning echkilarini boqib yurishibdi. Bir kuni kechasi aka-uka o'zaro til biriktirib, shunday qarorga kelibdilar:

– Uzoq o'lkalarga baxtimizni izlab ketaylik. Peshona-mizga umr bo'yi birovning molini boqish bitmagandir. Har birimiz baxtimizni sinab ko'raylik. Ular tong sahada uyg'onib, uzoq safarga tayyorgarlik ko'ra boshlabdilar. Onasi bunday ayriliqqa chidolmay, zor-zor yig'lab so'rabdi:

– Bolalarim, qayoqlarga ketayapsizlar? Sizlarsiz mening holim ne kechadi?

– Bizni o'ylab qayg'urma, onajon! – debdi ular, – yorug' olamni kezib, yana uyga qaytamiz.

O'g'illar onasi bilan o'pishib xayrlashibdilar.

Aleksandr janubga, Janinar sharqqa tomon qarab ' ketibdilar. Nihoyat Aleksandr kattakon bir shaharga yetib. t; kelibdi.

Bunday qarasa, quduq yonida bir xotin o'tirgan emish. Xotin unga:

– Hoy yigit! – deb chaqiribdi.

– Qulog'im sizda, – deb javob qilibdi yigit.

– Menga xizmatkor bo'lmaysanmi?

Aleksandr diqqat bilan xotinni boshdan–oyoq ko'zdan kechirib chiqibdi. Xotin judayam go'zal ekan.

– Sening o'zinggami? – qayta so'rabdi Aleksandr.

– Ha! – deb javob qilibdi xotin.

– O'zing kim bo'lasan? – deb so'rabdi yigit.

– Men mana shu shahar hokimining qizi bo'laman, – debdi xotin.

– Kimlar bilan yashaysan? – so'rabdi yana yigit.

– Erim o'lgan. Yolg'iz qizim bilan turaman, – javob qilibdi xotin.

– Unday bo'lsa, men roziman, – debdi Aleksandr.

Shunday qilib Aleksandr shahar hokimining qizirikida

yashay boshlabdi. Ammo xotin unga sira ish buyurmas ekan. Toqati toq bo'lgan Aleksandr bir kuni xotindan pi so'rabdi:

– Nima uchun menga ish buyurmaysan?

– Faqat bog'imni sug'orib yursang bo'ldi, boshqa qiladigan ishing yo'q, – debdi xotin.

Shu kundan boshlab Aleksandr har kuni xotinning gu bog'ini sug'orib, keyin yotog'iga qaytarkan.

Bir kuni xotinning qiziga sovchi kelibdi. Onasi:

– Qizim hali yosh, – deb ko'nmabdi.

Ammo Aleksandr maslahat beribdi:

– Qizingni erga ber, shunda g'am–tashvishsiz, tinchgina yurasan.

Xotin uning maslahatiga quloq solib, qizini erga beribdi. Hovlida faqat Aleksandr–u uy bekasi qolibdi, xolos. Aleksandr odatdagicha bog'ini sug'orib, keyin yotog'iga qaytarkan.

– Kel, ikkalamiz garov o'ynaymiz! – debdi bir kuni xotin.

– Nimadan? – deb so'rabdi yigit.

– O'tkir maydan ichamiz, agar sen birinchi mast bo'lsang, men senga tamg'a bosaman. Agar men birinchi mast bo'lib qolsam, sen menga tamg'a bosasan. Yigit so'rabdi:

– Tamg'ani qayerga bosish kerak?

– Orqaga.

– Mayli, roziman, – debdi yigit.

Xotin may keltiribdi. Ikkalasi rosa ichibdilar. Birinchi bo'lib xotin mast bo'lib qolibdi. Xotin:

– Men yutqazdim shekilli, – debdi.

– Avval tamaddi qilib olaylik, keyin bir qarorga kelarmiz, – debdi yigit.

Ovqatlanib bo'lishgach yigit tamg'ani qizdira boshlabdi.

– Keragi yo'q! – qichqiribdi xotin.

– Nima uchun? – so'rabdi yigit.

– Qizigan temir tamg'adan juda qo'rqaman. Undan ko'ra boshqa birorta narsa top, – debdi xotin.

– Mayli, axtarib ko'raman, – debdi yigit. Maydan sarxush bo'lgan xotin yotib qolibdi. Bu kechani

Aleksandr u bilan birga o'tkazibdi.

– Sen yutding! – debdi ertalab unga xotin. – Ont ichaman–ki, bundan keyin sendan boshqaga tekkandan ko'ra o'lganim yaxshiroq!

Aleksandr avvalgidek bog'da ishlab yuraveribdi. Bir kuni bekasiga:

– Uzoq mamlakatlarni kezib kelish uchun safarga, chiqmoqchiman. Keyin yoningga qaytaman, – debdi.

Aleksandr otga minib, uzoq yurtlarga jo'nab ketibdi. Kechga yaqin allaqanday bir xarobazorga yetib kelib, shu yerda tunash uchun to'xtabdi. Tevarak-atrof ko'm- ko'k o'tlar bilan qoplangan ekan. U xarobazor oldidagi o'tloqqa otini o'tlatgani qo'yib yuboribdi.

Tong otib, quyosh yer yuzini qattiq qizdira boshlagan paytda ham Aleksandr uxlab yotgan ekan. Nihoyat yigit uyqudan uyg'onib, tamakidonga tamaki solib, cheka boshlabdi. Atrofga alanglanib qaragan ekan, sichqon iniga ko'zi tushibdi. Indan bir ko'rsichqon sudralib chiqibdi. Panjalari bilan tuproqni kavlab, har tomonga socha boshlabdi. Iskandar sichqonni kuzatib turganida u to'satdan kirib ketibdi-da, bir ozdan so'ng bitta tilla tanga chiqarib o'yilgan joyga (chuqurlikka) qo'yibdi. Tag'in iniga kirib ketib, yana bitta tilla tanga olib chiqibdi. Shunday sichqon yer tagidan 500 ta tilla tanga olib chiqibdi. So'ngra iniga kirib ketganicha, qaytib ko'zga ko'rinmabdi.

Aleksandr tilla tangalarni barini yig'ishtirib, to'rvasiga solibdi. Kalta va serbar qilichi bilan sichqon uyasini kavlay boshlabdi. Sichqon mining avra-astarini chiqarib, kavlab tashlasa ham sichqonni topa olmabdi, chunki sichqon yerto'laga o'tib yashirinishga ulgurgan ekan. Aleksandr ham yerto'laga tushib, chog'roqqina bir xonaga duch kelibdi. Xonaning ichida 20 dona olmos yaraqlab turganmish. Ularning yonidagi kattakon bir xum tilla tangaga to'la emish.

Aleksandr bu qimmatbaho buyumlardan o'zi bilan birga ozgina olib, yerto'ladan chiqibdi-da, kirish joyini tuproq bilan berkitib, sakrab otiga minibdi-yu, shaharga qarab yelibdi. Shahardan to'rtta xachir va ikki qatli to'rtta qop sotib olib, sichqonning iniga qaytib kelibdi. Aleksandr o'sha joyni topib, ichkariga kiribdi. Qarasa, ichkarida ko'zi ko'r barzangi odam turganmish.

– Hoy, senga bu yerda nima kerak? – deb qichqiribdi ko'r barzangi uni payqab.

Aleksandr javob bermabdi. Shunda haligi barzangi uzun qo'llari bilan paypaslab uni axtara boshlabdi. Ular bir-birlariga tashlanib, qattiq olisha boshlabdilar. Ular bir kecha kunduz olishsalar ham bir-birlarini yenga olmabdilar. Qorong'i tushishi bilan har tomonga tarqalib dam olishga o'tiribdilar.

Aleksandr tamakidonni to'ldirib chekmoqchi bo'lib turgan ekan, shu payt yerto'laga bir qiz ko'r barzangiga ovqat olib kelibdi. Qizning ustidagi liboslari oltin-u kumushdan, husnini tasvirlashga til ojiz ekan. Bir qarashdayoq Iskandarning qizga bo'lgan muhabbati o't olib, es-hushidan ayrilishiga sal qolibdi.

«Yo xudo! Shunday qizni qanday qilib ko'r barzan- gining ixtiyoriga tashlab ketolaman!» deb xafa bo'lib ketibdi yigit.

Hurliqo qiz ovqatlarni xo'jasining oldiga qo'yib, o'zi ? ' sekingina yigitni o'pish maqsadida uning yoniga kelibdi. Ammo xo'jasining oldida bunday qilishga jur'at qilolmabdi.

Barzangi qorni to'yguncha mazza qilib ovqatlanibdi, Aleksandr bo'lsa och qolibdi. Qiz o'rnidan turib, yana ovqat olib kelibdi. U shippaklarini yechib, oyoq uchida Aleksandrning yoniga ovqatni qo'yib, undan nariga uzoq- lashibdi.

Aleksandr bilan qiz jimgina bir-birlariga tikilganicha miyig'ida kulib o'tiribdilar. Biroq Aleksandr ovqatlana boshlagan ekan, barzangi so'rabdi:

– Ovqatni qayerdan olding?

– O'zim bilan olib kelgandim, – deb javob qilibdi Aleksandr.

– Unday bo'lsa mayliga, – deb to'ng'illab qo'yibdi barzangi.

Ovqatdan so'ng ular yotib uxlabdilar. Tong otishi bilan yana olisha ketibdilar. Uzzu-kun yoqalashib, tag'in bir- birlarini yenga olmabdilar.

Kechqurun barzangi qizni chaqiribdi. Bu safar qizning liboslari awalgidan ham boshqacha bo'lib, Aleksandrning ko'ziga yanada go'zalroq ko'rinibdi. Ular bir-birlariga jimgina tikilib, jilrnayibdilar. Ko'r barzangi qizga:



– Eng lazzatli taomlardan keltir! – deb buyuribdi.

Qiz «yaxshi» deb chiqib ketibdi. Ammo ovqatlarni qo'ya turib, qiz barzangining kosasiga bir chimdim zahar " solib beribdi. Zaharlangan ovqatni yegan barzangi bir p chayqalib, yerga uzala tushibdi. Aleksandr o'rnidan sapchib turib, qilichi bilan uni bo'laklab tashlabdi. Keyin: 'onus yoqib, maxsus yo'l orqali pastga, g'orning ichiga tushibdi. U yerda qiz to'shagida yotgan ekan. Yigitdan so'rabdi:

– Bu yerga kirishga qanday jur'at qilding?

– Men sening qulingman. Ko'r barzangini esa )'ldirdim, – debdi.

– Yo'q, yo'q, uni men o'ldirdim, – deb javob qilibdi qiz.

Ular yonma–yon o'ltirganlaricha, xushchaqchaqlik bilan suhbatni davom ettiribdilar. Shundan so'ng Aleksandr qizga:

– O'rningdan tur! Bu yerdan ketamiz, – debdi.

– Qayoqqa? – deb so'rabdi qiz.

– Seni o'zim bilan olib ketaman, – debdi yigit.

To'satdan qizning og'zidan bir ilon o'rmalab chiqa boshlabdi.

– Uni o'ldir! – deb qichqiribdi qiz.

Aleksandr qilichi bilan ilonni mayda–mayda qilib chopib tashlabdi–yu, qizdan so'rabdi:

– Bu ilon qanday paydo bo'ldi?

– Bu ilon ko'r barzangining muhabbati, – deb javob beribdi qiz, – nima uchun uni o'ldir, deganimning boisini bilasanmi? Agar u yerga tushsa bormi, qudratli va dahshatli ajdarhoga aylangan bo'lardi. Ana endi yo'limiz bexatar bo'ldi.

Huriliqo qiz g'ordan chiqibdi. Aleksandr shu yerdagi xazinadan oltin–kumush tangalar, olmoslar va qimmat– baho buyumlardan xohlaganicha olib, xachirlarga yuklabdi. Qizni ham otiga mingashtirib yo'lga tushibdi. Tezda ular bog' bekasi yashaydigan shaharga kirib kelishibdi. Aleksandr xachirlardan qimmatbaho yuklarni tushiribdi. Shahar hokimining qizi huriliqo go'zalni ko'rib, hayratga tushibdi. Ichida qattiq yonib, kuyibdi:

– Onangning qornidaligingdayoq nobud bo'lib ketsang bo'lmasmidi, yaramas!

Bog' bekasi ovqat tayyorlabdi, hammalari birgalikda ovqatlanibdilar. Aleksandr bu yerda bir hafta turgach, uy bekasiga:

– Hoy xotin! Biz bilan birga ketasanmi? – deb so'rabdi.

– Qayoqqa? – deb so'rabdi xotin.

– O'z yurtimga qaytaman, – deb javob beribdi yigit.

– Men roziman, – debdi xotin ham.

– Unday bo'lsa, yo'l harakatingni ko'r. Tezda bu , yerdan jo'naymiz, – debdi Iskandar.

Xotin shahar hokimi – otasining oldiga borib, shunday m debdi:

– Aziz va mehribon otajon! Aleksandrga turmushga chiqib u bilan ketmoqchiman. Bog'ni senga qoldirayapman.

– Istaging shu bo'lsa, mayli, – debdi otasi ham.

Shunday deb xotin uyiga qaytibdi. Hokimning yoshgina o'g'li ham bor ekan. Otasi unga:

– O'g'lim, onang bilan opangnikiga borib, xayrlashib kel. Ertaga tong payti u jo'nab ketadi, – debdi.

Shahzoda onasi bilan opasinikiga kelibdi. U yerda yigit huriliqo bir qizni ko'ribdi. Aleksandr undan bir qadam ham nari jilmasmish. Shahzoda bir qarashdayoq go'zal qizni sevib qolibdi. Shosha–pisha otasining huzuriga boribdi.

– Otajon! – debdi shahzoda, – Aleksandrning yonida bir huriliqo qizni ko'rdim. Uylansam, faqat o'shanga uylanaman. Agar shu qizni olib bermasang, o'lganim bo'lsin!

Hukmdor qizni ko'rish uchun Aleksandrning oldiga jo'nabdi. Qizning benazir go'zalligiga maftun bo'lib, Aleksandrga shunday debdi:

– Bu qizni o'g'limga xotinlikka ber!

Aleksandr bu gapdan g'azablanibdi:

– Nahotki sen meni shu qizni biror kishiga beradi, deb o'ylaysan?

– Agar yaxshilik bilan bermasang, kuch bilan tortib olaman, – debdi hukmdor.

– Men otlarni egarlab, shahardan chiqib ketaman.<sup>1</sup> Sen meni quvib yetib qizni kuch bilan olishing mumkin!

Aleksandr yuklarini xachirlarga ortib, ikkala xotinini ham otlariga mindirib, shahardan chiqib ketibdi. Shahar hokimi askarlarini otlantirib, Aleksandrni quva ketibdi. co'rgan go'zal qiz sevgilisiga:

– Mana bu ko'ylakni kiyib, qo'rqmasdan jangga kirishgin. Dushmanlarning har qanday quroli bu ko'ylakdan o'tmaydi, – debdi.

Aleksandr ko'ylakni kiyishi bilan o'q o'tmaydigan kishiga aylanib qolibdi. U qahramonlarcha olishib, dushmanning barcha askarlarini qirib tashlabdi.

Xullas, Aleksandr yurtiga qaytib, qadrdon uyining ostonasiga oyoq qo'yibdi. Onaizori uni quvonch bilan kutib olibdi. Katta o'g'lining tirik va sog'–salomat qaytganidan onasi cheksiz baxtiyor ekan.

Aleksandr safarga ketayotganida xarobagina loysuvoq kulbachada yashar ekan. Onasi ham haligacha shu kulbachada istiqomat qilarkan. Aleksandr eski uychani buzib, kattakon, yangi imorat sola boshlabdi. Tez orada yigirmata mehmonxonasi bor qasr qurdiribdi, har biriga qandil o'rniga olmos o'rnatibdi. Olmoslarning yaraqlashi– dan tunlari ham qasr ichi xuddi kunduzgidek yop–yorug' bo'larmish.

Bir kuni Aleksandr onasiga:

– Ukam Janinardan biron darak bormi? – deb so'rabdi.

– Ukang dom–daraksiz ketgan. Uning g'amida yig'layverib ko'zlarim ko'r bo'lsa kerak, o'g'lim, – deb javob beribdi onasi.

Aleksandr sehrli ko'ylagini kiyib, sakrab otiga minibdi– da, onasiga:

– Men uzoq o'lkalarga ketaman. Ukamni topmagu– nimcha uyga qaytmayman, – debdi. •

Aleksandr sharq tomonga yo'l yurib, noma'lum bir shaharga yetib kelibdi. Ammo bu shaharning aholisi bilan ularning ona tilida gaplashibdi.

Shahar juda katta va seraholi, odamlari chumoli uyasidagi chumolilardan ham ko'p ekan. Yerga igna tashlasa, odam ko'pligidan igna yerga tushmas ekan. Aleksandr choyxonaga borib, xilvatgina bir burchakka o'tirib olibdi. Kifara chalib, qo'shiq aytayotgan bir qo'shiqchiga ko'zi tushib qolibdi. Qo'shiqchining ko'zlari– dan tinmay yosh oqarmish. Bu g'amgin qo'shiqni tinglagan Aleksandr qattiq ta'sirlanib so'rabdi:

– Hoy, qo'shiqchi! Bu qo'shiqning haqiqiy ma'nosini tushuntirib berolmaysanmi? Evaziga qimmatbaho sovg'a olasan.

– Ey, xo'jam! Bu qayg'uli voqea haqida gapirish oson emas.

– Qiynalsang ham baribir aytib ber.

Shunday qilib qo'shiqchi hikoya qilib beribdi:

– Janinar degan bir kishi bor edi. U bir kuni ko'rlar mamlakatiga borib, go'zallarning go'zali bo'lgan ikki qizni xotinlikka oldi. Jahongashtalikda men unga hamroh edim. Janinar mana shu shaharga kirib kelganida uni shu shaharning hokimi tutib olib, shunday dedi: «Yaxshilikcha

xotinlaringni menga berasan yoki men seni bu yerdan hech qayerga chiqarib yubormayman». Mana, sakkiz yildan beri Janinar tutqinlikda azob chekmoqda.

- Meni u bilan uchrashtira olasanmi? – deb so'rabdi Aleksandr.
- Mayli, – debdi qo'shiqchi.
- Tezroq bo'la qol! Men uning tug'ishgan akasiman.
- Ishonmayman!
- Qasam ichib aytaman–ki, so'zlarim rost.
- Bu juda g'aroyib–ku! – hayajonlanib ketibdi qo'shiqchi. – Demak, sen Aleksandrning o'zisan?
- Ha, men Aleksandrman.

– Bu shahar odamlarining aytishicha, sen butun bir qo'shinni tor–mor qilgan emishsan.

Aleksandr sehrli ko'ylakni kiyib, qo'shiqchi bilan shahar hokimi yoniga borishibdi. Aleksandr hokimga:

- Zindonda azob chekib yotgan odamni ozod qilgin, – debdi.

- Yo'q, uni tutqunlikdan chiqarmayman, – debdi

shahar hokimi.

- Bilmasang bilib qo'y, men – Aleksandrman, bandi esa mening tug'ishgan ukam bo'ladi, – deb o'zini tanitibdi Aleksandr.

Bu nomni eshitishi bilan shahar hokimi tipirchilab qolib, mirshablarga buyruq qilibdi:

- Darhol bandini ozod qilinglar. Axir manavi kelgan kishi Aleksandrning o'zi–ku!

Shunday qilib Janinar zindondan ozod bo'libdi.

- Bu shaharga nimalar va kimlar bilan kirib kelgan eding? – deb so'rabdi Aleksandr ukasidan.

- Ikkala xotinim–u, yigirmatacha xachirga yuklangan mol–mulkim bilan kelgan edim. Barcha qimmatbaho narsalarimni hokim o'ziga oldi. Ikkala xotinimni esa ikki o'g'liga nikohlab xotinlikka berdi.

Jahli chiqib ketgan Aleksandr qilichini qinidan sug'urib oriyatsiz hokimni chopib tashlabdi.

Keyin ukasining ikkala xotini–yu, barcha mol–mulklarini xachirlarga ortib, orqasiga qaytibdi.

Shahar hokimining qizini ham o'zi bilan birga olib ketibdi. Shunda qo'shiqchi Aleksandrga murojaat qilibdi:

- Hoy, Aleksandr! Mening ham arzimni tingla! Hokimning qizini menga xotinlikka ber. Hamisha sening sodiq xizmatkoring bo'lay.

Aleksandr uzoq o'ylab turmasdan, hokimning qizini qo'shiqchiga beribdi. Qo'shiqchi ham ikki shoxli Aleksandr va uning g'aroyib kuch–qudrati, jangdagi qahramonliklari haqida ajoyib qo'shiq yaratibdi.

Shundan buyon Aleksandrning nomi butun dunyoga mashhur bo'lib, hamma uni Aleksandr Makedonskiy deb atay boshlabdi.

## ALEKSANDRNING DUSHMANLARIDAN QASOS OLISHI HAQIDA

Bir zamonlar Mirzo degan kishi yashagan ekan. Uning xotini bir kuni o'g'il ko'ribdi.

- Bolamizga qanday ism qo'yamiz? – debdi xotiniga Mirzo.

– Otini Aleksandr qo'yamiz, – debdi xotini.

Bir kuni Mirzo ovga ketsa, uni qo'shni qishloqning odamlari o'ldirishibdi. Mirzoning o'limi haqida xabarni eshitib, xotini achchiq–achchiq yig'labdi.

Qishlog'idan ikki erkakni yordam berish uchun . so'rattirib oldiribdi–da, erining murdasini xachirga ortib, uyiga keltiribdi. Ammo erining qotilini bilolmabdi.

Oradan bir oy o'tgach, erini qaroqchi Atmon o'ldirgan– ligi haqidagi gap–so'zlar xotinning qulog'iga ham yetib kelibdi. Ammo xotin bu haqda miq etib hech kimga og'iz –ochmabdi.

Aleksandr kun sayin emas, soat sayin o'sa boshlabdi. Bir kuni u onasiga shunday debdi:

– Tegirmonga bug'doy eltib, un torttirib kelaman.

– Hali bunday ishlarga kuching yetmaydi, o'g'lim, – debdi onasi.

– Yo'q, yo'q, onajon! Bunday ishlarni bemalol qila olaman, – debdi o'g'li.

Qo'shnisining yordami bilan Aleksandr bir qop bug'doyni eshakka ortib, tegirmonga jo'nabdi.

Yarim yo'lda yukning og'irligidan eshak qoqilib yiqilibdi–yu, qaytib o'rnidan turolmabdi.

Aleksandr eshakni yukdan xalos qilib, o'rnidan turg'azibdi. Ammo yaqin orada hech kim yo'qligidan qopni qayta eshakka orta olmabdi. Aleksandrning oldiga uch qaroqchi kelib (bular qaroq– chilar ekanligini Aleksandr bilmas ekan) undan so'rashibdi:

– Qayoqqa ketayapsan?

– Tegirmonga.

– Nima uchun qoping yerda yotibdi?

– Eshagim qoqilib yiqildi.

– Qopni ortish uchun senga yordamlashib yuboramiz, » – deyishibdi ular.

Aleksandr quvonib ketganidan qaroqchilarning birovini bilan qopga yopishibdi. Biroq u engashishi bilan qolgan ikki qaroqchi unga tashlanibdi. Aleksandrning belida xanjari osig'lik turgan ekan. Xanjarni qinidan chiqarib, hujumchilardan birini o'ldiribdi. So'ngra qolgan ikkahi S'qaroqchini ham qattiq olishib yengibdi.

Qaroqchilarni tinchitgach Aleksandrning o'zi qopni dast ko'tarib (unga to'satdan kuch qo'shilib qolgan emish eshagiga ortibdi. Tegirmonga borib, bug'doyini torttirib, bir qop un bilan uyiga qaytibdi.

Uyda onasiga uchta qaroqchini yengganini aytib beribdi.

– Xudodan shuni iltijo qilaman–ki, ilohim o'shalarning biri otangni o'Tdirgan qaroqchi bo'lib chiqsin, – debdi onasi.

– Otamni kim o'Tdirgan? – deb so'rabdi Aleksandr.

– Atmon qaroqchi.

– U qayerda yashaydi?

– Qo'shni qishloqda.

– Men uniyam tinchitaman!

– Qo'y, unga kuching yetmaydi, o'g'lim! U seni o'ldiradi.

Aleksandr qilichini qiniga solib, xanjarini beliga osibdi– yu, qo'shni qishloqqa ravona bo'libdi. Odamlar darvozasini ko'rsatib qo'yibdilar.

– Sen kimsan? – deb so'rabdi Atmon.

– Ajnabiyman, – debdi Aleksandr. Atmon qaroqchi uni tanimas ekan. Shuning uchun ham bu yigitni gaplariga ishonibdi.

– Bu yerga nima maqsadda kelding?

– Yer haydash uchun qo'shchi ho'kiz sotib olmoq– chiman.

– Menda senbop bitta ho'kizim bor. Ertaga ertalab kelsang ko'rsataman.

– Mayli, roziman, – debdi Aleksandr. Ammo yarim tunda xanjar bilan bir urib, otasining

qotilini o'ldiribdi—da, hech kimga sezdirmasdan uyiga qaytib kelibdi.

Ertalab o'ldirilgan Atmon qaroqchini ko'rib, odamlar bir—biridan so'rarmish:

– Uni kim o'ldirdi?

– Buni hech kim bilmaydi—ya!

– Uning kechagi ajnabiy mehmoni qayoqqa gum bo'ldiykin—a?

– Izsiz g'oyib bo'lgan. — |

– Demak, Atmonni o'sha o'tdirgan. Bir oydan keyin Atmonni Aleksandr o'ldirgani ma'lum bo'libdi.

Atmon yashagan qishloq ahli Aleksandrning ustidan Mosul shahriga shikoyat yozib yuborishi'odi. Mosul shahri hokimi beshta xizmatkorini tezlik bilan Aleksandrni huzuriga olib kelish uchun jo'natibdi.

– Aleksandr! Mosul hokimi seni huzuriga tezlik bilan yetib borishingni buyurdi, – deyishibdi xizmatkorlar.

– Nima uchun?

– Ustingdanu shikoyat tushgan.

– Kim shikoyat qilibdi?

– Atmon yashagan qishloq odamlari berishibdi.

– Borib hokimingizga ayting, men uning oldiga bormayman.

Xizmatkorlar qaytib borib, hokimga Aleksandrning so'zlarini yetkazishibdi. Hokim bu safar o'nta xizmatkorni jo'natib, ularga qattiq tayinlabdi:

– Aleksandrning qo'l–oyog'ini bog'lab, huzurimga keltiringlar!

Xizmatkorlar yetib kelib, Aleksandrning qo'l–oyog'ini bog'lamoqchi bo'lgan ekanlar, u hammasini har yoqqa kuchukbachchalardek itqitib yuboribdi. Bir amallab zo'rg'a qochib qutulganlari hokimning oldiga kelib, bo'lib o'tgan barcha hodisalarni oqizmay–tomizmay aytib beribdilar.

Shundan so'ng shahar hokimining o'zi bir guruh lashkarlari bilan Aleksandrni olib kelish uchun jo'nab ketibdi. Ammo qishloq ahli Aleksandrni lashkarlar tutib olmasin, deya ko'kraklarini qalqon qilib, uni qattiq himoya qilibdilar. Ular lashkarlar bilan qahramonlarcha olishib– dilar. Hokimning lashkari qo'rqib qochib ketibdi. Aleksandrning o'zi esa Mosul shahrining hokimini to shahar darvozasigacha quvib boribdi.

G'azablangan hokim maslahatchilariga:

– Men bu haqda sultonga murojaat qilaman! – debdi.

Shundan beri Aleksandrning dovrug'i el–u yurtga taralibdi.

\* \* \*

Bir kuni Aleksandr:

– Uch arg'umoq sotib olmoqchiman, – debdi.

– Bir joyda dunyodagi jamiki otlarning eng yaxshisi, ajoyib bir tulpor bor, – deyishibdi.

– U qayerda ekan?

– Bag'dodning orqa tarafida yashaydigan ko'chmanchi qabilalarning boshlig'ida.

– Men o'shani sotib olmoqchiman.

– Egasi uni sotmaydi.

– Agar o'sha otni qo'lga kiritmasam, menga ming la'natlar bo'lsin! – debdi Aleksandr.

Keyin qurollanib, qilich, xanjarini kamariga osib, badaviylar qabilasiga ravona bo'libdi. Ulardan qaroqchi qabilalarning qayoqqa ko'chganligini bilib olibdi.

– Bu yerdan yanada pastroqqa tushishing kerak, – deb badaviylar Aleksandrga yo'l ko'rsatib qo'yibdi.

Aleksandr ko'chmanchi qabilaning manzilgohiga yetib kelib, qabila boshlig'ining o'tov qaysi ekanligini so'rabdi.

– Mana bu o'tov o'shaniki, – deb ko'rsatibdi ko'ch–manchi qaroqchilar.

Aleksandr qabila boshlig'ining o'toviga boribdi.

– Sen kimsan? – deb so'rashibdi undan.

– Mehmoningizman. Sizlarga xizmat qilsam, degan niyatim bor, – debdi Aleksandr.

– Bizga jasur yigitlar kerak, – deb tunagani unga joy berishibdi.

Kechki ovqatdan keyin Aleksandr otlarni ko'zdan kechirayotib, uchqur arg'umoqni bir pasda tanibdi. Ammo bu kecha otni olib qocholmay, ertangi tunni kutishga majbur bo'libdi. Ertasiga kechki ovqatdan keyin Aleksandr hech kimga sezdirmay o'rnidan turibdi—da, otni egarlab, bir sapchib minib olibdi. O'tovga kiraverishda yerga sanchib qo'yilgan nayza bor ekan, shuni sug'urib olib, shamoldek uchib ketibdi.

Kechasi Aleksandr badaviylar qabilasiga yetib keibdi.

- Qayoqdansan? – deb so'rashibdi undan.
- Uzoq–uzoqlardan kelyapman.
- Qayoqqa ketyapsan?
- Xotinim qochib ketgan, shuni axtarib yuribman. Mabodo birortangiz qochoq xotinimni ko'rmadingizmi?
- Yo'q, ko'rganimiz yo'q.

Aleksandr otini choptirib ketibdi. U Bag'dod bilan Mosul o'rtasidagi yo'lda ketayotganida tong yorisha boshlabdi. Ko'chmanchilar uni izma–iz quvib boribdilar. Ular xuddi qushdek uchib kelayotgan emishlar. Aleksandr orqasiga o'girilib qarasa, ular unga yetay–yetay deb qolibdilar. Shunda Aleksandr otining boshini burib, ular tomon tengsiz jangga kirishibdi. O'ttiz oltita otliqni yengibdi. Biroq o'zi ham nayza tegib, yarador bo'libdi. Aleksandr yarasini ro'molchasi bilan bog'lab, jangni davom ettiraveribdi. Yana sakkizta otliqni yer tishlatibdi. Shun– dan keyingina ko'chmanchilar orqalariga qaramay qocha boshlabdilar. Aleksandr tag'in yo'lda davom etibdi. Biroq tezda yana quvg'in boshlanibdi.

- Otni baribir undan tortib olamiz, – deb baqirarmish uni ta'qib qiluvchilar.

Aleksandr yana otining jilovini burib:

- Men Aleksandrman! Eshitayapsizlarmi, men Aleksandrman! – deb qichqiribdi.

Buni eshitgan ko'chmanchilar har yoqqa tumtaraqay qochib ketibdilar. Ammo Aleksandr qaroqchilarning birovini tutib olib, nayza bilan sanchibdi–yu, tepaga dast ko'taribdi. Shu turishda u qishloqqa kirib kelibdi. Buni ko'rgan qishloq ahli hayratdan yoqa ushlabdi:

- O'zing shafqat qilgin, yo xudo! Mana shunaqa botirlar bo'lar ekan! – deyishibdi.

Odamlar bu voqeadan uzoq vaqtgacha ta'sirlanib yuribdilar. Nihoyat Aleksandr uyiga yetib kelibdi.

- Otni qanday qilib qo'lga kiritding? – deb barcha hang–u mang emish.
- Uni olib qochdingmi yoki sotib oldingmi? Aleksandr bo'lib o'tgan voqealarni ipidan ignasigacha

aytib beribdi. Hammalari quvonib ketib, Aleksandrni o'zlariga oqsoqol qilib saylabdilar.

Bir kuni odamlar Aleksandrga:

- Oting judayam ajoyib. Endi shunga munosib bir zo'r qilich ham topishing kerak, – deyishibdi.
- Bunaqa qilichni qayerdan topsam bo'ladi?
- Qoratoshdin qaroqchidan topasan. Uning qilichi dunyodagi jamiki qilichlardan ham zo'r. Biroq u bilan tenglashib o'tirma.
- Nima uchun?
- Qoratoshdin bahodir juda ko'p odamlarni oTdirgan.
- Uning oldiga boraman. Yo halok bo'laman, yo o'sha qilichni qo'lga kiritaman.
- Unikiga bora ko'rma, – deb odamlar uni bu fikrdan qaytarishga urinibdilar, – u baribir seni o'ldiradi!

– Qaroqchi ko'chmanchilar orasida ham bo'ldim— Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar, deyilar. Ammo men hech narsadan qo'rqmadim. Nahotki kelib–kelib qandaydir bir Qoratoshdin botirdan hayiqib o'tirsam. Non–tuz haqqi qasam ichaman–ki, men u bilan kuch sinashaman.



Aleksandr bir sapchib otiga minibdi. Qilichini yoniga osib, nayzasini yelkasiga tashlaganicha, yo'lga otlanibdi. Barcha yo'lida uchragan kishilardan Qoratoshdin botir– ning uyini so'roqlab ketaveribdi.

Tezda Aleksandr bir qishloqqa yetib kelibdi. Quduq yonida qo'lida chelagi bor bir qizga ko'zi tushibdi. Qiz g'oyatda go'zal ekanligidan Aleksandrning unga muhabbati jo'shib ketibdi. Qiz ham unga hayrat bilan tikilibdi.

- Otinga bir chelak suvingdan ber, – deb so'rabdi Aleksandr qizdan.
- Jonim bilan, – debdi qiz va otning oldiga bir chelak to'ldirib suv qo'yibdi.
- Sen qayerdan kelayapsan?
- Ajnabiyman.
- Mabodo Aleksandr emasman?
- Yo'q, men Aleksandr emasman, – deb yuzini pana qilibdi yigit.
- Atmonni o'tdirgan o'sha Aleksandrmi, deb so'rayap– man–da.
- Agar Aleksandrni ko'rishga muyassar bo'lganingda uni tanirmiding?
- Yo'q. Xudo haqqi qasam ichaman–ki, uni tanimay– man. Ammo u haqida uyimizda otamdan ko'p narsalarni eshitganmiz.
- Otangning oti nima?
- Metrusbek.
- Yo'q, men Aleksandr emasman.
- Doimo xudodan bir narsani, ya'ni faqat Aleksandrga turmushga chiqishni iltijo qilaman.

Shunda yigit:

- Xudo haqqi qasamyod qilaman–ki. men Aleksandrman.

Qiz yugurib borib yigitning oyog'ini quchoqlabdi–da, shunday debdi:

- Otdan tush–chi!
- Nima uchun?
- Hozir men bilan birga biznikiga borasan. Men otamga: «Mana Aleksandr! Faqat shunga turmushga chiqaman», deb aytaman.
- Isming nima?
- Farishta Xotun.
- So'zlarimga quloq sol, hoy yaxshi qiz! Xudo haqqi qasam ichaman–ki, sen mening xotinim bo'lasan. Hozir esa meni yo'ldan qoldirma. Eng zo'r qilichni tortib olish uchun Qoratoshdin botirning oldiga ketayapman. Keyin qaytib kelib senga uylanaman. Mabodo u meni o'ldirsa, sen ozodsan, boshqa kishiga turmushga chiqishing mumkin.
- Hozirgina Qoratoshdin botir biznikiga sovchi bo'lib kelgan edi, ammo men uni rad qildim. Unga xotin bo'lishni aslo xohlamayman!
- U qayoqqa ketdi?
- To'g'ri g'arb tomonga ketdi.

Aleksandr shosha–pisha Qoratoshdin botirni izlab ketibdi. Farishta Xotun uyiga kelib, achchiq–achchiq ko'z yoshi to'kibdi. Otasi buning sababini so'rabdi:

- Nimaga bunchalik zor–zor yig'layapsan, qizim?
- Yuragim tars yorilib ketay deyapti, otajon!
- Nima bo'ldi axir, gapirsangchi, qizim. Ko'pam xafa bo'lib yig'layverma, men seni yaxshi yigitga uzataman.
- Menga Aleksandrni boshqa hech kimning keragi yo'q!
- Aleksandrni men qayerdan topaman, qizim?

– Kuyovni bizga xudo o'zi yuboradi, otajon!

Bu payt orasida Aleksandr Qoratoshdin botir yashay– digan qal'aga yetib keibdi. Qal'aning oldi o'tloq ekan. Aleksandr otini o'tlagani temir ustunga bog'lab qo'yibdi. Nayzasini yerga sanchib, qasr ichiga kiribdi. Uni ko'rgan Qoratoshdin botir so'rabdi:

– Qayerdansen, hoy yigit?

– Ajnabiyman. – debdi Aleksandr.

Qoratoshdin botir boshdan–oyoq Aleksandrni kuzatib

chiqqan ekan, birdaniga uni vahima bosibdi. Hech narsa bo'lmagandek Aleksandrga:

– Kel, o'ltirgin, – debdi.

– Yo'q, oitirishga vaqtim yo'q.

– Nima uchun?

– Men sening qilichingga keldim. Agar qilichni bermasang, unda ikkalamiz kuch sinashamiz.

– Mayli, kel, olishaylik. Agar sen meni yengsang, qilich seniki. Agar men seni yengsam, qilich menda qolaveradi, – debdi Qoratoshdin.

Shu payt Qoratoshdinning xotini chiqib qolib, Aleksandrga ko'zi tushibdi–yu, yigitga nisbatan yuragida muhabbat o'ti lovullab ketibdi.

Shunda Qoratoshdin botir yigitdan:

– Kimsan o'zing, isming nima? – deb so'rabdi.

– Men Aleksandrman.

Bu nomni eshitgan xotin eriga:

– U bilan olishgin. Bu yigit botirlarning botiri. Ammo sening ham botir degan noming bor. Sizlar bir–biringizga munosib g'animsizlar. Qaysi biringiz g'olib bo'lsangiz, men o'shanikiman, – debdi.

Xotining bu so'zlaridan Qoratoshdin botir qattiq g'azablanibdi. Shaht o'rnidan turib, Aleksandrning boshiga bostirib boribdi. Aleksandr bir–biriga chirmashib, olisha ketibdilar. To'satdan Aleksandr dushmanning ko'ragini kuch bilan bir siqqan ekan, ko'zlari kosasidan chiqib ketay debdi.

– Qo'yib yubor! – deb bo'kiribdi jon achchig'ida Qora– | toshdin botir.

– Yo'q, yo'q, qo'yib yubormayman, – debdi Aleksandr va uni yerga yiqitib, ustiga chiqib o'tirib olibdi.

– Qilichimni keltir, – deb qichqiribdi Qoratoshdin botir xotiniga.

Xotin qilichni qinidan sug'urib, Aleksandrga beribdi.

– Qilichni menga ber! – tag'in baqiribdi Qoratoshdin.

– Endi senga bu qilichning sirayam keragi yo'q, – debdi xotini. – Aleksandr seni yengib, ustingga minib oldi, uni o'ldira olmading–ku!

Aleksandr Qoratoshdin botirni o'ldirib, uning qilichini olibdi–yu, otiga qarab yo'nalibdi. jv. – Meni ham o'zing bilan birga olib ket! – debdi Qora– toshdinning xotini unga. – Senga sodiq xotin bo'laman.

– Sen menga kerak emassan.

– Nima uchun?

– Chunki sen qaroqchi Qoratoshdinning bevasisan!

– Uyim kuydi, voydod! – deb qichqirib yuboribdi xo-tin, – senga bo'lgan muhabbat o'ti ko'zlarimni ko'r qilib qo'ydi. Nima uchun bu qilichni Qoratoshdinga bermay, senga berib qo'ydim?

– Agar sen qilichni unga berganingda ham Qoratoshdin menga bas kelolmasdi, – deganicha Aleksandr otiga minib ketib qolibdi.

U uyiga qaytgach, hammalari hayron qolibdilar:

- Baribir qo'lga kiritibsan–da!
- Ha.
- Qoratoshdinni o'ldirdingmi?
- Ha.
- Nima uchun uning xotinini olib kelmading? Axir u go'zallarning go'zali–ku!
- Uni boshimga uramanmi? Keragi yo'q.
- Xotining go'zal bo'lishini istamaysanmi?
- Men o'zimga qayliq topib qo'yganman.
- Kimni?
- Javalining begi Mesturbekning qizini.
- U bu yerdan uzoqda turadimi?

– Qoratoshdin qal'asining yonida. Bu paytda Farishta Xotun yuqori qavatdagi xonasida o'tirib, o'zicha o'y–xayolga borgandi: «Aleksandr qaytib kelmadi, demak Qoratoshdin botir uni o'ldirgan». Shularni o'ylagancha qiz shashqator ko'z yoshlarini oqizaverdi. Ammo Aleksandr bu payt yo'lga chiqqan edi. Yigit tezda Mesturbekning yerlari chegarasiga keldi. Durbin orqali derazadan kuzatib turgan Farishta Xotun kelayotgan otliqqa ko'zi tushib, uning Aleksandr ekanligini bildi. Qiz faqat bir narsaga hayron bo'ldi: «Juda g'aroyib– ku! Ketishda Qoratoshdinning oldiga g'arbga qarab ketgan edi, endi esa sharq tomondan kelayapti».

Aleksandr qal'a ichiga kirib kelibdi. Qiz unga peshvoz chiqib, otasining huzuriga boshlabdi. Otasi barcha mulozimlari qurshovida o'tirgan ekan.

Aleksandr hammalari bilan salomlashib chiqibdi.' Hamma o'rnidan tursa ham faqat qizning otasi Metrusbek turmabdi. Aleksandr xafa bo'libdi, ammo Metrusbek bu kelgindining kim ekanligini bilmagan ekan–da.

- Aleksandr, sen ham o'z o'rningni egalla! – debdi qiz.

Aleksandrning nomini eshitgan Metrusbek darhol

o'rnidan turibdi. Aleksandr Metrusbekdan ham yuqo– riroqqa borib o'tiribdi. Qizg'in suhbat boshlanibdi. Qah– va tortilgach, hammalari emin–erkin qahva ichib o'tirib– dilar.

- Qayerdan kelding, hoy yigit? – deb so'rabdi bekning qizi.
- O'z uyimdan keldim.
- Atmonni o'ldirgan senmi?

Aleksandr to'planganlarning barchasiga qanday qilib otasining qotilidan o'ch olganini, tegirmonga bug'doy tor– tishga borayotganda hujum qilgan uchala qaroqchini tinchitganini, uchqur ot va eng keskir qilichni qanday qilib qo'lga kiritganini aytib beribdi. Aleksandr bu voqea– larni hikoya qilib berguncha, qiz undan ko'z uzmabdi. Keyin odamlar Aleksandrdan:

- Bu yerga nima maqsadda kelding?
- Bu haqda Farishta Xotunning o'zidan so'ranglar, – debdi yigit.

Qiz o'rnidan turib, ularning birinchi uchrashuvi va bu haqda o'zaro kelishib olganliklarini aytib beribdi.

- Men faqat Aleksandrga turmushga chiqaman! – deb tugatibdi hikoyasini qiz.

Metrusbek ham qiziga:

- Yaxshi, yaxshi! Seni Aleksandrga beraman, – debdi.

Metrusbek katta to'y–tomosha boshlabdi. Mehmonlar

uchun yuzta qo'y so'yishni buyuribdi. Shu tariqa Farishta Xotun Aleksandrga tegibdi va ular baxtiyor yashay >shlabdilar.

Oradan bir oz o'tgach, Metrusbek qiziga ot sovg'a qilib, Aleksandr bilan jo'natib yuboribdi. Xayrlashayotib Aleksandr qaynatasiga shunday debdi:

– Agar kim–ki yurtingga lashkar tortib kelsa, bu haqda tezlik bilan meni ogoh et! Dushman, albatta qirib tashlanadi. Bu tomondan ko'nglingni xotirjam qilgin!

Aleksandr uyiga qaytgach, tag'in to'y–tomosha qilib, katta ziyofat beribdi.

Hamma kelinni ko'rib:

– Sening xotiningdan go'zalroq xotin bu dunyoda boshqa yo'q, Aleksandr! – deyishibdi hayrat bilan.

Aleksandr o'ziga juda chiroyli qal'a quribdi. Uning shon–shuhrati butun olamga yoyilibdi. U boshiga shoxga o'xshatib, ikki qilichini mustahkam bog'lab olganicha, dushmani ayovsiz qirib tashlagani uchun ham odamlar «Aleksandrning shoxi bor» deb, uni Aleksandr Makedonskiy deb atabdilar. Shundan beri u butun jahonga «Ikki shoxli Aleksandr» degan nom bilan mashhur bo'libdi.

### **DORO BILAN UCHRASHUV**

Aleksandr safarga jo'nab ketibdi. Eron chegaralariga yetib borgach, Tigr daryosining qirg'og'ida vaqtinchalik qarorgohda joylashibdi. Aleksandr elchi qiyofasida Doro'ning oldiga jo'nab, tezda Bobilga yetib kelibdi. Forslar bu haqda shohga xabar beribdilar.

'Doro III Kodoman — Eron shohi (eramizgacha 336–330– yillar). Ahamoniylar sulolasidan. U hukmronlik qilgan qudratli davlat A.Makedonskiy lashkarlari bergan zarbadan bo'linib ketgan.

Aleksandr Doro bilan yuzma–yuz bo'lganida Eron shohi elchiga ta'zim qilib, unga izzat–hurmat ko'rsatibdi. Shoh o'zicha: «Fors lashkarlariga yordam berish uchun osmondan xudo mitra'ning o'zi tushib kelganga o'xshay– di», deb o'ylabdi. Chunki Aleksandr chindan ham xudoga o'xsharkanda, boshidagi toji xuddi quyosh nurlaridek charaqlar, zarbar liboslari oltindek tovlanar, boshmoqlari sof oltindan bo'lib, kamariga esa zumrad va marvaridlar qadalgan ekan.

Doro o'rnidan turib diqqat bilan Aleksandrni ko'zdan kechiribdi. Podshohning o'n mingdan ortiq askari shu yerning o'zida uni qo'riqlab turganmish.

Doro mehmondan so'rabdi:

– Kimsan o'zing? Qayerdan tashrif buyurding?

Aleksandr javob qilibdi:

– Men Aleksandrning chopariman, undan senga maktub olib keldim. Ushbu maktubda: «Men bilan urush boshlashni kechiktirayapsan. Makedoniyaliklar buni o'zlaricha tushunmoqdalar: bunday bo'lishiga sabab, Doro kurashlarda alohida bo'rtib turgan xususiyati – dovyurakligi, jasurligini yo'qotgan, shuning uchun ham u endi jimgina pusib yotibdi», deyishmoqda. Ortiqcha vaqtni orqaga sudrashning hojati yo'q! Urushni qachon boshlaysan, tezroq shuning xabarini ber!

Doro:

– Balki sening o'zing elchi bo'lmay, Aleksandrning o'zidirsan? – deb so'rabdi.

Bunday deb so'rashining sababi, Aleksandr elchilarga o'xshab xushmuomalalik va nazokat bilan emas, balki dadil va otashin gapirishida ekan.

Yana Doro shunday debdi:

– Bu aytgan so'zlaringdan aslo qo'rqmayman. Yaxshisi, podshoh elchilariga tegishli bo'lgan odat bo'yicha men bilan birga shoh dasturxonidan ovqatlansang, chunki Aleksandr ham mening elchilarimni xursandchilik bilan kutib olgan.Doro taxtga o'tiribdi. Davlatning barcha mashhur kishilari va saroy a'yonlari dasturxon atrofiga joylashib– dilar. Aleksandr ham shular bilan birga Doroning ro'pa– rasiga o'tiribdi.

Aleksandr past bo'yli, nimjongina ko'ringani bilan, dadil so'zlaganiga hamma odamlar hayron qolibdi. Ziyofat chog'ida jomlarda sharob keltirishibdi. Aleksandr uni yerga to'kib, oltin idishlarni qo'yniga yashira boshlabdi. Buni sezib qolib Doroga yetkazibdilar.

Doro taxtdan tushib, Aleksandrning yoniga kelib so'rabdi:

– Mardonavor ishlari bilan mashhur bo'lgan hoy qahramon! Nima uchun sharobdan bo'shagan barcha oltin jomlarni qo'yningga berkitayapsan?

Aleksandr javob qilibdi:

– Mening hukmdorim o'z boyonlariga, saroy ahllariga tantanali ziyofat berganida ularga hamma vaqt oltin idish sovg'a qiladi. Men ham shu sababdan shunday qildim. Sening saroyingda ham shunaqa bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim. Agar senda bunday odat bo'lmasa, oltin jomlaringni qaytarib ol.

Doro unga:

– Buyuraman! Shu oltinlarning bari mayliga senga qolsin! – debdi.

Forslarning bari Aleksandrغا katta diqqat–e'tibor bilan qarab, uning mardonavor so'zlaridan hayratga tushibdilar.

Shu payt Doro satraplaridan biri – Pusak ismli kishi (u avvallari Aleksandrning otasi shoh Filipp huzuridagi fors elchixonasida xizmat qilgan ekan) elchini diqqat bilan ko'zdan kechirib, uni tanib qolibdi. Pusak o'z ona tilida forsiyda Doroga shunday debdi:

– Ey, donishmand va diyonatli shoh Doro! Manavi elchini diqqat bilan qattiq qo'riqlashga buyruq bergin chunki u Aleksandrning o'zidir. Men uning tashqi ko'rinishini juda yaxshi bilaman, shuning uchun ham hozir uni tanib qoldim.

Doro, saroy ahli va mashhur kishilarning barchasi Pusakning so'zlarini eshitgach, birdaniga Aleksandrغا diqqat bilan tikilganча gapga tushib ketibdilar. Buni sezgan Aleksandr o'rnidan turib, bir sakrashdayoq i podshoh saroyi eshiklariga yetib olibdi. Ammo qo'yniga yashirgan oltin jomlarning birortasini ham yerga tushir– mabdi.

Eshikdan chiqaverishda qo'lida qarag'ay yog'ochidan yoqilgan mash'ala ushlagan shohning shaxsiy soqchisi turgan ekan. Aleksandr soqchini qilich bilan chopib, mash'alani tortib olibdi. Keyin sakrab otiga minibdi–da, kuchining boricha otning biqiniga tepibdi. Aleksandr mash'ala yorug'ida yo'lni yoritib, uchqur otida jon–jahdi bilan yelib–yugurib ketibdi va bir pasda daryo qirg'og'iga yetib kelibdi.

Ko'pchilik uning orqasidan quva ketibdi. Ammo yurib bo'lmas qop–qorong'i zulmat tufayli o'nqir–cho'nqirlik va jarliklarga tushib ketibdilar.

Aleksandr esa bu vaqt orasida qariyb eson–omon daryoning narigi qirg'og'iga yetay deb qolibdi. Biroq uchqur ot old oyoqlarini qirg'oqqa qo'ygan mahalda daryodagi muz eriy boshlabdi, otning orqa oyoqlari suvga cho'ka boshlabdi. Aleksandr ot ustidan sakrab qirg'oqqa tushibdi, ot bo'lsa shu zahotiyog daryoga cho'kib ketibdi.

Quvlovchilar daryoga yetib kelganlarida Aleksandr allaqachon narigi qirg'oqqa o'tib olgan ekan. Ular juda hayron qolibdilar. Ammo narigi qirg'oqqa o'tishning sira iloji bo'lmabdi. Chunki daryodagi muz tezlik bilan eriy boshlagan ekan. Odamlar bir–birlariga:

– Aleksandrning baxti bor ekan–ki, narigi qirg'oqqa chiqib olishga ulguribdi, – deyisharmish.

Doroning odamlari orqalariga qaytib kelib, Aleksandrni qo'ldan chiqarib yuborganliklarini aytib beribdilar.

Doroni qattiq qo'rquv va vahima bosibdi. Shu kungi bir voqea Doroga yomon bir ofat yaqinlashayotganligidan darak beribdi. Ya'ni, mehmonxona devoriga osib qo'yilgan Doroning sevimli kishisi Kserks'ning surati uning ko'z oldida asta–sekin sirg'alib yerga tushibdi. Bu Eron davlati halokati yaqinligiga ishora edi.

Daryodan eson–omon o'tib olgan Aleksandr bunchalik mashaqqat bilan bosib o'tgan yo'l azoblaridan qutulib hordiq chiqaribdi va so'ngra yo'lga ravona bo'libdi. Zim– ziyo tun qorong'uligida ham u o'zining lashkarboshisi Eumelosni ko'rib qolibdi. Lashkarboshi Aleksandrdan qattiq xavotir olib, qo'rqqanidan achchiq–achchiq yig'layotgan ekan. Aleksandr –bo'lib o'tgan voqeani oqizmay–tomizmay gapirib beribdi.

### AJDARHONING O'LDIRILISHI

Sharqqa qarab o'n kunlik yo'lni bosib o'tganimizdan so'ng biz baland bir toqqa yetib keldik. Shu tog' etagida yashaydigan aholining ba'zi birlari bizga shunday dedilar:

– Shoh Aleksandr hazratlari! Sen bu tog'dan o'tolmay– san. Chunki u yerda kattakon ajdarho qiyofasidagi ilohiy bir kuch yashaydi. U mamlakatni dushmanlardan qo'riqlaydi.

Men ulardan:

– O'sha ilohiy kuch – ajdarho qayerda yashaydi? – deb so'radim.

Odamlar javob qildilar:

– Bu yerdan daryo yo'nalishiga qarab uch kunlik yo'lni bosib o'tish kerak.

Men yana ulardan so'radim:

– O'sha ilohiy kuch boshqa mavjudotlarning qiyofasiga ham kira oladimi?

Ular menga mujmalroq javob berdilar:

– Dahshatli bu ajdarhodan vahimaga tushgan birorta ham dushman bu mamlakatga bostirib kirishga jur'at qilolmaydi.

Tag'in ularga savol berdim:

– O'sha ilohiy kuch mamlakatning hamma chegarasini qo'riqlashga qurbi yetadimi?

Ular javob qildilar:

– Yo'q, u faqat o'zi joylashgan tomonning chegara– sinigina muhofaza qiladi.

Men ulardan qayta–qayta so'rayverdim:

– O'sha ilohiy kuchning yotadigan o'z maskani bormi?

Bo'lsa, birontangiz borib ko'rganmisizlar?

Odamlar javob qildilar:

– Unga yaqinlashishga hech kimning yuragi betla– maydi. Axir u nafas olganida filni ham yutib yuborishi mumkin.

Men yana so'radim:

– Sizlar u yerda bo'lmay turib, bularning barchasini qayerdan bilasizlar?

Ular javob berdilar:

– Har yili u juda ko'p odamlarni tiriklayin yutib yuborishini bilamiz. Har kuni unga ikkita ho'kiz beri– shimizga qaramasdan odamlarni ham yeydi.

Men yana so'radim:

– Ikkita ho'kizni o'sha ilohiy kuchga qanday qilib eltib berasizlar?

Ular javob berdilar:

– Ilohiy kuchga xizmat qiladigan odam ikkita semiz ho'kizni tanlab, har kuni tong saharda ilohiy ajdarho o'z inidan chiqmay turib, ularni daryo qirg'og'iga olib boradi. Ho'kizlarni bog'lab, yerga yiqitadi, so'ngra tog' cho'qqisiga chiqib ketadi. Ilohiy ajdarho inidan chiqib, vahshat bilan daryoni kechib o'tadi va ho'kizlarni tiriklayin yutib yuboradi.

Men yana ulardan so'radim:

– O'sha ilohiy ajdarho har kuni bitta yo'ldan keladimi yoki xohlagan joyidan yuradimi?

Odamlar aytdilar:

– U har kuni kelgan yo'lidan qaytadi. Eshitganlarimni chuqur mulohaza qilib, shunday fikrga

keldim. U mahluq hech qanaqa ilohiy ajdarho emas, balki bu g'ayritabiiy qilmishlarni qandaydir yovuz iblis qilsa kerak.

Men yerli xalq hamkorligida yo'l yurib daryo qirg'og'ig; yetdim. Odatdagidek bu ho'kizlarni olib kelinglar, del ularga buyurdim va o'zim lashkarlarim bilan tog tepasiga ko'tarildim. Shunda biz inidan chiqib yaqinla– shayotgan dahshatli bir mahluqni ko'rdik. Bu mahluqn. ko'rganimda, avvaliga, daryo ustidan g'ira–shira tumar ko'tarilayapti ekan, deb o'yladim. Mahluqning og'zidar chiqayotgan tutun tun payti tushayotgan qalin tumanni eslatardi. Mahluq daryodan kechib o'tishini kuzatib turdik. Hali qirg'oqqa yetmasdanoq u nafasi bilan ho'kizlarni o'z domiga torta boshladi. Semiz ho'kizlar go'yo palaxmondan otilgandek uchib kelib mahluqning og'ziga kirib ketdilar. Bir necha soniya ichida ochofat mahluq ularni yutdi– qo'ydi. Bularning barini men o'z ko'zim bilan ko'rganimdan keyin ertasiga mahluqqa faqat ikkita buzoqcha keltiring-lar, shu kuni mahluq och qolsin, deb buyurdim. Haqiqatan ham u buzoqchalarni yutib bo'lib, qorni to'ymadi shekilli, daryo sohili bo'ylab u yoqdan bu yoqqa yugura boshladi. Ochlik azobiga chidolmay, ikkinchi marta daryoni kechib o'tdi. Biroq narigi qirg'oqda ham yegulik narsa topolmay, bir necha marta qarama–qarshi tomonlarga yugurgilab keldi. Keyin ajdarho toqqa o'rmalab chiqmoqchi bo'lgan edi, belgilangan ishora bo'yicha lashkarlarim gulduros ovozlari bilan shunaqayam kuchli baqirishdi–ki, mahluq orqasiga qaytib, tag'in daryo qirg'og'i bo'ylab u yoqdan bu yoqqa zir–zir yugura boshladi.

Shunda men tezlik bilan judayam bahaybat va ulkan ikkita ho'kiz keltirishni, ularni so'yib, terisini shilib, go'shtidan va ichki a'zolaridan tozalashni, o'rniga esa ganch, qatron, qalay va oltingugurt solib terilarni to'ldirishni, so'ngra go'yoki ho'kiz tanalarini odatdagi joyga qo'yib kelishni buyurdim.

Bu ishlarning hammasi bajarilgach, mahluq odati. bo'yicha daryoni kechib o'ta boshladi. Qirg'oqqa yetgach, o'tkir nafasining kuchi bilan ikkala ho'kizni domiga tortib, yutib yubordi. Ganch qorniga kirishi bilan ajdarho

bahaybat og'zini ochganicha yerga cho'zilib qoldi. Dumi bilan to'lg'anib behisob daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashladi. Mahluq uzala tushib yerga yotib qolganini ko'rganimdan keyin temirchilik bosqonini keltirib, olovda bir necha zo'ldirlarni toblashni, keyin esa ularni ajdarho–ning og'ziga itqitib yuborishni buyurdim. Beshta olovda qizdirilgan zo'ldir mahluqning og'ziga birin–ketin tashlan– gach, u qimir etmay qoldi.

Shunday qilib dahshatli ajdarhodan odamlar bir umrga qutuldilar.

## XITOYDA

Biz yo'limizda davom etib, bir mamlakatga yetib keldik. Bu yerda baland tog' bor ekan. Uning etaklaridan sersuv daryo oqib o'tarkan. Odamlar bizga: «Bu tog'da xudoning o'zi yashaydi, tog'ning turish–bitishi yoqutdan iborat», deyishdi. Men lashkarlarim bilan tog' tepasiga chiqdim. Bu yerda juda ko'p zilol suvli buloqlar–u, suv havzalari bor ekan. Yerlik aholi menga:

– Bu tog'da bamaylixotir yurmanglar, chunki uning xudolari qudratlidir, – deyishdi.

Xudolarga qurbonlik qilishga buyruq berdim va ularga ta'zim qildim. Shu ondayoq tog' qa'ridan sehrli va g'aroyib musiqa ohanglari tarala boshladi. Shunda xudolarga ikkinchi marta ta'zim qildim. Shu payt tog' qa'ridan tovush sasi keldi. Ovoz yunon tilida edi va men quyidagi so'zlarni eshitdim:

– Shoh Aleksandr! Yo'lingda davom etishni xayolingga ham keltirma! Xuddi mana shu yerdan bir mamlakat boshlanadi–ki, uning odamlari orttirgan boy tajriba va mislsiz jasoratlari tufayli ko'pgina dushman lashkarlarim qirib tashlaganlar.

Men ovozga javoban dedim:



– Ey, Xudo! Sen shunchalik iltifot bilan meni xavf–xatardan ogoh qilayapsan. Ayting–chi, agar men lashkarlarimsiz o'sha mamlakatga borsam, orqaga tirik qaytib kela olamanmi?

– Boraver, Iskandar! – deb javob berdi Xudo. –

Chunki sen u yerda ibratli va saboq bo'ladigan ko'p narsa-larni bilib olasan.

Men tag'in savol berdim:

– Qanday ibratli narsalarni ko'rar ekanman?

– Hoy, podshoh! Sen bu yerda qanday qilib kichkina va kamtarona narsalardan buyuklik va go'zallik yaratili– shini ko'rasan.

Bu so'zlarni tinglagach men shu tog'ning tepasiga shahar qurdirib, uning ichida bronza haykal o'rnatish, bundan keyin bu shaharni «Tog'lar malikasi – Aleksand– riya» deb nomlashga buyruq berdim.

Lashkarlarimga bu mamlakatda dam olish uchun to'x– tash joyi – manzilgoh qildirib, o'zim yigirma sodiq do'st– larim bilan Katon1 nomli mamlakatga jo'nab ketdim. Bu yerda biz uch kun bo'ldik. U yerdan chiqib tag'in yo'li– mizda davom etdik va tiniq suvli buloqlarga boy tog'li yerlarda o'n kunlab kezib yurdik. Nihoyat Xitoyga yetib kelganimizda men o'zimni podshoh Aleksandrning elchisi Pifaos deb tanishtirdim. Hoqon saroyi darvozalariga yaqin– lashgach hoqonga mening kelganligimni yetkazinglar, deb odamlardan so'radim. Hoqon saroyiga kiritishdan avval meni so'roq qilishga buyuribdi. Hoqonning bosh lashkar– boshisi Gundafar Xitoyga nima maqsadda kelganim sabablarini surishtirdi. Men javob qildim:

– Men podshoh Aleksandrning elchisiman. Gundafar qayta–qayta sinovchan surishtiraverdi:

– Bu yerga kelishdan maqsading nima? Shuni ayt! Men javob qildim:

– Podshoh Aleksandr meni Xitoy hoqonining huzuriga jo'natdi. O'zim bilan kelgan nomani shaxsan hoqonning o'ziga topshirishim kerak.

Shuning uchun ham men bu haqida senga hech narsa ayto olmayman. Gundafar hoqon huzuriga kirib, bu haqida unga axborot beribdi. Shundan keyin hoqon saroyini bezatib, hamma yoqqa ipak pardalar osish va oltin taxtni Jayyorlashni buyuribdi. Keyin meni chaqirishga odam " yubortiribdi.

Afsonaviy mamlakat nomi.

Hoqonga ro'para bo'lgach, unga ta'zim qilmadim. U mendan so'radi:

– Qayoqlardan va qaysi yurtlardan kelding?

Javob berdim:

– Podshoh Aleksandrning elchisiman.

Hoqon so'roqni davom ettirdi:

– Aleksandr deganing kim?

Men javob berdim:

– O'zi makedoniyalik, butun jahonni egallagan, Eron va Hindistonga hukmdor podshoh.

Hoqon tag'in:

– Makedoniya degani qanaqa mamlakat o'zi? – deb so'radi.

Men javob berdim:

– Mening hukmdorim Aleksandr xudolarning marhamati bilan yer yuziga hukmdor bo'ldi. Seni uning huzuriga olib borish uchun bu yerga keldim. Shuningdek, senga Aleksandrning quyidagi so'zlarini yetkazish menga topshirilgan. «Qudratli xudolarning xohishi va marhamati bilan men yer yuzidagi jamiki podshohlar ustidan yagona hukmdor bo'ldim. Shuningdek, barcha toj–u taxt voris– larining ham hukmdori va bosh xo'jayini bo'lib tayinlandim. Kimki o'z xohishi bilan mening hukmdorligimni tan olsa, o'z mamlakati ustidan hukmdorlik qilish huquqini saqlab qoladi. Kimki mening hukmronligimni tan olmasa, unda o'z mamlakatidan va saltanatidan

mahrum bo'ladi. Agar menga ishonmay sen so'zlarimdan shubhalansang, Osiyo podshohi Doro butun dunyoda qanchalik shuhrat va martabaga erishganiga qaramay, ne qismatga duchor bo'lganligini eshit. U juda ko'p urushlarda g'olib chiqib, qahramonlik ko'rsatgan. Ammo keyinchalik menga bo'ysunishni istamagani uchun saltanatdan ajralib, halokatga uchragan. Hindiston shohi Porning ham taqdiri shunday tugagan. Por ham avvallari juda buyuk va qudratli shoh bo'lgan, ayyorligi bilan shon– shuhrat qozongan, harbiy mahoratda cheksiz tajribaga ega bo'lgan. Hamma odamlar u faqat odamlarnigina emas, balki xudolarning ustidan ham hukmdor, degan o'sha Por endilikda taxtdan ajralib, paymol qilingan. Uning qismati qanchalik qayg'uli tugagan–a! Bularning bariga sabab, menga bo'ysunishni xohlamagani–da! Sen haqingda: «Katta hayotiy tajribaga ega, juda aqlli donishmand kishi», degan gaplarni eshitganman. Shuning uchun ham xuddi dushmandek son–sanoqsiz askarlarim bilan ustingga bostirib bormoqchi emasman. Aksincha, ening huzuringga xuddi do'stim oldiga yuborgandek, o'z elchimni jo'natayapmanki, sen ham o'z xohishing bilan huzurimga kelgin va men sening o'z og'zing bilan aytgan bitmas–tugamas bilimlar xazinasi bo'lmish aqlli va dono so'zlaring mevasidan bahramand bo'lay. Agar mamla– katingda diqqatga sazovor narsalar bo'lsa, menga ham olib kel, ularga qarab lazzatlanay!»

Xitoy hoqoni so'zlarimni tinglab bo'lgach:

– Aleksandrning ko'rinishi qanaqa? Judayam baland bo'yli bo'lsa kerak–ov? – dedi.

Men javob berdim:

– Aksincha, u kishi pakana bo'yli!

Hoqon menga:

– Elchilik taomiliga ko'ra bugun seni saroyda qoldiraman. Javobini ertaga olasan, – dedi.

Tushlik vaqti bo'lganda hoqon meni dasturxonning eng chekkasiga o'tqazishni buyurdi. Tushlikdan so'ng u meni saroy xonalaridan biriga joylashtirishni buyurdi. Men shu xonada tunab qoldim.

G'ira–shira tong qorong'isida meni uyg'otib, hoqon huzuriga olib borishdi. Men unga ta'zim qildim.

Hoqon unga ta'zim qilganimni ko'rib, mening chindan kim ekanligimga shubhalanib qoldi. Yana qaytadan sinchiklab so'roq qilishni buyurdi. Nomani xuddi awalgidek takrorlaganimdan keyin u shunday dedi:

– Hozir o'qib bergan nomang xuddi kechagining takrori. Ammo qiliqlaring bugun o'zgacha. Bugun kechagidan ko'ra o'zingni boshqacha tutayapsan.

Shunda men unga:

– So'zlaring chin haqiqat, hoqon hazratlari! Kecha men o'z nutqim bilan senga Aleksandrni eslatgan edim. Sen ham menda faqat Aleksandrni ko'rgansan. Bugun esa men uning elchisiman, xolos.

Shunda hoqon men uchun yelkasiga tashlab yuriladi– gan yengsiz kiyim keltirishni buyurdi va dedi:

– Aleksandrning bo'yi qanchaligini ko'rsatib ber–chi?

– U mening bo'yim bilan baravar, – dedim.

– Sendan sal–pal balandroqdir, – so'roqni davom ettirdi hoqon.

– Yo'q, yo'q, – dedim men.

Keyin hoqon mening bo'yimga mos ravishda kiyim bichishni buyurdi. Libos tayyor bo'lganda uni o'rab, muhrlattirdi. Keyin menga:

– Hoy, Pifaos! Borib mening javobimni Aleksandrga yetkaz! Unga quyidagi so'zlarimni aytib ber. «Sening shon– shuhrating, jasurliging va baxtli qismating haqida eshitganman. Shoh Doro

ustidan qozongan g'alabang, Porning mamlakatida qilgan zafarli yurishlaring, shuningdek, boshqa bir qancha xalqlarni o'zingga bo'ysundirganing, ya'ni ko'pchilik ustidan g'alaba qozonib, ustunlik qilishing, mening fikrimcha, senga baxt kulib boqqanidan yuz bermagan bo'lsa kerak. O'ylashimcha, bunday bo'lishiga boshqalarning omadsizlikka duchor bo'lganliklari sabab bo'lsa kerak. Yer yuzida nimalar yuz berishi faqat qismatga bog'liqdir. Ko'rinishdan, Doro va Por mahrum bo'lgan baxtli omad sening peshonangga bitilgan ekan, shekilli! Umuman, haddan tashqari taqdirga ishonmaslik kerakligini bilib qo'ysang yomon bo'lmasdi. Kuni bitib, halokatga mahkum bo'lgan odamlarning jallodi bo'lishing uchun shunchalik qattiq jang—u jadal qilishing shartmidi? Axir insoniyatning jallodi degan nom orttirishning o'zi buyuk sharmandalik—ku! Nomangda aytilgan men sening huzuringga borish masalasiga kelganda esa mana ko'r, men sen bilan elching Pifaos tilida gaplashayapman. Mening so'zlarimni, u albatta mening \ tilimdan senga yetkazadi. Huzurimga kelmadi, deb mendan "" g'azablanma! Bizning mamlakatimizga urush qilgani bostirib kelma! Chunki bizlar hech qachon va hech kimga

bo'ysunmaymiz! Men bu gaplarni biz sendan kuchliroqmiz degan maqsadda aytayotganim yo'q. Men bu gaplarni sening foydangni ko'zlab aytayapman. Mabodo sen bizlarga urush e'lon qilib, taqdirning taqozosi bilan qo'ling baland kelib, xuddi Doro va Porni yengganingdek ustimizdan zafai qozonsang, unda hammamizni o'ldirib, jallodlikni bo'yningga olishingga to'g'ri keladi. Chunki mening xalqir. qullik zanjirini toki tirik ekan, qabul qilmaydi. Yana b: narsani yodingda tut! Agar baxt sendan yuz o'girib mashhur bo'lib ketgan noming—u, cheksiz saltanating taqdi taqozosi bilan tubanlikka qarab ketib qolsa, inqirozga y tutsa—chi, chunki taqdir aldamchi, baxt qushi boshqa boshga qo'nishi mumkin! O'zimiz insonmiz—u, ammo bor kuch—g'ayratimizni o'zimizga o'xshaganlarni qirib tashlab. ko'pgina mamlakatlarni bosib olishga sarflaymiz. Keyin-chalik barcha narsalarni bizlarning xohish—irodamizga qaramasdan qo'ldan boy berib qo'yamiz. O'zimiz bosib olgan ko'pgina mamlakatlar, egallab va bo'ysundirib olgan katta—katta yerlardan mana shu kiyim kattaligidek bir—ikki quloq tuproq qoladi, xolos!»

Hoqon shu ondayoq menga o'zimning bo'yimga moslab tikilgan kiyimni berdi. Bundan tashqari u menga olmos qadalgan oltin toj, marvaridga liq to'la bo'lgan kattakon jom, o'n ming bo'lak ipak va besh ming bo'lak zar gazlama, ikki yuzta qamishdan to'qilgan naqshli bo'yra, yuzta bo'yalgan teri, mingta hindiy qilich, beshta yovvoyi ot va boshqa ko'p narsalarni tortiq qildi.

Xitoy hoqoni men bilan xayrlashayotib, shunday dedi: — Bu sovg'alarning barini eltib Aleksandrga topshirgin. Avvaliga tuhfalarni olmoqchi emasdim, keyin fikrim—dan qaytdim, mabodo sovg'alarni rad qilsam, shubhalanib, meni Aleksandrning o'zi ekan, degan qarorga kelmasin deb qabul qildim.

## ALEKSANDR VA AMAZONKALAR

Nihoyat Aleksandr amazonkalar mamlakatiga safar tayyorgarligini boshlab yubordi. Bu mamlakatda faqat xotin—qizlar yashar ekan. Amazonkalar bir ko'krakli qizlar

ekan. Aleksandr amazonkalar mamlakatiga yaqinlashib, ularga quyidagicha noma yozibdi:

«Aleksandr amazonkalarga salom yo'llaydi. Ehtimol sizlar mening shoh Doro va Hindiston podshohi Por bilan olib borgan janglarim va ularni o'ldirganim haqida eshitgandirsizlar. Ularni qatl qildirganimdan keyin Hindiston mamlakatiga qarab yurish qilclim. U yerda bir qancha braxmanlar va olimlarni ko'rdim. Ulardan o'lpon oldim. Ammo ularni mening sharafimga xudolarga qurbonlik qilib turishlari uchun o'z yurtlarida qoldirdim. Keyin u yerni tark etdim. Hozir esa sizlarning huzurin—gizga bormoqchiman. Sizlardan iltimosim shulki, hurmat—izzatimni joyiga qo'yib kutib olsangizlar. Chunki men sizlarning yurtigingizga jang qilish yoki

yomonlik qilish uchun borayotganim yo'q. Faqat mamlakatingizga sayohat qilmoqchiman, xolos. Sizning foydangizni ko'zlab qoluvchi Aleksandr».

Amazonkalar bu nomani o'qib chiqib, quyidagicha javob yozib yubordilar:

«Amazonkalar va ularning harbiy boshliqlari Alek-sandrga salom yo'llaydilar! Bizning yerimizga qadam bosmasdan oldin bir narsani bilib qo'yishingni istaymiz. Agar yurtimizga kelishga qaror qilgan bo'lsang, unda o'zing istamagan holda qaytib ketishingga to'g'ri keladi, shekilli. Bu nomada biz senga o'z yurtimiz va turmush tarzimiz haqida hikoya qilib bermoqchimiz.

Biz, albatta, tabiatimizga ko'ra ayollarmiz, ammo jasurlikda erkaklardan ustun turamiz. Amazonkalar daryosining o'rtasida joylashgan orolda yashaymiz. Bu daryoning atrofidan yana bir daryo oqib o'tadi—ki, uning boshlanish va oxirini hech kim bilmaydi. Faqat bitta kechuv bor, shu orqaligina oldimizga o'tish mumkin.

Orolda istiqomat qilayotganlarning bari — bokira qizlarmiz. Jamiki qizlar ikki yuz—u sakson mingni tashkil qiladi. Oramizda, umuman, orolda birorta ham erkak zoti yo'q. Erkaklarimiz daryoning narigi tomonida turishadi. Faqat yilda bir marta Zevs va Gefest xudolariga qurbonlik qilish uchun otlarimizni so'yadigan payt kelganida biz daryoning narigi tomoniga, o'ttiz kun davomida erkaklar bilan birgalikda bayram qilamiz. Oramizda erkaklar bilan birga qolishni istaganlar bo'lsa, bunga ularning haqqi bor. —Agar oramizdan birortasi homilador bo'lib qolsa, to tuqquncha o'sha yerda qoladi. Mabodo amazonka qiz tug'sa, qizcha yetti yoshga to'lguncha tarbiya qiluvchilar— ning qaramog'ida qoladi. Shundan keyingina qiz bola bizning oldimizga qaytariladi.

Agar yurtimizga birorta dushman bostirib kelsa, biz — yuz—u o'ttiz ming amazonka harbiychasiga jihozlangan jangovar uchqur otlarga minib jang maydoniga chiqamiz. Qolganlari esa harbiy qarorgoh va orollarni qo'riqlash uchun qoladilar.<sup>1</sup>

Erlarimiz orqamizdan izma—iz borishadi. Jangda halok bo'lgan amazonkalarining murdalarini orollarga olib borishadi. Agar dushmanning lashkarlari son—sanoqsiz, qudratli va kuchli bo'lib, biz bilan uzoq jang qilgan taqdirda ham jangovar qizlarimiz dushmanning ko'pgina askarlarini qirib tashlashga muyassar bo'lsa, biz g'olibalarni Zevs mehrobidan olingan gulchambar bilan mukofotlaymiz. Bizlar jangda g'alaba qilib, qudratli va kuchli dushmanni qochishga majbur qilsak, bu ular uchun bir umrlik sharmandalikdir. Chunki ular ayollar tomonidan mag'lubiyatga uchragan bo'ladilar. Ammo ba'zida shunday hollar ham sodir bo'ladi—ki, dushman [y ustimizdan g'alaba qozonadi va biz amazonkalar orollari— mizga mag'lub holda qaytamiz. Ammo bu hoi bosqinchilar mardligi va jasoratining isboti emas. Bizning ustimizdan g'alaba qilish g'oliblarni shon—shuhratga burkamaydi. Hamma: «Ular xotinlar ustidan g'alaba qozonibdi», deb bu [y haqda kinoya bilan gapiradi.

r—

1 Yuqorida amazonkalar faqat bitta orolda yashaydilar deyilgan edi. Ammo matnning davomida bir necha orollar haqida so'z boradi. Hokimi mutlaq, olampanoh shoh! Yaxshilab mulohaza qilib ko'rgin, toki sen bilan ham shunday yuz bermasin. Agar senga joiz bo'lsa, yurtingga qaytib ketgin. Obro'— e'tiboringga yarasha har yili ulushingni jo'natib turamiz. Sendan javob kutamiz. Bizlar tog' cho'qqisidagi harbiy qarorgohimizda jangga shay bo'lib turibmiz!»

Bu nomani o'qigan Aleksandr kulib yuboribdi—da, amazonkalarga quyidagi javobni yo'llabdi:

•Podshoh Aleksandrdan amazonkalarga qizg'in salom— lar bo'lsin! Bizlar hozircha yer yuzining uchala qismini bosib olib, ulardagi barcha podshohlar ustidan g'alaba qozondik. Hozir qo'rqqoqlik qilib yurtingizga bormagan taqdirda ham biz uchun katta sharmandalik bo'ladi. Agar sizlar o'zingiz va yurtingizdagi barcha kishilarning o'limiga tashna bo'lsangiz, unda tog' cho'qqisidagi

qarorgohingizda qolaveringlar. Mabodo tirik qolishni va avvaldagidek o'z yerlaringizda bemalol yashashni istasangiz, bizlarni kuch sinashga majbur qilmasangiz biz tomonga o'tinglar. O'zlaringiz bilan birga erkaklaringizni ham olib, vodiya meni mehmondo'stlik bilan qarshi olinglar. Men ham sizlarning qandayliklaringizga baho beraman. Tuqqan onam haqqi, barcha xudolarning onasi bo'lmish qudratli Gera haqqi, jangovarlik xudosi Afina va buyuk Artemishaqqi qasamyod qilaman—ki, sizlarga yomonlikni ravo ko'rmayman. Bundan tashqari men o'lpon sifatida askarlarimni ta'minlab turish uchun nimani lozim ko'rsan— giz, shuni olaman. O'tliq ayollardan menga xohlaga— ningizcha jo'natsangiz, ularni o'z qo'shinimga qo'shib, har biriga otini va o'zini boqishga ketgan xarajatlardan tashqari oyiga besh dinor to'layman. Mening qo'shinimda bir yillik xizmat burchlarini o'taganlaridan keyin ularni vataniga qaytarib yuboraman, sizlar o'rniga tag'in boshqalarini jo'natasizlar».

Aleksandrning bu nomasini o'qib chiqib, amazonkalar bir-birlari bilan maslahatlashibdilar va quyidagi mazmun— da unga maktub bitibdilar: «Amazonkalarning hukmdorlari va harbiy boshliqlari Aleksandrغا katta salom yo'llaydilar! Biz senga mam— lakatimizga tashrif buyurib, u bilan tanishish huquqini beramiz. Keyin har yili xazinangga ming talant oltin :\\v beramiz. Senga o'lpon eltib beruvchilar bir yil davomida harbiy qarorgohingda qolaversalar ham mayli. Agar ulardan birortasini yigitlaring sevib qolsa, ularning ixtiyoriga o'tib. sening mamlakatingda qolaversinlan Sen bizg'a o'lgan amazonkalarning hiso'oi—yu, <p.ysilarini senja ..... mos kelmaganlari haqida xabar berib tur. Chunki ularning

> o'rniga biz senga boshqa qizlarni jo'nati'o turamiz. Hozirda ham, bundan keyin ham, yaqinmi, uzoqmi, qayerda J—— bo'lmaylik bizlar senga bo'ysunamiz. Chunki sening kuch— . qudrating, jasurliging va qahramonliging, yaxshiliging haqida ko'p eshitganmiz. Sendan boshqa hech kimni hukmdorimiz deb tan olmaymiz! Xudo senga yor bo'lsin!»

Shunday qilib Aleksandr amazonkalar yurtiga borish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlabdi.

Aleksandr amazonkalar yurtiga yetib kelganida Zevs— ning irodasi bilan hamma yoqqa sharros yomg'ir yog'ibdi. Tinimsiz yog'ingarchilik tufayli otlar va boshqa mollarning tuyuqlari irib, barcha egar—jabduqlari yaroqsiz holga kelibdi. Yomg'ir tinganidan keyin esa bizga1 chidab bo'lmas darajada jazirama issiq azob bera boshladi. Chaqmoq chaqib, momaqaldiroq guldirab, shunaqayam gumbur—gumbur bo'ldi—ki, go'yo osmon uzilib yerga tushgandek hamma yoqni shaqir—shuqur ovozlar tutib ketdi. Ko'pgina otliqlar qo'rquv va vahimadan yerga ag'anab tushdilar.

Daryoni kechib o'tganimizdan keyin amazonkalar yurtiga oyoq qo'ydik. Hamma yoqda xuddi Hindiston b mamlakatiga o'xshash ibodatxonalar va mehroblar to'lib— " toshib ketgan ekan.

Sharros yomg'irdan katta zarar ko'rgan bu yurtning odamlari hammasiga Aleksandrning kelgani sabab bo'ldi, deyishdi. Odamlar Aleksandrning oldiga kelib, shunday dedilar: «Ey, marhamatli shoh! Biz senga oltmishta kuchli

' Asar boshida voqealar uchinchi shaxs tomonidan hikoya qilingan. Biroq bir necha jumalardan so'ng hikoya qiluvchi yana shu shaklga o'tadi.

jangovar fillardan va son—sanoqsiz yuk ortilgan aravalardan beramiz, faqat yurtimizdan tezroq chiqib ketsang bo'ldi».

Aleksandr bu o'lponlarni qabul qilibdi. Keyin yo'lga tushibdi. Bir payt qarshisidan besh yuzta o'tliq ayol chiqib oltin to'la qoplarini Aleksandrning oyoqlari ostiga tashlab— di. Shunday qilib amazonkalar yurtiga borib kelgan Aleksandr bu yurtning barcha xudolariga qurbonlik qilishni buyuribdi.

## ALEKSANDRNING O'LIMI HAQIDA FAYLASUFLARNING HIKMATLI SO'ZLARI

Bu haqda Arastu (Aristotel) shunday degan:

– Aleksandr bizning tilli bo'lib ketib, tilsiz bo'lib qaytdi.

Boshqa bir faylasuf:

– Hammamiz bu yo'lni, albatta, bosib o'tamiz. Shuning uchun ham o'tkinchi narsaga emas, abadiylikka intiling, – degan ekan.

Uning suhbatiga uchinchi faylasuf qo'shilibdi:

– Ushbu gapni aytmoqning o'zi kifoya: «Kechagina oltinga to'la xazinalar Aleksandrga tegishli edi, bugun esa Aleksandrning o'zi oltin tobut ichida yotibdi».

To'rtinchi faylasuf:

– Sen birovni quvib yetib, o'ldirganing uchun qancha– lar sevingan bo'lsang, sening qotiling ham seni quvib yetib, o'ldirgani uchun shunchalar sevinmoqda, Aleksandr!

Faylasuf Lotasning hikmatli so'zi:

– Tirikligimizda hech narsaga o'rganmagandan hayron bo'lamiz. Endilikda u o'limi bilan bizlarga saboq beradi.

Oltinchi faylasuf so'z ochibdi:

– Kechagina sening oldingda gapirishga tilimiz ojiz edi, faqat seni tinglar edik. Endi esa sen bizlarni tinglay olasanmi?

Faylasuf Sisinnosning so'zi:

– Bu odam o'zi o'lmasligi uchun juda ko'pchilikni o'tdirgan. Ammo shunga qaramay baribir o'zi ham o'ldi. Har qancha o'limlar ham uni tirik saqlab qololmadi.

Sakkizinchi faylasufning aytganlari:

– Aleksandr tirikligidagi so'zlaridan ko'ra hozirgi sukuti bilan bizga katta saboq berdi.

Faylasuf Demetriy xitobi:

– Qamchisidan qon–u, g'azabidan o'lim nafasi qolgar ey inson! O'Timning o'ziga nega qahr–u g'azabingn: sochmayapsan?

Dono Feliktan debdi:

– O'limga mahkum qilingan bu olamning ustidan qahqaha ursang arziydi.

O'n birinchi faylasufning deganlari:

– Agar o'lim bahona yig'lamoq joiz bo'lsa, unda har kuni yig'lash kerak. Chunki insonlar har kuni o'ladilar!

O'n ikkinchi faylasuf shunday debdi:

– Yaxshilik urug'ini sochishga qurbing yetganida, senga maslahat berish uchun tilim kalimaga kelmas edi. Bugungi kunda men gapira olaman–u, biroq ezgu ishlarni amalga oshirishga sen ojizsan.

O'n uchinchi faylasuf aytganlari:

– Kechagina cho'pon podaning g'amida yurgan eding, bugun esa poda cho'ponning g'amida qayg'urayapti!

Faylasuflar dono va ibratli so'zlarini tugatganlaridan keyin Aleksandrning xotini – Eron va Midiya shohi Doroning qizi Ravshanak o'rnidan turibdi va tobutda yotgan eri Aleksandrning jasadiga engashib, quyidagi so'zlarni aytibdi:

– Podshohi olam! Doroning ustidan g'alaba qozonganingda, sen ham mag'lub bo'larkansan, deb sira o'ylamagan edim!

Keyin Ravshanak faylasuflarga murojaat qilib, shunday debdi:



– Agar aytgan so'zlaringizda Aleksandrning ustidan zarracha kulish bo'lsa, shuni nazarda tutinglar–ki, har birimiz ham bir kun kelib bu qismatdan hech qayoqqa qochib qutulolmaymiz. Agar so'zlaringiz tasalli berish uchun aytilgan bo'lsa, unda yangidan–yangi savol– javoblarga tayyorgarlik ko'ringlar.

Aleksandr o'n olti yoshida taxtga o'tirgan edi. Podshohligining o'n oltinchi yilida Bobilda haram og'alari. bergan zahardan halok bo'ldi. Aleksandrning jasadini buyuk Aleksandriya shahriga olib kelib, shu yerda tuproqqa topshirdilar.

## **MASALLAR**

### **DONISHMAND YUSUF VA PODSHOH NAVUXODONOSOR**

Aytishlaricha, bir kun Yusuf va uning o'rtoqlari barcha donishmandlar bilan birgalikda podshoh Navuxodonosor taxti atrofida to'planishibdi. Yusuf nazokatli va nafis til bilan har xil masallar aytib, g'aroyib suhbatlar qilibdi. Yusufning odobliligi va xushhulqligi, so'zlaridan bol tomishi, o'zini tuta bilishiga podshoh juda qoyil qolibdi. Podshohning unga nisbatan ixlosi ortib, barcha donishmandlar va faylasuflarni o'zidan chetlash– tiribdi. Yusufga cheksiz mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatibdi, uni mamlakatdagi barcha donishmandlar va faylasuflar ustidan boshliq qilib qo'yibdi.

Ammo podshoh zimdan mulozimlariga Yusufning joniga tegib, ranjitib, bo'lar–bo'tmasga uni kalaka qilinglar, deb buyuribdi. Chunki podshoh Yusuf g'azablangan paytda ham, quvonchli daqiqalarda ham o'zini–o'zi boshqara oladimi, sovuqqonlik bilan hamma qiyinchilik– larga dosh bera oladimi, shu xususiyatlarini sinamoqchi bo'libdi. Axir inson xotirjam va osoyishta bo'lgan paytlarda unga haqiqiy bahosini berish juda qiyin ish–da. Barcha xafagarchiliklarni sovuqqonlik va sabr–toqat bilan yenggandagina, kishi aqlli va dono hisoblanadi.

Shunday qilib podshoh mulozimlari Yusufni mayna qilib, ustidan kulib, har xil bemaza qiliqlari bilan uni ranjitishga harakat qilibdilar. Ammo Yusufning sira jahli chiqmay, o'zini xotirjam tutibdi. Mulozimlar avvalgisidan ham beshbattarroq qo'rslik qila boshlabdilar. Yusuf oradan ancha vaqt o'tgandan keyingina ularning qilmishlari yomon niyatda qilinayotganligini fahmlab qolibdi. Shunga qaramay mulozimlar yog'dirgan zaharxanda gaplar Yusufning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketar, ular bilan tortishib o'tirmas, yomon qiliqlaringni tashla, deb tanbeh bermas, faqat dilozorlardan teskari o'girilib ketarkan.

Oradan bir oz vaqt o'tgach, podshoh xizmatkorlari qilgan ishlaridan pushaymon bo'lib, vijdon azobidan qiynala boshlabdilar. Bo'lib o'tgan voqealarni podshohga aytib beribdilar. Podshoh Yusufni huzuriga chaqirtirib, shunday debdi:

– Seni yuqori martabaga ko'tarib, o'zimga vazir qilib tayinlasam nima deysan?

Yusuf esa:

– Bundan menga nima foyda? – debdi.

– Marta bang ulug', ishing obro'li, o'zing esa hashamatli liboslarga burkanib yurasan, – debdi podshoh Navuxo– donosor.

Ammo Yusuf podshohga e'tiroz bildiribdi:



– Donishmandlar aytadilar–ki, insonni go'zal qiladigan narsa hashamatli va chiroyli liboslar emas, balki donishmandlik, adolatparvarlik, taqvodorlik va yaxshi xislatlikdir. Boshqa hamma narsalar buzilib, o'z go'zalligini yo'qotganida ham bu yaxshi xislatlar insonni so'nggi nafasigacha tark etmaydi.

Podshoh so'zida davom etibdi:

– Hoy donishmand! Bu xislatlaringdan kechgil! Buning uchun men senga barcha oltin–kumushlarimni beraman. Sen ulardan ixtiyoringcha foydalanishing mumkin.

Yusuf aytibdi:

– Agar xudoning irodasiga qarshi borib, pul bema'ni– larcha sarflansa, har qanday kuch qudratini yo'qotadi. Bundan chiqdi–ki, donishmandlik, bilimdonlik va muloha– zakorlik oltin va kumushdan ham mustahkamroq ekan.

Podshoh yana Yusufga debdi:

– Hoy Yusuf, sen aytayotgan ajoyib xislatlarga bo'lgan ixlosimni yanada orttirding. Nazokatli so'zlaring, gapirish ohangingni ko'rgach, mutlaqo senga maftun bo'ldim. Endi sendan ayrilgim yo'q. Mol–u mulkimning borini, menga qaram mamlakatlarni, qo'shinlarimni, xullas, xohlaganing– ni so'ra! Sendan faqat bir narsani so'rayman xolos: qiziq– qiziq rivoyatlar–u, masallaringdan aytib ber. Dono va aqlli suhbatlaringni tinglab lazzatlanayin.

Podshohning bu so'zlariga Yusuf quyidagicha javob beribdi:

– Yolg'iz xudoga, yana senga bo'ysunish va itoat etish mening burchimdir, podshohi olam! Sening xohishingni bosh ustiga bajaraman. Agar hikoyatlarim senga ma'qul bo'lsa, ularni ketma–ket naql qilib, sening ko'nglingni xush etgumdir, shohim!

Yusufning gaplaridan Navuxodonosor sevinib ketibdi va uni yoniga o'tirg'izib, masal aytishni boshlagan, deb ishora qilibdi.

## ILOJI YO'Q NARSANI ORZU QILMA

Yusuf podshohga birinchi bo'lib quyidagilarni aytib beribdi:

– Ey podshoh hazratlari! Donishmandlar aytadilar– ki, mulohazali odam ko'zga tushgan va ko'ngli yoqtirgan narsalarga egalik qilishga, tabiatiga xos bo'lmagan narsalarga intilishi lozim emas. Shuning uchun ham odamzod tez–tez tiyilmagan ehtiroslari tufayli halokatga mahkum bo'ladi. Shunaqa odamlar bilan oxir–oqibat bulbulning ovozigga mahliyo bo'lgan eshak hodisasi ro'y bersa kerak.

– U qanday hodisa ekan? – deb so'rabdi podshoh.

Yusuf so'zida davom etibdi:

## ESHAK BILAN BULBUL

Donishmandlarning hikoya qilishlaricha, bir kuni tongda eshak zavq–shavq bilan kuylayotgan bulbulning tovushiga maftun bo'lib qolibdi. Borib bulbuldan so'rabdi:

– Hoy, og'ayni! Bugun nima ovqat yegan eding? Ovozing bunchalik shirali–ya!

– Bugungi nonushtam shudring va havodan iborat bo'ldi, – deb javob beribdi bulbul.

Eshak ham bulbulga o'xshab shirali xushovozga ega o'lish uchun ko'proq shudring va havo yutaman, deb og'zini katta ochib qo'yibdi. Boshqa xil yemishlarning baridan voz kechibdi–yu, harom o'lib qolibdi.

Qissadan hissa shuki, inson tabiatiga mos bo'lmagan narsaga intilishi kerak emas.

### PODSHOHNING TOPSHIRIG'I

Bir kuni Yusufni ikkala do'sti birga ovqatlanishga taklif qilibdi. Dasturxon atrofida ikkalovi ham uni rosa haqorat qilishibdi.

Ertasiga do'stlari kechirim so'rab, Yusufning huzuriga kelishibdi, bo'lib o'tgan noxushliklardan pushaymon ekanliklariga, hozir bu haqida mutlaqo boshqacha o'ylayotganliklariga iqrar bo'lishibdi. Do'stlari tag'in Yusufni tushlikka taklif qilibdilar. Yusuf borishga va'da beribdi va ketidan shuni ham qo'shib qo'yibdi:

– Mabodo kechikib qolsam, gina–kudurat qilib yurmanglar. Gap shundaki, podshohimiz bir qora tanli habashni oq tanli insonga aylantirib ber, deganlar. Shu yumushni bajarmagunimcha sizlarnikiga kelol– mayman.

– Voy, habashlarning terisi rangini ham o'zgartirib bo'larkanmi? – deb hayron bo'lishibdi uning do'stlari.

– Bu ish ham xuddi diyonatsiz kishini taqvodor kishiga aylantirishdek bir gap, – deb javob qilibdi Yusuf.

Insondagi yomon xislatlar undagi bor yaxshi xislatlarni ham yo'q qilib yuboradi.

### ODAMZOD BILAN OQQUSH

Insonni oqqush bilan qiyoslaganimizda, odamzodning qismatiga faqat kulfat bitilganiga yana bir karra iqrar bo'lamiz.

Chaqaloq yorug' dunyo yuzini ko'rayotib, achchiq– achchiq big'illab yig'laydi. Oqqush esa o'limi oldidan qichqirib qo'shiq kuylaydi va bu g'am–kulfatga qarshi nafratini bildiradi.

Bu qiyoslashdan shunday xulosa chiqarish mumkin– ki, odamzod avlodlarining qismati achinarli ekan.

### ODAMZOD VA O'LIM

Bir kishi orqalab ketayotgan bir bog'lam o'tinning og'irligidan qattiq azob chekib borayotgan ekan. Bechora mutlaqo holdan toyganidan yukini oldiga qo'yib, o'ziga o'lim tilay boshlabdi:

– Yo, Azroil! Kelib jonimni olsang–chi! Azroil ham bir pasda hozir–u nozir bo'libdi:

– Meni nimaga chaqirding, hoy inson? Odamzod unga qarab:

– Menga yordam berib, manovi bir bog'lam o'tinni yelkamga orqalatib yubor, deb chaqirgan edim, – debdi.

Hayotimiz qanchalik og'ir bo'lmasin, biz odamlar o'limdan ko'ra qiynalib bo'lsa ham yashashni afzal ko'ramiz!

### GO'ZALLIK VA SOG'LIK HAQIDA

Qaldirg'och bilan qarg'a go'zallik haqida bahslashib qolishibdi:

– Sening go'zalliging faqat nisona paytida yaxshi, – debdi qarg'a qaldirg'ochga, – ammo qish payti sovuqqa dosh berolmasdan, azob chekasan. Men esa moslashib ketganman, sovuqdan sirayam qo'rqmayman.

Sog'lik go'zallikdan yaxshi, deb qaldirg'och iqrar bo'libdi.

### LATCHA VA EGOV

Latcha temirchining do'koniga kirib, u yerdan bir temir egov topib olibdi. Avvaliga latcha uni yalay boshlabdi. Egov tilini kesib, hamma yog'i qonga bo'yalibdi. Qon tomirdan oqyapti, deb latcha sevinib ketibdida, g'ayrat bilan temir egovni jon–jahdi bilan yalayveribdi. Oqibatda latcha tilidan ajrabdi.

Qissadan hissa shuki, o'jarlar qilayotgan ishlari xato bo'lsa ham bor–budlaridan mutlaqo mahrum bo'lma– guncha qaysar bo'lib qolaveradilar.

## IKKI XO'ROZ

Ikkita xo'roz urishib qolibdi. Mag'lub bo'lgani ovloqroq yerga yashirinibdi. G'olib chiqqani esa baland tomga uchib chiqibdi—da kerilib, ovozinig boricha «ku—ku—ku»lab, tevarak—atrofga jar solibdi.

Maqtanchoq xo'rozga burgutning ko'zi tushib qolibdi. U torn ustiga o'qdek otilib sho'ng'ibdi—yu, qanoti bilan xo'rozni bir urib, panjalarida mahkam siqqanicha osmonga 'uchib ketibdi.

Shuning uchun ham ushbu masal kishini kamtar bo'lishga o'rgatadi. Hadeb o'z—o'zini maqtab, kuchim ko'p deb kerilaverishning oqibati shunday tugaydi.

## KAPTAR VA SUV

Bir kaptar tashnalik azobidan qiynalib suv izlab yurgan ekan. To'satdan suvli tog'ora tasviri tushirilgan devorga ko'zi tushib qolibdi. Bechora shosha—pisha tog'oradan suv ichmoqchi bo'lib, devor yoniga uchib kelibdi. Tasvirdagi tog'oradan suv ichaman, deb dam—badam devorga zarb bilan urilaverib, o'lar holiga tushibdi. OTayotib, kaptar shunday debdi:

«Eh, shayton mani yo'ldan ozdirdi! Nima uchun boshqa hovuz va daryolarda ham suv borligini eslamadim?»

Qissadan hissa shulki, shoshqaloqlik bilan qilingan ishdan foyda yo'q, faqat ehtiyot choralarigina yaxshi samara beradi.

## QARG'A VA CHO'PON

Bir kuni qarg'a poda ichidan qo'zichoqni ko'tarib ketayotgan burgutni ko'rib qolibdi. Qarg'a ham bir semizroq qo'yni tanlab, o'qdek pastga otilibdi—yu, panjalarini uning junlariga botiribdi. Biroq qarg'a qo'yni osmonga ko'tarib uchish u yoqda tursin, hatto panjalarini ham jun orasidan sug'urib ololmabdi. Yetib kelgan cho'pon qanotli yirtqichni tayog'i bilan bir urib o'ldirib qo'yibdi.

Uzoqni ko'rolmagan bir xil kishilar o'zlaridan kuchliroq bo'lganlarga tenglashmoqchi bo'ladilar. Bunaqa bema'ni intilish ular uchun nafaqat azob—uqubat manbai, balki tez—tez halokatga eltuvchi yo'l hamdir. Yuqoridagi masal voqeasi aniq isbotidir.

## QUYON VA TULKI

Chanqab kelayotgan quyon chuqur quduqqa tushib suv ichmoqchi bo'libdi. Tashnaligini qondiribdi—yu, ammo quduqdan chiqolmay, xafa bo'lib o'tiribdi.

Bir payt tulki kelib qolibdi. Quduq tubida o'tirgan quyonni ko'rib, shunday debdi:

— O'ylamay ish qilibsan, og'ayni! Quduqqa tushishdan avval undan qanday qilib chiqish yo'lini o'ylash kerak edi.

Qissadan hissa shuki, har bir bosgan qadamingning oqibati nima bilan tugashini yaxshilab o'ylab, keyin shunga yarasha harakat qil.

## HO'KIZ VA ONA ARSLON

Bir kuni ho'kiz uxlab yotgan sherbachchani ko'rib qolibdi—da, yotgan joyida shoxlab o'ldirib, o'zi qochib ketibdi. Ona arslon bolasining jasadini ko'rib, uzoq qayg'uribdi. Yig'lay—yig'lay ho'kizni rosa qarg'abdi. Ona arslonga ko'zi tushgan to'ng'iz shunday debdi:

— Agarda sening sherbachchang kattakon arslonga aylanib, boshqa hayvonlarni o'ldirib yeyaverganida senga o'xshab qanchadan—qancha onalar yig'lashi mumkinligini hech o'ylab ko'rdingmi?

'Ba'zi odamlar ham o'zlaridagi yomon xislatlarni sezmaydilar, boshqalarga yomon xususiyatlari uchun tanbeh berishni yaxshi ko'radilar.

## UCH ILON

Bir kishi jon–jahdi bilan olishayotgan ikkita ilonni ko'rib qolibdi. Ularni uzoqdan kuzata turib, jangga kirishga tayyorlanib kelayotgan uchinchi ilonni ham sezib qolibdi. «Ko'rinishidan bu ilon ham anavi ikkalasidan qolishmaydi. Bo'lmasa bu yerga o'rmalab kelmasdi», deb o'ylabdi haligi kishi.

Yomon odam doimo o'ziga o'xshaganlarni topadi–da!

## GO'NGQO'NG'IZ VA ASALARI

Go'ngqo'ng'iz bir kuni asal olib borayotgan asalarini ko'rib qolibdi. «Meni ham o'zingga yordamchi qilib ol», deb undan iltimos qilibdi. Asalari rozi bo'libdi. Ammo– go'ngqo'ng'iz asal keltirmayotganini ko'rgan asalari uni chaqib o'ldiribdi. O'layotib go'ngqo'ng'iz shunday debdi: «Men kabi ahmoqning jazosi shu! Qo'limdan kelmagan ishga burnimni tiqib nima qilardim? Asal berolmasam, asalari uyasiga nimaga bosh suqdim».

Qissadan hissa shulkim, qo'lingdan kelmagan ishga hech qachon qo'l urma.

## CHO'PON VA BO'RI

Bir kuni cho'pon poda orasiga kirib, ko'pgina qo'ylarni bo'g'izlab tashlagan bo'rini ko'ribdi. Yirtqich kuchli bo'lganidan itlar uni bir yoqli qilisholmabdi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, cho'pon o'sha bo'rini qopqonga tushirib, unga qarshi itlarini olqishlabdi. Itlar yirtqichni tilka–pora qilayotganlarida, cho'pon aytarmish: «Hoy yirtqichlarning yovuzi! Awalgi kuch–qudrating hozir qayoqqa ketdi? Hatto itlarga ham qarshilik ko'rsata olmay qolding?»

Qissadan hissa shulki, har kim ham ma'lum bir shart–sharoitdagina o'z kuchini ko'rsata oladi.

## IKKI ILTIJO

Bir cho'ponning qo'yi yo'qolib qolibdi. U xudoga iltijo qilib, agar qo'yim topilsa, qurbonlikka keltiraman, deb .qasam ichibdi va qo'yini izlab ketibdi. Ammo bir ^ maydondan sip–silliq g'ajilgan qo'y suyaklarini topib""^v olibdi: qo'yni arslon yeb ketgan ekan. Buni ko'rgan cho'pon ko'kka qarab shunday debdi:

«Ey xudo! Agar men shu arslonning panjasidan o'z hayotimni saqlab qololsam, senga boshqa bir qo'yni qurbonlikka keltiraman!»

Qissadan hissa shuki, o'lim changalidan qutulish uchun odamzod bor budidan ham ajralishga rozi.

## ARSLON VA HO'KIZLAR

Bir arslon ikkita ho'kiz bilan olisha ketibdi. Ho'kizlar –ahillik bilan harakat qilganliklari uchun ham arslon faqat ularning shoxlariga duch kelib, g'animlarini yenga olmabdi.

Shunda arslon ayyorlik bilan ularni yengish uchun, biroviga yaqinlashib, sekingina: «Agar sherigingni himoya qilmasang, senga hech narsa qilmayman», debdi. Ho'kiz arslonning va'dasiga ishonibdi. Arslon esa bamaylixotir avval birovini, keyin ikkinchisini tinchitibdi.

Agar mamlakatlar hamjihatlik bilan ish qilsalar, dushman yurtlariga bostirib kirolmaydi. Mabodo bir– birlari bilan kelishmasalar, albatta, mag'lubiyatga uchrab, halok bo'ladilar.

## BUG'U VA OVCHILAR

Bir kuni chanqab ketgan bug'u suv ichish uchun buloq boshiga tushibdi. Suvda o'z aksiga ko'zi tushibdi. Oyoqlari juda ingichka va xunukligidan qattiq xafa bo'lsa, kattakon burama shoxlari borligidan g'oyatda sevinibdi.

To'satdan ovchilar bug'uga hujum qilib qolibdilar. U qocha boshlabdi. Bug'u tekis daladan yugurayot– ganida ovchilar unga yetolmabdilar. Biroq qalin o'rmonzorga burilib kirganida burama shoxlari daraxtlarga ilashib qolibdi. Ovchilar bug'uni tutib olib, o'ldiribdilar.

yugurayotib bug'u shunday dermish: «Sho'rim qursin! Oyoqlarim ingichka va xunuk deb xafa bo'lgan edim. Ammo ular meni o'limdan saqlab qolishdi. Burama va kattakon shoxlarimdan mag'rurlangan edim, ular meni halok qildi!»

90 ItQissadan hissa shulkim, go'zal bo'lib ko'ringan narsa emas, balki hayotimizning eng og'ir damlarida bizni qutqaradigan narsalargina maqtovg'a loyiqdir.

#### IT VA TEMIRCHI

Bir temirchining iti bor edi. Egasi ishlaydigan payti iti uxlar ekan—u, biroq temirchi tushlik yoki kechki ovqatni yeyish uchun dasturxon atrofiga borishi bilan uyg'onib ketarkan—da, u ham yoniga borib olarkan. Buni sezgan egasi: «Hoy, yaramas it! Nima uchun ovozi yerni titratadigan bosqon zarbasidan uyg'onib ketmaysan—u, og'zimni sal qimirlatishim bilan dasturxon atrofida hozir—u nozir bo'lasan».

Shunday odamlar borki, faqat o'zlariga foydali bo'lgan narsalarni eshitib, tinglashadi. Ammo boshqalar uchun biror foydali bo'lgan ish haqida gap ketsa, ular bir pasda kar va gung bo'lib qolaclilar.

#### TULKI VA ARSLON

Tuzoqqa tushib qolgan arslonni ko'rib, tulki baqirib— chaqirib uni haqorat qila boshlabdi. Arslon unga debdi:

– Bunday kulfat boshimga tushmaganda edi, sen meni hech qachon haqorat qilolmagan bo'larding.

Arzimagan nufuzsiz odamlar bu dunyoning ulug' zotlari baxtsizlikka uchragan taqdirlarida ularni haqoratlashdan sevinadilar.

#### ITLAR VA ARSLON TERISI

Bir kuni itlar arslon terisini topib olibdilar. Qutur— ganlaricha teriga tashlanib, uni burda—burda qilib tashlabdilar. Buni kuzatib turgan tulki shunday debdi: «Agar bu tirik arslon bo'lganida bormi, o'zlaringizning tishlaringizdan ham ko'ra, uning panjalarining kuch— qudratini bilib qo'ygan bo'lardingiz».

Bu maqol buyuk zotlar avvalgi kuch—qudratlarini yo'qotganlarida ularga nisbatan nafrat bilan qarovchi kimsalarga qarata aytilgandir.

#### KASAL BUG'U

Bir bug'u kasal bo'lib, tog'dan pastga — vodiya yiqilib tushibdi. Ammo hamjinslari kasalni nochorlikda qoldirmay ahvolidan tez—tez xabarlashib turishibdi. Biroq ular har safar bug'uning oldiga kelganlarida vodiya o'sib yotgan o't—o'lanlarni yeb bitiribdilar. Bug'u tuzalib, oyoqqa turgach, o't—o'lan topolmay, ochlikdan o'lib qolibdi.

Birovga hamdardlik bildirish uchun kelayotgan odamlarning ko'pchiligi foydadan ko'ra bemorga ko'proq zarar keltirgani rost emasmi?!

#### NOO'RIN TANBEH

Bir yigitcha daryoning o'rtasiga suzib borib, to'satdan cho'ka boshlabdi. Tobora holsizlana borayotgan yigitcha daryo qirg'og'i bo'ylab ketayotgan yo'lovchini yordamga chaqira boshlabdi. Cho'kayotganga yordam berish o'rniga haligi kishi tanbeh bera boshlabdi:

– Suzishni bilmas ekansan, nima uchun suvga kirding?

Yigitcha javob beribdi:

– Avval menga yordamlashib yubor, keyin pand— nasihat qilarsan.

Boshiga kulfat tushgan odamga avval yordam berib, keyin nasihat qil!

### OVCHI VA IT

Bir ovchi egasini yo'qotib, dalada izg'ib yurgan itni ko'rib qolibdi. Uni egasining oldiga olib borish o'rniga oldiga katta non bo'laklarini tashlay boshlabdi. It ovchiga debdi:

– Mendan nari qoch, menga qilayotgan g'amxo'rli– gingdan vahimaga tushib ketayapman.

Me'yoridan ortiq g'amxo'rlik ko'rsatgan kishilar. odamlarda ishonch tug'dirmasligi allaqachon ma'lum va ravshan.

### QUYONLAR VA TULKILAR

Burgutlar bilan olishayotgan quyonlar tulkilarni yordamga chaqirishibdi. Tulkilar ularga javoban shunday deyishibdi:

– Agar biz sizlarning kim ekanligingizni va kimlar bilan olishayotganliklaringizni bilmasak edi, jon–jon deb yordamga borgan bo'lardik. Ammo burgutlarga qarshi quyonlarga yordam qilish – bu o'ta ahmoqlikdir.

Qissadan hissa shulkim, kuching yetmagan bilan yakkama–yakka jangga kirishmagin.

### ARSLON VA SICHQON

Quyosh kuchliroq qizdira boshlagan kunlarning birida arslon salqin soyada dam olish uchun g'or ichiga kiribdi. U yerda bor bo'yiga cho'zilib yotgan ekan, shu payt sichqon ustidan sakrab o'tibdi.

Bu holatdan noxush bo'lgan arslon o'rnidan turib, atrofga xavfsirab qarab qo'yibdi. Arslonga ko'zi tushgan tulki uni masxara qila boshlabdi. Ammo arslon unga shunday debdi:

– Men sichqondan qo'rqqanim yo'q. Faqat qandaydir bir o'jizgina sichqoncha men – hayvonlar shohining ustidan sakrab o'tishga haddi siqqaniga hech ham chiday olmayapman!

Kuchlilar va mashhur kishilar uchun kinoya va haqoratlar o'limdan ham achchiqdir.

### OVCHILAR, ARSLON VA SICHQON

Bir kuni ovchilarning to'riga arslon ilinib qolibdi. Sichqon kelib to'rni kemiribdi. Shunday qilib arslon tuzoqdan qutulib qolibdi.

«Hammadan nafratlanish kerak emas va hech qachon umidsizlikka ham tushmaslik kerak. Mittigina va o'jizgina' sichqoncha tufayli men – kattakon arslon ovchining to'ridan qutuldim», deb o'ylabdi arslon.

Qissadan hissa shuki, buyuk zotlar ko'pincha ko'zga tashlanmaydigan kichkina odamlar yordami bilangina kulfatlardan xalos bo'ladilar.

### ARSLON VA HO'KIZ

Bir kuni arslon mazza qilib ho'kiz go'shti yemoqchi bo'libdi–yu, biroq uni yengishga kuchi yetmabdi. Shunda arslon ayyoriik ishlatibdi, ho'kizni uyiga taklif qilibdi:

– Qo'y so'ydim, kelsang, birgalikda ovqatlanamiz. Ho'kiz ishonib arslonning uyiga boribdi. Biroq katta–

katta doshqozonlar–u, to'plab qo'yilgan o'tinlarga ko'zi tushib, orqasiga qaytibdi. Uzoqlashayotgan ho'kizdan arslon so'rabdi:

– Nima uchun qaytib ketayapsan?

– Ko'rganlarimdan shu narsa ma'lum boidi–ki, sen qo'y emas, ho'kiz go'shti qovurmoqchisan shekilli, – deb javob qilibdi ho'kiz.

Qissadan hissa shuki, hech qachon dushmaningga ishonma.

### OVCHI VA KAKLIK

Bir ovchi kaklik tutib olibdi. Uni o'ldirmoqchi bo'lgan ekan, kaklik: «Meni ozodlikka qo'yib yubor, – deb yalinibdi. – Agar meni tirik qoldirsang, evaziga to'ringga juda ko'p kakliklarni ilintirib beraman», debdi. Ovchi kaklikni qo'yib yuborishga moyil bo'lib turgan ekan, ammo uning bu gaplarini eshitgach g'azablanib, shartta o'ldiribdi.

Kim–ki senga xushomadgo'ylik qilib, o'z do'stlariga xiyonat qilmoqchi bo'lsa, undaylardan o'zingni chetga ol!

#### ODAM VA TOVUQ

Bir odamning har kuni tilla tuxum tug'adigan tovug'i or ekan. Ammo ochko'z egasi bunga qanoat qilmabdi. Bir kuni u tovuqni tutib olib, ichida rosa xazina bo'lsa kerak, deb so'yibdi. Ammo tovuqning ichida ichak–chavoqlaridan boshqa narsa yo'q ekan. Haligi odam qilmishidan afsuslanib, shunday debdi:

– Katta foydaning ketidan quvib, boridan ham ajra– dim.

Qissadan hissa shuki, kim–ki haddan oshiq badnafs bo'lib, boriga qanoat qilmasa, bor narsasidan ham ajraladi.

#### IT VA GO'SHT

It qassobning do'konidan bir bo'lak mol go'shtini olib qochibdi. Daryo bo'yiga yetib kelgach, suvdagi o'z aksiga ko'zi tushibdi. Suvdagi it o'zidan ham kattaroq go'sht bo'lagini tishlab turgandek tuyulibdi. Og'zidagi go'shtni tashlab, suvdagi itga tashlanibdi. Shu vaqt bir qarg'a uchib kelib, yerdagi go'shtni ilib qochibdi.

Xatosini tushungan it qaytib joyiga kelsa, o'z go'shti ham yo'q emish. Shundagina it: «Kattakon go'sht bo'lagining ketidan quvib, o'zimdagi boridan ham ajraldim», deb o'ylabdi.

Ochko'z odamlarning qismati shunday tugaydi.

#### ESHAK VA OT

Bir kishining eshagi va oti bor ekan. Ikkovlarining turmush tarzi ikki xil ekan. Ot har kuni birorta ham yumushni bajarmasdan otxonada boyloqlik turar, uni yaxshi ovqatlantirishar, yellarini tarab–siypab har kuni yuvintirar ekanlar. Eshak bo'lsa, g'ii'a–shira sahardan tortib, oqshom qorong'isigacha o'lgudek ishlar, buning ustiga egasi unga sira g'amxo'rlik qilmas ekan. Zamonaning zayli bilan urush boshlanibdi. Xo'jayin otga minib, jang qilgani ketibdi. Ot yaralanib halok bo'libdi. Buni eshitgan eshak:

– Doimo otga hasadim kelib yurar edi. Unikidan ko'ra ening qismatim yaxshiroq ekan, – debdi. Bir xil mashhur kishilarning baxti va osoyishi xayoliy" \* bo'ladi. Haqiqatda esa payti kelib oddiy kishiga baxt ko'proq kulib boqadi.

#### IKKITA ESHAK

Yovvoyi eshak tutqunlikda yashaydigan hamjinsga mensimaslik bilan qarab, doimo uni haqoratlar ekan.

«Me'n ozod qushdekman, – deb maqtanarmish u, – kun bo'yi tog'–u toshda kezib yuraman. Yangi o'sgan, yumshoq maysalardan to'ygunimcha yeyman. Ovqatimni mehnatsiz ham topaman, charchoq' nima ekanligini bilmayman. Seni esa har kuni urib, ishlatadilar».

Yovvoyi eshak. gapini tugatishi bilanoq lip etib" qayerdandir bir arslon kelib qolibdi. Yonidagi xo'jayini turgani uchun uy eshagining oldiga bormasdan, yovvoyi eshakni turgan yerida tilka–pora qilib tashlabdi.

Qissadan hissa shuki, boy va mashhur bo'lsang ham boqi–beg'am bo'lib maqtanma, kambag'alga tanbeh berib, haqorat qilma.

#### BOLA VA CHAYON

Bir bola shahar devori orqasidan chigirtka tutib olibdi. Oradan bir oz vaqt o'tgach chayonga ko'zi tushib qolibdi va uni ham tutib olmoqchi bo'libdi. AramO chayon bolani chaqib olib, shunday debdi:

– Sen go'yoki meni tutib olgandek bo'lding, ammo o'zingdagi boridan ham ajralding, ya'ni qo'lingni endi harakatga keltirolmaysan.

Turmushdagi turli xil sharoitlarda faqat bir xil usulni qo'llab yashash mumkin emas.



### CHUMOLI BILAN NINACHI

Chumoli qishda yozda jamlagan bug'doy donlari bilan ovqatlanar ekan. Bir kuni unga ninachi murojaat qilib, yegulik biror narsa berib tur, debdi. Chumoli ninachidan so'rabdi:

- Yozda qayerda eding? Qishga oziq–ovqatni nima uchun tayyorlab qo'ymading?
- Bunga sirayam vaqtim bo'lmadi, – deb javob beribdi ninachi, – axir yoz bo'yi qo'shiq aytishdan bo'shamadim–da.

Buni eshitib chumoli kulib yuboribdi–da, bug'doy donlarini omboriga yashiribdi. Keyin ninachiga qarab shunday debdi:

- Yoz bo'yi qo'shiq aytgan bo'lsang, qish bo'yi raqsga tush.
- Hayotda yengil–yelpi o'ylaydiganlarga qarata aytilgan masal bu. Bunday odamlarda kerakli va zarur narsalar hech qachon topilmaydi.

### ECHKI BILAN BO'RI

Bir echki baland jarlik yoqasida o'tlab yurgan ekan. Unga bo'rining ko'zi tushib qolibdi, echkini yemoqchi bo'libdi, biroq yoniga borishga qo'rqibdi. Bo'ri echkiga:

- Hay bechora! Nima uchun shunday ajoyib o'tlog'–u vodiyni tashlab, baland bir jarlik yoqasiga chiqib ketding? Xudo ko'rsatmasin, mabodo bir kor–hol yuz berib, jarlikka qulab ketsang, halok bo'lishing tayin–ku, – debdi.

Echki bo'riga javob beribdi:

- Nahotki sen o'zingdan ham ko'ra men haqimda shunchalar ko'p qayg'ursang? Agar vodiya tushsam, senga yem bo'lishimni juda yaxshi bilaman!

Hayotda shunday do'stlar bor–ki, sen uchun foydali bo'lgan narsalarni emas, balki o'zlari uchun foydali bo'lgan ishlarni ko'zlaydilar.

### BO'RI BILAN ARSLON

Bo'ri qo'zichoqni tutib olibdi. Yo'lda ketayotsa, oldidan arslon chiqib, o'ljani tortib olibdi. Qo'zichoqdan ajralgan bo'ri sekingina:

- Menga tegishli o'ljani tortib olishing juda g'alati– ya, – debdi.
- O'g'irlik bilan qo'lga kiritilgan narsadan ajralganing– dan afsus qilma, – debdi arslon.

Qissadan hissa shuki, o'g'irlik bilan qo'lga kiritilgan narsa bosqinchining qo'lida uzoq vaqt saqlanib qolinmaydi. Bosqinchining o'zi tez–tez «o'g'rini qaroqchi urdi» qabilidagi holatga tushib qoladi.

### TIPRATIKAN VA QUYON

Bir kuni tipratikan va quyon kimo'zarga musoba– qalashib qolibdi. Tog' etagigacha yugurib borishga qaror qilibdilar. Quyon chopqirligiga ishonib, tez–tez dam olibdi. Hatto yo'lda tizzalarini bukib, bir oz mizg'ib olibdi. Tiprati-kan o'zining beso'naqayroq va imildoq ekanligini bilib, tinimsiz oldinga qarab ketaveribdi. Quyon kun bo'yi uxlabdi. Tipratikan esa uzzukun yo'l yurib, marraga birin– chi bo'lib yetib kelibdi.

Tirishqoqlik va qunt bilan maqsad tomon intilganlar kunini bekordan–bekorga havoga sovuradiganlardan ko'ra ko'proq muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin.

### SICHQONLAR BILAN MUSHUKLAR

Sichqonlar mushuklar ta'qibidan qiynalib ketibdilar. Boshlariga tushgan musibatlarning barchasiga asosiy sababchi – boshlig'imizning yo'qligidir, degan qarorga kelibdilar. Va o'zlariga boshliqlar saylabdilar. Hamma ularning boshliq ekanligini bilsin, degan maqsadda boshlariga tilla shoxchalar kiydirib qo'yishibdi.

Bir kuni mushuklar sichqonlarga hujum qilibdilar. Oddiy sichqonlar bir pasda inlariga yashirinibdilar va qutulib qolibdilar. Boshliq sichqonlarning ahvollariga maymunlar yig'labdi,

chunki tilla shoxchalar o'z vaqtida bekinishga halaqit beribdi. Mushuklar ularni osongina tutib olib, bir pasda yeb qo'yishibdi.

Tabiiy bo'lmagan jamiki narsa odamlarga zarar keltiradi va tez-tez ularning halokatiga sababchi bo'ladi.

#### MUSHUK VA XO'ROZLAR

Xo'rozlar kasalligini bilib qolgan mushuk tovuş patlari bilan yasanib, ularni ko'rgani boribdi. Yasan-tusan qilib olgan mushuk xo'rozlarga:

- Ahvollaringiz qanday, yaxshimisizlar? – deb so'rabdi.
- Koshkiydi bizdan hol-ahvol so'ramasang, basharangni ko'rishga toqatimiz yo'q, – deb javob beribdi xo'rozlar.

Sirtidan hamdardlik bildirgani bilan makkorlik va munofiqlik bir xil kishilarning ichida bo'ladi.

#### BUG'U BILAN ARSLON

Uni tiriklayin tutmoqchi bo'lgan ovchilardan qochayo– tib bug'u bir g'orning ichiga kirib ketibdi. Ammo orqasidan sapchib arslon kiribdi–yu, bug'uni tilka-pora qilib tashlabdi. OTayotib bug'u shularni xayolidan o't– kazibdi: «Niyatlari o'ldirish bo'lmasa ham orqamdan quvib kelayotgan ovchilardan jonim boricha qochdim. Ammo ulardan qochib o'zimni–o'zim bundan ham beshafqatroq yirtqichning panjasiga topshirdim».

Shunday paytlar ham bo'ladi–ki, odamzod arzimagan mayda–chuyda xafagarchilikdan qochaman deb, o'ziga– o'zi kattadan–katta kulfatlar orttiradi.

#### MAQTANCHOQ HO'KIZ

Bir ho'kiz o'z kuchi bilan shunchalar kerilar ekan–ki, har doim yakka o'zi podadan ajralib o'tlab yurarkan. O'zidan kichkinaroq va ojizroq bo'lgan boshqa ho'kizlar bilan ahil bo'lib yurishni o'ziga or deb bilar ekan.

Bir kuni odati bo'yicha yolg'iz o'tlab yurgan ekan, arslonga ko'zi tushib qolibdi. Ho'kizning yolg'iz ekanligini, mabodo biror kor-hol yuz bersa uni na poda, na xo'jayini himoya qilolmasligini arslon ham bilarkan. Shuning uchun ham arslon qo'rqmasdan mag'rur ho'kizga tashlanib, uni tilka-pora qilib tashlabdi. Kekkaygan ho'kizni hech kim himoya qilmabdi.

Do'stlarni nazar-pisand qilmagan takabbur kishilar ushbu masaldagi ho'kizga o'xshaydilar. Ularning qismati ham xuddi shunday tugashi mumkin.

#### BALIQCHI VA MAYMUN

Bir kishi baliq ovlayotgan ekan. Bir maymun uni zimdan kuzatib turibdi. Maymun ham xuddi baliqchiga o'xshab daryoga to'r tashlamoqchi bo'libdi.

Kun qizib ketganidan baliqchi soya joyda dam olish uchun to'rlarini qirg'oqda qoldirib g'orning ichiga kirib ketibdi.

Maymun lip etib yetib kelibdi va baliqchiga o'xshab daryoga to'r tashlashga harakat qilibdi. Ammo to'rni qanday tashlashni bilmay, o'zi unga o'ralib qolibdi. To'rdan ozod bo'laman, deb tugunlarni yanada qattiqroq bog'lagan ekan, nafasi bo'g'ilib qolibdi. Baliqchi kelib qarasa, to'rga chirmashib qolgan maymun o'lim talvasasida yotgan ekan.

Unga qarata baliqchi debdi:

- Esi pastliging umringga zomin bo'libdi.

Shuning uchun ham birovlariga ko'r–ko'rona taqlid qilish hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi.

#### BO'RILAR VA DARYO

Bir kuni bo'rilar daryo tubida qo'yning terisini ko'rib qolishibdi. Ular: «Bu tirik qo'y bo'lsa kerak, endi uni qanday qilib qo'lga kiritsak ekan», deb o'ylay boshlabdilar. O'ylay-o'ylay, daryo suvini sipqarib ichamizda, keyin qo'yni yeymiz, degan qarorga kelibdilar.

Shu yaqinda turgan bir kishi ularga shunday debdi:

– Bu daryoning suvini sipqaraman deganlaringiz bilan ish bitmaydi, qorinlaringiz «paq» etib yorilib ketadi.

Qissadan hissa shuki, amalga oshmaydigan ish uchun qo'l urish yaxshi emas.

#### BALIQCCHI QUSH BILAN OVCHI

Baliqchi qush uni tutib olmoqchi bo'layotgan ovchini ko'rib qolibdi–da, shunday debdi:

– Mendan ham semizroq va mazaliroq bo'lgan qushlarni tutish bilan mashg'ul bo'lsang bo'lmaydimi?. Meni tutib olganing bilan senga nima foyda?

Xuddi masaldagi ovchiga o'xshab zarracha foydasi yo'q ish bilan foydalanmang.

#### INSON VA BUT

Bir odamning uyida xonaki but bor ekan. Uy egasi har kuni bir qo'y yoki echkini butga qurbonlik qilar ekan. Bora–bora hamma mol–u mulkidan ajralibdi. Bir kuni tushiga xonaki but kiribdi.

U shunday dermish:

– Bor mol–mulkingni o'zing sarf–xarajat qilding. Endi esa menga ta'na qilasan.

Hayotda shunday kishilar ham bo'ladi–ki, ular o'zlarining aybi bilan qashshoqlashib qoladilar–u, keyin hammasi uchun aybdor parvardigor, deb qismatlaridan noliydilar.

Ushbu masal shunday kishilar haqida.

#### QORIN BILAN OYOQLAR

Bir kuni qorin bilan oyoqlar qaysi birimiz kuchlimiz, deb tortishib qolishibdi. Oyoqlar:

– Biz eng kuchlimiz, chunki butun gavdani ko'tarib yuradigan ham bizlar, – deyishibdi.

Ammo qorin bunga e'tiroz bildiribdi:

– Agar men ovqatni hazm qilib turmasam, sizlar bir qadam ham bosolmaysizlar!

Agar kuchsizlar hamisha kuchlilarni quvvatlab turmasalar, eng kuchliman, deganlarning kuchi ham tugab qoladi.

#### G'OZLAR BILAN OQQUSHLAR

G'ozlar bilan oqqushlar bir oila bo'lib yashamoqchi bo'libdilar. Ular birga o'tlashib, tez–tez bir–birlarinikiga mehmonga borib turisharkan.

Bir kuni to'satdan ularga ovchilar hujum qilibdi. Yengil qanotli oqqushlar tezda havoga ko'tarilib, uchib ketibdilar. Beso'naqay g'ozlarni esa ovchilar tutib, o'ldiribdilar.

Qissadan hissa shuki, hamma ezgu ishlar ham birday amalga oshavermaydi.

#### HO'KIZ, ARSLON VA ECHKILAR

Arslondan qochayotgan ho'kiz bir g'orga yashiribdi. Ammo g'or ichida yovvoyi echkilar bor ekan. Ular ho'kizni shoxlay boshlabdilar. «Ilojim qancha, hammasiga chidashga to'g'ri keladi, – debdi ho'kiz, – menga echki shoxlaridan ko'ra arslonning qoziq tishlari qo'rqinch– liroq».

Ba'zan hayotda shunday voqealar bo'ladi–ki, kuchli insonlar o'zlaridan ham kuchliroq bo'lganlardan qo'rqib, mutlaqo ojiz kimsalar yetkazgan barcha azob–uqubatlarga sabr–toqat bilan chidaydilar.

#### QUSHLAR PODSHOSI

Bir kuni qushlar o'zlariga podsho tanlamoqchi bo'libdilar. Toj–taxt uchun kurash avjiga chiqqanda to'vus o'rnidan turib, debdi:

– Oralaringda faqat mengina podsho bo'lishga loyiqman, chunki go'zallikda tengi yo'qligim buning aniq isbotidir.

Bu gapga hamma rozi bo'lay deb turganida, to'vusning oldiga qarg'a kelib, shunday debdi:

– Sen bizning podshomiz deb faraz ham qilib ko'raylik. Ammo bizlarga burgut hujum qilib qolsa, qanday qilib qutqara olasan?

Juda to'g'ri qo'yilgan savol: axir o'zini himoya qilolmagan kishi qanday qilib o'zgalarni himoya qilolsin.

#### QALDIRG'OCH VA ILON

Qaldirg'och baland torn butog'iga in qurib, bola ochibdi. Polaponlariga ovqat izlab ketganida bir ilon o'rmalab kelib, ularni yeb qo'yibdi.

Iniga qaytgan qaldirg'och polaponlarini topolmay qattiq qayg'uribdi. Dugonasi uni yupata boshlabdi, uning gaplarini tinglab turib qaldirg'och shunday debdi:

– Faqat polaponlarimning halok bo'lganidan qayg'u– rayotganim yo'q. Men o'zimni xavf–xatardan xoli deb ishonganim – odamzotning xonadonida bolalarim halok

boiganidan juda qattiq azob tortayapman–ki, hasrat– larimning keti yo'q.

Ayniqsa kutilmagan tomondan boshingga to'satdan kulfat tushsa, nogahon baxtsizlikka uchrasang, inson uchun bundan ham og'irroq azob yo'q.

#### ILON TUXUMLARI VA TOVUQ

Bir kuni tovuq ilon tuxumlarini topib olibdi. Mehr– muhabbat va g'amxo'rlik bilan ularni bosib o'tiribdi.. Qaldirg'och buni ko'rib, shunday debdi:

– Hoy baxtiqaro! Nimaga bunday qilayapsan? Axir bu tuxumlardan ilon bolalari chiqib, birinchi bo'lib seni chaqib o'ldiradiku.

Yomon odamning yaxshilik qilishiga ishonish kerak emas. Unga qanchalik yaxshilik qilganing bilan u baribir senga yomonlik qiladi.

#### ONA QUYON VA URG'OCHI ARSLON

Bir kuni ancha–muncha bolalagan ona quyon urg'ochi arslonga ta na qilibdi:

– Buni qara, qancha quyonlarim bor. Sen bo'lsang bitta yoki ikkita bola tug'asan.

Urg'ochi arslon javob beribdi:

– To'g'ri, men faqat bitta bola tug'aman, ammo u quyon emas, arslon–a.

Bir gala ahmoq va noqobil farzandlardan ko'ra bitta munosib o'g'il yaxshi emasmi?

#### ARSLON, ODAM VA HAYKAL

Bir kuni yo'lda ketayotib, odam bilan arslon: «Kim hammadan kuchliroq», deb bahslashib qolibdi. Arslon o'zining kuchli ekanligini aniq isbotlar bilan tasdiqlayotgan paytida odamzotning ko'zi haykalga tushib qolibdi. Haykalda arslonning girdobidan bo'g'ayotgan bir yigit tasvirlangan ekan. Odamzod qah–qah kulib yuboribdi– da, sherning diqqatini haykalga qaratibdi. Bunga javoban arslon shunday debdi:

«Agar arslonlar orasida ham rassomlar va haykal– taroshlar bo'lganida edi, mana shu joyda odam bolasining tomog'idan bo'g'izlayotgan arslonning haykali turgan bo'lardi».

Shak–shubhasiz, bu yerda arslon haq. Chunki narsalarga va voqealarga har kim o'z nuqtai nazaridan yondashadi.

#### AYOL VA TOVUQ

Bir xotinning har kuni tug'adigan tovuq'i bor edi. Agar tovuq ko'proq ovqat yesa, unda har kuni ikkitadan tuxum tug'sa kerak, degan qarorga kelibdi xotin. U har kuni zo'rlik bilan tovuqning tumshug'iga don tiqa boshlabdi. Donlar tovuqning tomog'iga tiqilib o'lib qolibdi.

Ochko'zlikning oqibati nimalarga olib kelmaydi. Kattaroq foyda ketidan quvib, ba'zida odamzod bor narsasidan mahrum bo'ladi.